

XAYDARALI RO'ZIBOYEV

NAFISA KOMILOVA

GULBAHOR RADJABOVA

BIOINFORMATIKA



Toshkent 2022

MUNDARIJA

KIRISH	5
I. BOB. BIOINFORMATIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI, PREDMETI VA VAZIFALARI	7
Zamonaviy biologik tadqiqotlarda bioinformatikaning ahamiyati	17
Bioinformatikaning rivojlanish bohqichlari va yutuqlari	21
Bioinformatikaga oid asosiy atamalar va tushunchalar	22
II. BOB. DNK, RNK VA OQSIL	27
DNK tarkibining asosiy tuzilmalari	32
Asoslar orasidagi bog'lar shakllanishi	33
Azotli asoslarning kimyoviy modifikatsiyalari	34
DNKning shikastlanishi	35
Genom tuzilishi	40
DNKni modifikasilovchi fermentlar	44
Genetik rekombinatsiya	47
Ribonuklein kislota	50
Translyatsiya ishtirokchilari	56
RNK genomlari	61
DNK sekvenirlash	62
Genomika, proteomika va metabolomika	63
Ikki o'lchamli gel elektroforez	71
"Inson genomi" loyihasi	77
Umumiy va xususiy loyihalar ma'lumotlarini taqqoslash	82
III. BOB. ZAMONAVIY BIOINFORMATIK MA'LUMOTLAR BAZALARI	89
Zamonaviy nukleotid ma'lumotlar bazalari	91
DDBJ- ma'lumotlar bazasi-Yaponiya	93
EMBL-tadqiqot markazi va ma'lumotlar bazasi-Yevropa	98
NCBI - ma'lumotlar bazasi -GenBank-AQSH	103
INSDC - nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi	106
IV. BOB. ZAMONAVIY PROTEIN MA'LUMOTLAR BAZALARI ..	111
Protein bazalari turlari va ahamiyati	111
PDB - protein ma'lumotlari banki	115

PIR -protein axborot resursi.....	118
UniProt ma'lumotlar bazasi	119
SWISS-PROT-proteinlar ketma-ketligi ma'lumotlar bazasi.....	122
V. BOB. ZAMONAVIY METABOLIK YO'LLARI MA'LUMOTLAR BAZALARI	127
MetaCyc metabolik yo'llarining ma'lumotlar bazalari	127
HSLs metabolik yo'llarining ma'lumotlar bazalari	128
VI. BOB. GENOMLARNI TAHRIRLASH	131
Genomni tahrirlash texnologiyalarga asos solinishi.....	131
<i>TALEN - Transkripsiya aktivatorga o'xshash effektli nukleazlar</i>	138
DNKni ajratish domeni	138
CRISPR texnologiyasi	141
Rux barmoqlar nukleazlari.	153
Birlamchi nukleotidlar ketma-ketligini tahrirlash va identifikasiyalash.	158
VII. BOB. MOLEKULAR FILOGENETIKA	161
Filogenetik tahlil uchun bioinformatika vositalari	166
UPGMA juftliklar guruhi usuli.....	167
Nukleotidlar ketma-ketligini Genbank bazasiga joylashtirish.	168
VIII. BOB. MOLEKULAR DNK VA OQSIL MARKERLAR.....	169
IX. BOB. PANGENOM TUSHUNCHALARI VA ULAR BILAN ISHLASH.....	179
Genom ketma-ketliklariga asoslangan usullar.....	184
Evolutsion tadqiqotlarda pangenom qo'llanilishi.....	184
Pangenomlarning tibbiyotda qo'llanilishi	185
X. BOB. GEN ONTOLOGIYASI	188
XI. BOB. EPIGENOMIKA HAQIDA TUSHUNCHA	191
DNKning metillanishi.....	191
Gistonlarning modifikatsiyasi.....	196
XI. BOB. BIOLOGIK MAKROMOLEKULALARNI VIZUALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI.	203
Oqsillarning strukturasini va xususiyatlarini in silico sharoitida o'rganish	207
Polipeptid birlamchi strukturasining uchlamchi strukturaga o'tishi	210
Global va mahalliy alignmentlarni solishtirish.....	212

Makromolekulalar modellashtirishda Modeller dasturining qo'llanilishi	216
XII. BOB. MOLEKULYAR BIOLOGIK JARAYONLAR VA ULAR TAHLILI	217
Sun'iy neyronlar orasidagi bog'lanishlar.....	220
XIII. BOB. KARTALASHTIRISH DASTURLARI, GENLARNING FILOGENETIK SHAJARALARINI O'RGANISH.....	222
Xaritalashning dasturiy turlari	222
Genomning o'zgaruvchanligi va tartiblash xatolari	226
Qo'shimchalar yordamida yondashish asoslari	228

KIRISH

Bioinformatika biologik tizimlarda axborotni saqlash va uzatishning nazariy masalalari bilan shug'ullanadigan, informatikaning jadal rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Bioinformatikaning asosiy tarmoqlari DNK, RNK nukleotidlar ketma-ketligida saqlanadigan genetik “matnlarni” ochish muammosini hal qiladigan kompyuter genomikasi va hujayra metabolizmining tashkil etilishi, uning genom tomonidan boshqarilishini o'rganadi. Genomika va metabolomika fan sohalarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan eksperimental ma'lumotlar bilan yetarli miqdorda va qulay shaklda ta'minlaydigan kompyuter ma'lumotlar bazalarini yaratish bioinformatikaning asosiy bo'limlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Bioinformatika biologik tizimlar asosida olingan bilimlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanishni ta'minlaydigan axborot xizmatlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun bioinformatikaning bosh maqsadi biologik bilimlarni samarali foydalanishni ta'minlaydigan shaklda to'plash, biologik tizimlar elementlarini matematik modellarini qurish va tahlil qilishdan iborat. Organizmning faoliyatini ta'minlaydigan moddiy elementlarning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar uning genomini tashkil etuvchi DNK yoki RNK nukleotidlar ketma-ketligida saqlanadi.

Organizmlar genamlari DNKsining nukleotidlar ketma-ketligini yaratish (sekvenirlash) 21-asrning boshlarida rivojlangan va ancha tejamli va samarali texnologiyaga aylandi. Aniqlangan genom ketma-ketliklari soni tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Bioinformatikada genomika deb nomlangan maxsus bo'lim mavjud bo'lib, uning mavzusi DNK va RNK ketma-ketligida kodlangan biologik tizimlarning asosiy moddiy elementlarining tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni saqlash usullarini modellashtirish va o'rganishdir. Genomika sohasida ishlaydigan butun dunyo olimlarining asosiy sa'yi-harakatlari hozirda hujayra genomining nukleotidlari ketma-ketligi bo'lgan genetik “matnlarni” kompyuterda tahlil qilishning samarali usullarini ishlab

chiqishga qaratilgan. Genetik matnni tahlil qilish, DNK ketma-ketligining funksiyalarini aniqlashni anglatadi ya'ni, ularning boshqaruvchi va oqsil kodlovchi mintaqalari va genlar faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishni ta'minlovchi mintaqalar o'rganiladi. Hozirda eng dolzarb masala - bu inson genlarini hosil qiluvchi nukleotidlar ketma-ketligini, Xalqaro inson genomi loyihasiga muvofiq, oxirga yillarda inson genomining to'liq ketma- ketligini aniqlash, izohlash hisoblanadi. Aytish joizki, DNKning nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha aniq funktsiyalari bo'lgan mintaqalarni ajratish oson ish emas, chunki ular tabiatan ancha xilma-xildir. Hozirgi vaqtda nukleotidlar ketma- ketligi bo'yicha genlarni kompyuter usullari bilan aniqlash ehtimolligi 70% dan oshmaydi. Ammo bugungi kunda bioinformatik tadqiqot ishlari hujayradagi metabolism jarayonlarini o'rganishga ko'plab bag'ishlangan. Hujayradagi metabolism jarayonlarini modellashtirish va biologik tizimning moddiy elementlarining birgalikdagi faoliyatini o'rganishdan iborat bo'lgan bioinformatikaning tegishli bo'limini metabonomika deb atash mumkin.

Metabonomikaning vazifalari hujayradagi mavjud bo'lgan fermentlarning boshqaruvchi-regulyativ xususiyatlari va hujayrada gomeostazni saqlaydigan metabolismning dinamik tuzilishini aniqlash va modellashtirishdir.

I. BOB. BIOINFORMATIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI, PREDMETI VA VAZIFALARI.

Informatika fanining XX asming ikkinchi yarmida paydo bo'lgan davrdan boshlab fizika-matematika, texnika, gumanitar va boshqa fanlarga ham tadbqiq qilinishi hamda ular bilan hamkorlikda ishlashi tobora kengayib bormoqda. Hozirgi kunda informatika fani usullarini chetlab o'tadigan biron-bir fan sohasini topish mushkul. Tabiiy fanlar ham bundan mustasno emas. O'tgan asming 60- yillar oxiri 70-yillar boshlarida biologiyada EHM -elektron hisoblash mashinalari faol qo'llanila boshlandi: Shu bilan birgalikda ularning xotiralari, operatsion tezliklari oshdi, o'lchamlari kuchraytirildi hamda biologiya sohasida information tahlillarni talab etuvchi katta miqdordagi eksperimental ma'lumotlar to'planib qoldi. Bunga misol qilib bir qancha davlat olimlari hamkorligida 2003 yildayoq odam genomining sekvenirlanishini bo'yicha olingan ma'lumotlarni keltirish mumkin. Shunday qilib, XXI asr boshlariga kelib bioinformatika sohasi jadal chegaralanib qolganligi hamda tobora ko'payib borayotgan axborot hajmini saqlash zaruriyati tug'ilganligi bilan bog'lanadi. Ilk ketma-ketliklari aniqlangan bir necha yuz oqsillar haqida ma'lumotlar kitob-atlas shaklida nashr qilindi. 70 yillar boshlariga kelib aniqlangan ketma-ketliklar miqdori shu qadar ko'paydiki, ularning hajmi tufayli bu ma'lumotlarni kitob shaklida nashr qilishning umuman iloji yo'q edi. Inson miyasi bunday axborotlarni tahlil qila olmasligi va ketma-ketliklarni taqqoslash uchun maxsus dasturlar kerak bo'la boshladi. 90-yillarda genomika fani paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunga kelib bir qancha organizmlar, jumladan odam, sichqon, tovuq, qurbaqa, bir qancha baliq turlari, chuvalchanglar, yuzlab viruslar va bakteriyalar hamda yuzlab o'simlik turlarining genom ketma-ketliklari aniqlangan. Bakteriya genomining o'qilishi biologlar uchun Mendeleyevning ximiklar uchun yaratilgan davriylik qonunini ochish bilan tenglashtiriladi. Shu boisdan ham bunday hajmdagi biologik ma'lumotlarni tahlil qilishda kompyuter texnologiyasidan foydalanila boshlandi. Gen ketma-ketliklarini tenglashtirish bo'yicha birinchi algoritm 1970 yilda yaratildi. Kompyuterlar axborotlarni virtual ma'lumotlar

bazasida saqlash va ular ustida yuqori tezlikda operatsiyalar o'tkazish imkonini berdi.

Bioinformatika ham boshqa zamonaviy fanlar singari bir qancha fanlar, ya'ni molekulyar biologiya, genetika, matematika va kompyuter texnologiyalari fanlari birlashuvi asosida vujudga keldi. Uning asosiy vazifasi bu biologik molekulalar, eng avvalo nuklein kislotalar va oqsillarning strukturalari, funksiyalari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish uchun hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishdir. DNK nukleotid ketma-ketliklarini sekvenirlashning jadal usuli ishlab chiqilgandan so'ng ma'lumotlar bazasida to'planayotgan genetik axborotlar hajmi yuqori tezlik bilan orta boshladi. Informatika, lingvistika va informatsiya nazariyasi yutuqlari genetik matnlarni tahlil qilish imkoniyatlarini ochib berdi. Bioinformatikaning boshqa fan sohalari bilan o'zaro bog'liq holdagi rivojlanishi organizm va hujayrada yuz berayotgan biologik jarayonlarni tushunishning yangi darajasi shakllantirishga imkon beradi.


Bioinformatikaning yaralish tarixi XIII asrlarga borib taqaladi. Matematika tarixiga Fibonachchi (Fibonacci) nomi bilan kirib kelgan yosh italyan Pizalik Leonardo Leonardo of Pisa (1-rasm) biologik jarayonning birinchi matematik modelini tuzgan holda quyonlarnig ko'payishi to'g'risidagi masalani tavsiflab bergan.

XX asrning 20 yillariga kelib esa yana bir italyan olimi Vito Volterra -Vito Volterra "yirtqich-o'lja" ko'rinishidagi ikki biologik turning o'zaro harakati modelini yaratdi. 40 yillar oxirida biologiyaga fizik va matematiklar kirib kela boshladi. Biologiyaning zamonaviy



*1-rasm. Pizalik Leonardo
(1170-1250)*

tarixi 1953 yildan, Amerika olimlari Jeyms Uotson hamda Frensis Krik tomonidan DNK ning qo'sh spiralligi kashf qilingan davrdan boshlandi (2-rasm.).



2-rasm. Jeyms Uotson-chapda,
Frensis Krik-o'ngda

1950-yillardan shu kunga qadar bazalar ma'lumotida ko'p miqdordagi turli xil organizmlarning nukleotidlari qatori ma'lumotlari yig'ilgan bo'lib, ularni oddiy hisoblash usullarida taqqoslash va tahlil qilish juda murakkab bo'lgan. Bioinformatika fanining mustaqil fan sifatida shaklanishining asosiy xronologik sanalari sifatida

qo'yidalarni ko'rsatish mumkin.

1866 yil - Gregor Mendel tomonidan no'xat o'simligida irsiy omillarnig irsilanishi to'g'risidagi tajribalarini nasrda e'lon qilinishi.

1928 yil - Ervin Shyodinger bunday omillar 1000 angstromga teng bo'lishi to'g'risidagi fikrlarini aytgan.

1933 yil - A.Tizelius eritmadagi oqsil aralashmalarini elektroforetik ajratish usulini taklif etgan.

1951 yil - L.Ploing va R.Kyuri a-spiral va P-barg strukturasini hosil qiluvchi polipeptid zanjirlrining struktur modelini taklif qilishgan.

1952 yil - R.Franklin va M.Uilkins rentgenostruktur tahlil yordamida DNK regulyar strukturasining xaraterini aniqlashgan.

1953 yil - J.Uotson va F. Krik DNK ikkilamchi strukturasi taklif qilishgan.

1954 yil - M.Peruts va u boshqargan ilmiy guruh xodimlari oqsillar kristallografiyasida fazalar muammosini, og'ir atomlarning o'rin almashinishi usuli yordamida aniqlashgan.

1955 yil - F. Senger qoramol insulin oqsilining ketma-ketligini aniqlaydi.

1957 yil - Artur Kornberg ilk bor sintetik DNK molekulasi yaratgan.

1965 yil - Margaret Deyhoff ilk bor "Biotibbiyot tadqiqotlar milliy fondi" (BTMF), Vashington, xodimlari bilan hamkorlikda birinchi marotaba oqsil ketma-ketliklarini ma'lumotlar bazasiga birlashtirgan.

1968 yil - Verner Arber, Gamilton Smit va Deniel Nat restriktazalar ishlash prinsipini aniqlashgan.

1969 yil - Los Anjelesda "Stenford universiteti" va "Kaliforniya universiteti" tomonidan kompyuterlarni birlashtirish tizimining yaratilishi "ARPAnet" tarmog'ining yaratilishiga olib elgan.

1970 yil - Nidlmén - Vunshning ketma-ketliklarni taqqoslash maqsadida algoritm tavsifi beriladi.

A.DJ.Gibbs va G.A.Makimtayer aminokislotalar va nukleotid qatorlari uchun nuqtali matrisa yordamida aniqlash uslubini yoritib berishgan.

1972 yil - Paul Berg, ligaza yordamida birinchi sun'iy rekombinant molekulasi konstruktsiyasini yaratgan.

Stanli Koen, Enni Chan, Gerbert Boyer rekombinant RNKli birinchi organizmni yaratishadi.

1973 yil - Djozef Sembruk o'zining ishchi guruhi bilan birgalikda DNK elektroforezi uslubini, agaroz gelini qo'llab mukammallashtirishadi.

Stanli Koen DNK klonlashni amalga oshiradi.

"Brukheyven oqsil bazalar ma'lumoti" yaratiladi.

Robertt Metkaf o'zining doktorlik dissertasiya ishida "Ethernet" tarmog'iga ta'rif beradi.

1974 yil - Vint Karf va Robert Kan kompyuter tarmoqlarini "Internet" global

tarmog'iga birlashtirish konsepsiyasini rivojlantirishdi va ma'lumotni uzatishning protokollarini ishlab chiqishdi - Transmission Control Protocol, TCP.

1975 yil - P.H.O'Farrell poliakrilamid gelida dodesil sulfat ishlatgan holda ikki o'lchamli elektroforez uslubini yaratdi.

Edvard Sauzern Sauzern-blot tahlilini yoritib bergan.

Bill Geyts va Pol Allen "Maykrosoft" - Microsoft Corporation, korporasiyasiga asos solishadi.

1977 yil - Frederik Senger, Allen Maksam va Uolter Gilbert DNK sekvenlash uslubini ishlab chiqishdi.

1979 yil - "Los Alamos milliy laboratoriyasida" Nyu Meksiko shtatida, Uolter Goud xamkasblari bilan birgalikda, ilk bor "GenBank" ma'lumotlar bazasining prototipi asosida DNK ma'lumotlar bazasini birashtirishdi.

1980 yil - Mark Skolnik, Rey Uayt, David Botshteyn va Ronald Deyvis inson genomining PDR-marker (Pestriktazalar uzunligi polimorfizmi) xaritasini yaratdilar.

"FX-174" organism genlarining to'liq ketma-ketligi aniqlandi.

Ko'p o'lchamli yadroli magnitli rezonans usuida Vutix oqsil struktirasini aniqlash ishlarini amalga oshirdi

Kaliforniyada "IntelliGenetics Inc." kompaniyasi tashkil etildi va uning birinchi mahsuloti "IntellGenetics Suit" oqsillarni aniqlash va DNK ketma-ketliklarini aniqlaydigan va tahlil qiladigan dasturlar paketi ishlab chiqildi.

Smit-Uotermannning ketma-ketliklarni tahrirlash algoritmi yaratildi.

AQSH Oliy sudi suniy modifisirlangan bakteriya patentini tan oldi.

1981 yil - IBM korporasiyasi bozorga personal kompyuterlarni chiqardi.

Inson mitoxondrial genomi sekvens qilindi.

D.Benson va LD.Lipmen tomonidan "GENINFO" - menyu orqali ketma-ketliklar ma'lumotlar bazasini boshqaradigan dasturni ishlab chiqishdi.

Mayzel va Lenk rangli tasvir va sxemalar filtrasi dasturini ishlab chiqishdi va nuqtali matrisalar uslubini ishlash prinsipi soddalashtirilar.

1982 yil - rekombinant DNK asosida yaratilgan dorivor vosita ilk bor bozorga chiqarildi.

Viskonsin biotexnologiya markazida “genetics Computer Group, GCG”, axborot bo’limi tashkil etildi.

1983 yil - Sotuvda CD kompakt diskar chiqarildi.

1984 yil - Djon Postelning “Internet” tarmog’iga SID nomli domen tizimlari joylashtirildi.

“Apple computer” korporasiyasi macintosh kompyuterlarini chiqarishdi.

1985 yil-Kerri Mullis PZR-polimerazali zanjirli reaksiyani ixtiro qildi.

Robert Sinsheymer “Inson genomi” proektini ishlab chiqishni taklif etdi.

1986 yil - Tomas Roderik genlarni xaritalash, sekvenlash va tahlil qilish muammolari bilan shug’ullanadigan aloxida ilmiy fanni “Genomika” deb atalishini taklif etdi.

Jeneva universiteti tibbiy biokimyo bo’limi va Evropa molekulyar biologiya laboratoriyasi bilan xamkorlikda SwissPROT ma’lumotlar bazasi yaratildi.

Leroy Hud va Lloyd Smit DNK ni sekvenlash usulini avtomatlashtirildi.

1987 yil - AQSH lari tabiatni muhafaza qilish vazirligi “Inson genomi” loyihasini rasmiy ishga tushurganligini e’lon qildi.

1988 yil - Devid T.Byork hammualliflar bilan birgalikda, zamburug’lar sun’iy xromosomasini ishlatish uslubini yoritdilar.

Pirson va Lipmen FASTA algoritmini e’lon qilishdi.

AQSHlari “Rak milliy institute”da “Biotexnologik ma’lumotlar milliy markazi” tashkil etildi.

1989 yil-AQSH lari Sog’lomlashtirish milliy institute - NIH “Inson genomini tadqiqot qilish milliy markazini” tashkil etdi.

Oxford Molecular Group Ltd., OMG, “Anakonda”, “ASP”, “Cameleon” dasturlarini ishlab chiqishdi va oqsil strukturalarini ishlab konstruksiyalaydigan, dorivor vosiyalarni molekulyar modellashtiraigan va ushalb chiqadigan dasturlarni yaratdilar.

1990 yil - Altshtul bir qancha dasturchilar bilan birgalikda, BLAST algoritmini ishlab chishdi.

1991 yil - “CERN” Jeneva, tomonidan “Xalqaro o’rgimchak to’ri” ning boshlang’ich ishlariga asos solishganin e’lon qilishdi.

Kreyg Venter ekspressiyalanadigan ketma-ketliklar yarliklari yordamida genlarni aniqlash texnologiyasini yaratdilar.

Kaliforniyada “Insyte Pharmaceuticals” farmasevtik genomika bilan shug’ullanadigan kompaniya tashkil etildi.

AQSH larining Yuta shtatida Myriad genetics Inc. kompaniyasi tashkil etildi va uning asosiy faoliyati asosiy kasalliklar genini aniqlash va ularning irsiylanishini o’rganishdan iborat.

1993 yil-Frensis Kollins “Inson genomi” loyihasini boshqardi. Buyuk Brutaniyada “Senger markazi” tashkil etildi, loyihaga boshqa davlatlar ham qo’shildi. Loyiha faoliyatini 2005 yilda tugatish rejalashtirildi.

1994 yil - Ettvud va Bek PRINTS oqsillar motivi ma’lumotlar bazasini yaratishdi.

Merilend shtatida Gene Logic kompaniyasi tashkil etildi.

1995 yil - “TIGR” kompaniyasi olimlari erkin yashaydigan *Haemophilus influenzae* organism genom ketma-ketliklarini aniqlashdi.

1996 yil - Achitqi zamburug’i *Saccharomyces cerevisiae* genomi sekvenlandi.

PROSITE ma’lumotlar bazasi ishlab chiqildi.

Affimetrix kompaniyasi birinchi komersiya DNK chipklarini ishlab chiqishdi.

1998 yil - *Caenorhabditis elegans* chuvalchangi va *Saccharomyces cerevisiae* genomi taxrirlandi.

AQSH lari NIH - National Institute of Health - instituti tomonidan “PON” - aloxida oligan nukleotidlar polimorfozmi loyihasiga asos solindi, ushbu loyiha inson genomida o’tayotgan o’zgarishlarni tadqiqot etishga qaratilgan.

1999 yil-Inson birinchi xromosomasining ketma-ketligi e’lon qilindi.

2000 yil - *Pseudomonas aruginosa*, *Arabidopsis thaliana* va *Drosophila melanogaster* genomlari sekvenlandi.

2001 yil-fevralda “Science” va “Nature” jumallarida inson genomi va uning tahlillari annotasiyalari e’lon qilindi.

2002 yil - boshqa organizmlar genom ketma-ketliklari e’lon qilindi.

Bugungi kunga qadar bioinformatikaga turlicha ta’riflar beriladi, biroq asosan bioinformatika deganda turli biologik axborotlarni tahlil qilishda kompyuterdan foydalanish tushuniladi. Shuningdek «bioinformatika» termini maydoni ham juda kengaydi va biologik ob’ektlar bilan bog’liq barcha matematik algoritmlardan hamda biologik tadqiqotlarda qo’llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Bioinformatikada informatikadagi singari amaliy matematika, statistika va boshqa aniq fanlar usullari qo’llaniladi. Bioinformatika shuningdek genetika, molekulyar biologiya, biofizika, ekologiya, va qator tabiiy fanlar sohalarida foydalaniladi. Bioinformatika o’z ichiga qo’yidagilarni oladi:

S qiyosiy genomikada kompyuter tahlilining matematik usullari (genom bioinformatikasi);

S oqsil strukturalarini bashorat qilish uchun algoritm va dasturlarni ishlab chiqish (strukturaviy bioinformatika);

S muvofiq hisoblash uslubiyatlari strategiyasi tadqiqoti hamda informatsion murakkablikning biologik tizimlar tomonidan umumiy boshqarilishi.

Amaliy ma’noda bioinformatika - bu biologlar manfaatlari uchun xizmat qiladigan amaliy fandır. Ma’lumotlarni birlamchi tahlil qilish texnik bioinformatika sohasiga tegishlidir. Olingan ma’lumotlarni qayerdadir saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash zarurati mavjud, jumladan B geni qaysidir jarayonda qatnashadi va hokazo, bu esa bioinformatika fanining amaliy ahamiyatidan dalolat beradi.

Bioinformatika biologiya sohasining qo’yidagi yo’nalishlarida qo’llaniladi:

- genomika, transkriptomika va proteomika;
- rivojlanish biologiyasida kompyuter modellashtirish;

- gen tarmoqlarining kompyuter tahlili;
- populyatsion genetikada modellashtirish.

Bioinformatika dori preparatlarini loyihalashtirish muddatini 5-6 yildan bir necha oylarga qisqartirish imkoniyatini yaratib farmakologiya sohasiga ham osongina kirib bordi. Shuningdek, bu fan ko'plab boshqa tibbiyotga va biologiyaga oid fanlar bilan integratsiyalandi. Bugungi kunda bioinformatikaning qo'yidagi bo'limlari mavjud:

- umumiy bioinformatika;
- klinik bioinformatika;
- strukturaviy genomika;
- funktsional genomika;
- farmakogenomika;
- klinik proteomika;
- funktsional proteomika;
- strukturaviy proteomika.

Bioinformatika usullari yordamida katta hajmdagi biologik ma'lumotlarni shunchaki tahlil qilish emas, balki har doim ham oddiy tajribalarda aniqlab bo'lmaydigan qonuniyatlarni isbotlash, genlar va ular kodlaydigan oqsillar funksiyalarini bashorat qilish, hujayradagi genlarning o'zaro ta'siri modelini qurish, dori preparatlarini yaratish mumkin. Bu ma'lumotlar oqsil ketma- ketliklarini va regulyator uchastkalarni aniqlash uchun foydalaniladi. Ma'lumotlar miqdorining ko'payishi bilan endi ketma-ketliklarni qo'lda tahlil qilish mumkin bo'lmay qoldi. Hozirgi kunda milliardlab juft nukleotidlardan tashkil topgan minglab organizmlar genomlari bo'yicha qidiruvlar olib borish uchun kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.

Yirik genomlar uchun DNK fragmentlarini yig'ish yetarli darajada qiyin vazifalardan hisoblanadi. Bu usul hozirda qariyb barcha genomlar uchun qo'llaniladi va genomlarni yig'ish algoritmlari bioinformatika sohasida bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Genomda genlarni va regulyator

elementlarni avtomatik tarzda qidirish genetik ketma-ketliklarga kompyuter tahlilini qo'llashda yana bir misol bo'la oladi.

Genomika kontekstida annotatsiya - bu DNK ketma-ketligida genlarni va boshqa ob'ektlarni markirovkalash nishonlash jarayonidir. Genomlar annotatsiyasi birinchi dasturiy tizimi Owen White tomonidan 1955 yildayoq yaratilgan edi. Bu orqali evolyutsion biologiya turlarning kelib chiqish va paydo bo'lishini, ularning davrlar bo'yicha rivojlanishini o'rganadi. Informatika evolyutsiyani o'rganuvchi biologlarga bir necha jihatlarida yordam berdi:

1) barcha DNK dagi o'zgarishlarni o'rgangan holda ko'p sonli organizmlar evolyutsiyalarini tadqiq qilishda;

2) yanada kompleks evolyutsion hodisalarni o'rganish imkonini beruvchi genomlarni bir-biriga taqqoslashda;

3) populyatsiyalar kompyuter modellarini qurishda;

4) ko'p miqdordagi turlar haqida ma'lumotni o'z ichiga oluvchi nashrlarni sifatida aniqlanishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot mahsulotlari qidirish, vizualizatsiya qilish, axborotni tahlil qilish va eng muhimi, natijalarni boshqa tadqiqotchilar bilan bo'lishda foydalaniladi.


Hozirgi zamon ilmiy biologik adabiyotida bioinformatika bilan birgalikda "hisoblash biologiyasi" iborasi ham uchrab turadi. Hisoblash biologiyasi - bu fan sohasi emas, balki biologik jarayonlarni o'rganish uchun kompyuterlardan foydalanishga uslubiy yondashuv hisoblanadi. Garchi "hisoblash biologiyasi" ko'proq algoritmlar va aniq hisoblash usullarini ishlab chiqishlar bilan shug'ullansada hozircha "bioinformatika" va "hisoblash biologiyasi" iboralaridan tez-tez ma'nodosh so'zlar sifatida foydalanilmoqda. Hisoblash biologiyasida foydalaniladigan barcha usullar ya'ni, masalan, garchi biologik vazifalar bilan bog'liq bo'lsada matematik modellashtirish - bu bioinformatika hisoblanmaydi.

Bundan tashqari matematik biologiya ham mavjud bo'lib, u ham bioinformatika singari biologik muammolarni yechishda ishlatiladi, biroq unda qo'llaniladigan usullar natijasi son bilan ifodalanmaydi va ularni amalga oshirishda

dasturiy va jihoz ta'minoti talab etilmaydi. Oqsillar fazoviy tuzilmalarini bashorat qilishda ishlatiladigan algoritmlar va dasturlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi strukturaliy bioinformatika boshqalaridan ajralib turadi.

Zamonaviy biologik tadqiqotlarda bioinformatikaning ahamiyati

Bioinformatika biologiyaning ilmiy tajribalari asosida olingan natijalami tahlil qiladi. Olingan ma'lumotlarni tadqiqotchi ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan barcha to'plamlar bilan solishtiradi. Bordini, u o'zi aniqlagan ketma-



3-rasm. PubMed ma'lumotlar bazasining asosiy oynasi.

ketlikni ma'lumotlar bazasidan topa olmasa bunda u bu ma'lumotni shu joyga kiritib qo'yadi va bu bilan bazani yanada boyitadi. Ma'lumotlar bazasi funksiyalariga saqlash, tizimlashtirish, axborotlarni yangilab turish unga kirish huquqi bilan ta'minlashlar kiradi. Bu operatsiyalar esa katta qudratlardagi kompyuterlarni talab qiladi. Shuningdek biologik mavzular majmuidagi ilmiy nashriyotlar bazalari ham mavjud. Biologiya bo'yicha istalgan ilmiy jurnalning barcha sonlarida chiqadigan har bir maqola ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi izlanuvchi uni internet tarmog'i orqali oson topib olishi uchun qisqa ta'rif berib qo'yiladi (3-rasm).

Integral ma'lumotlar bazasi va ensiklopediyalar konkret gen, oqsil, funksiyalarni amalga oshishi haqida ma'lumot beradi. Ular katta miqdordagi boshqa ma'lumotlar bazalari axborotlarini umumlashtiradi va uni hamisha yangilab turadi. Har qanday yangidan o'qilgan genom harflaming turli xil kombinatsiyalarida

takrorlanuvchi ulkan ketma-ketliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bioinformatika bunday xilma-xillikdagi matndan genlarni ajratib olish imkoniyatini beradi.

Genomdan genni ajratib olish kabi bunday operatsiya genomni belgilash deb ataladi. Barcha genlar funksiyalarini tajribalar asosida aniqlash yetarli darajada murakkablikni yuzaga keltiradi. Bu holatda bioinformatika funksiyalari allaqachon aniqlangan genlar bilan solishtirib ko'rishga tayangan holda ularni bashorat qilishda ko'maklashadi. Oqsil molekulasida biologik vazifalarning har xil turlariga javob beruvchi uchastkalar mavjud. Bioinformatika usullari yordamida ushbu uchastkalarni aniqlash konkret bir oqsilning barcha spektr funksiyasini ochib beradi. Oqsil strukturalarini tajribalar asosida, ya'ni masalan oqsil molekulalaridan tashkil topgan mikroskopik kristalni rentgen nurlari bilan nurlantirish orqali aniqlash mumkin. Bu esa yetarli darajada uzoq va qimmatli jarayon hisoblanadi. Ayrim oqsillar kristall tuzilmalarga ega bo'lmaganligi sababli ularni tahlil qilishning umuman iloji yo'q. Bioinformatika kompyuter modellashtirish yordamida hech bo'lmaganda oqsil strukturasi uzoqroq o'xshash ketma-ketligi ma'lum bo'lgan holatlarda oqsilning fazoviy modelini yasashda yordam beradi. Bioinformatika metodlari asosida olingan molekulaning fazoviy strukturasini bilgan holda uning qanday ishlashini va uning ishlashiga qanday ta'sir eta olishni bashorat qilish mumkin. Dori preparatlarini fazoda har xil ximiyoviy bog'lanishlar bilan oqsil-nishonlarning o'zaro ta'sirini modellashtirish asosida tayyorlash mumkin. Bunda katta miqdori bog'lanishlarni saralash va eng maqbullarini tanlab olish kerak bo'ladi.

Biologiya, kimyo, fizika, matematika hamda informatika fanlarini birlashtirish biologik tizimni har tomonlama tavsiflash imkonini beradi. Kompyuter resurslaridan foydalanish tahlil jarayonini bir necha marotaba tezlashtiradi hamda olinadigan natijalarning aniqligini va tezligini oshiradi.

Bioinformatika texnologiyalaridan foydalanib qilingan biologiya sohasidagi yangi kashfiyotlar tez suratda tibbiyot, farmakologiya, kosmetologiya, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, ekologiya va boshqa sohalarda jalb qilinadi.

Bioinformatika mustaqil ravishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan natijalar beradi va shuningdek biologiyaning turli sohalarida ishlash uchun sharoit bilan ta'minlaydi. Bioinformatika bo'yicha ishning katta qismi biologik axborotni saqlash va uni tahlil qilish uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanishtexnologiyalari atrofiga jamlangan. Bunday ma'lumotlar bazasi ommabop yoki shaxsiy bo'lishi mumkin. Ularga ochiq standartlar orqali ommaviy kirish huquqini olish esa muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi ma'lumotlar bazasidan foydalanishga nisbatan bu usullar anchagina keng tarqalgan bo'lsada biologik axborotlarni tahlil qilish uchun ontologiya va mantiqiy usullardan foydalanish rivojlanib bormoqda.

Bioinformatikaning rivojlanish bo'chqichlari va yutuqlari

Bir qancha xorijiy davlatlarda 20-21 asrlarda bioinformatika jadal suratda rivojlanayotgan dunyo biotibbiyot fanlari sohasiga aylanib bordi. Bioinformatik texnologiyalar iste'molchilari tadqiqotchilar, fundamental ishlanmalar mualliflari bilan bir qatorda tibbiyot, farmakologiya, biotexnologiya hamda o'quv muassasalari hisoblanadi. Fanning bu sohasi AQSHda va shuningdek boshqa rivojlangan davlatlarda muhim yo'nalish sifatida qaraladi.

Yevropa, Osiyo, AQSH hamda Avstraliya davlatlarida bioinformatika markazlari soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bioinformatika bo'yicha yuqoridagi davlatlarda, akademiya hamda ta'lim markazlari bilan bir qatorda so'nggi yillarda sohada olingan tadqiqot natijalardan tijorat maqsadida foydalanishga yo'naltirilgan sezilarli darajadagi tashkilot va loyihalar yuzaga keldi. Bu eng avvalo genomlarning, shuningdek odam genomining strukturaviy, funktsional hamda qiyosiy tahlili bo'yicha faoliyat yurituvchi tashkilotlardir. Bioinformatika sohasi bo'yicha yaratilgan usullarni qo'llash bilan birga amaliy muammolarni yechish yo'lida, xususan farmakologiyada texnik hamda dasturiy bazalar jadal suratda rivojlanib bormoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishda dasturiy ta'minot sanoati ham takomillashib bormoqda.

Mamlakatimizda genomika va bioinformatika fanlarining rivojlanishiga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli dunyo fanida o'z o'rniga ega nufuzli ilmiy maktab va muhit shakllantirildi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilib, keng miqyosda xalqaro ilmiy aloqalar yo'lga qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Genomika va bioinformatika" markazida sohada anchagina muvaffaqiyatli dasturlar amalga oshirildi. Markazda yetakchi xorijiy ilmiy markaz tajribalariga ega, bioinformatik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni puxta egallagan ilmiy xodimlarning faoliyat olib borishi va shular hisobga olingan holda markazda bioinformatika laboratoriyasining tashkil etilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Markaz ilmiy jamoasi hanuzgacha noaniq bo'lgan g'o'za genomidagi rekombinatsion bloklar (ya'ni, avloddan avlodga ko'chib o'tadigan gen allellari to'plami) o'lchamlarini topib, topib, zamonaviy

tezkor “assotsiativ kartalashtirish” usulini kashf etdi. Natijada g’o’za genomidagi genlardan foydalanishning yangi imkoniyatlari ochilib, g’o’zada zamonaviy markerlarga asoslangan selektsiya usullari ishlab chiqildi. Gen-nokaut yoki RNK interferentsiyasi molekulyar genetika va bioinformatika usullari mahsuli bo’lib, organizmning belgilangan genlari faolligini to’xtatish imkonini beradi. Shu tufayli genlari “o’chirilgan” (nokaut qilingan) organizm vujudga keladi. Bu nukleotid ketma-ketligi ma’lum bo’lgan genlarning funksiyasini aniqlashga yordam beradi. Nokaut qilingan va normal organizm namunalari orasidagi farqlar, o’rganilayotgan gen funksiyasini ko’rsatib beradi. Qishloq xo’jaligi ekinlarining biologik ko’rsatkichlari - hosildorlik, ertapisharlik, zararkunanda va hasharotlarga chidamlilikning namoyon bo’lishida ishtirok etuvchi genning tarkibi va funksiyasi aniqlangandan so’ng maqsadga muvofiq ravishda ushbu gen faoliyatini kuchaytirish yoki aksincha uni to’xtatish mumkin. Markaz olimlari erishgan eng so’nggi yutuqlardan biri - bu ular tomonidan g’o’za uchun yaratilgan dunyodagi ilk -nokaut texnologiyasidir.

Bioinformatikaga oid asosiy atamalar va tushunchalar

Bioinformatika, shuning uchun bio bo’limlariga kiritilgan - anatomiya, botanika, virusologiya, mikrobiologiya, tsitologiya, paleontologiya, fiziologiya va boshqalar bilan birga. Bioinformatika eksperimental biologiyada olingan dalillarni tahlil qiladi. Eksperimentator olingan ma’lumotlarni ma’lumotlar bankida mavjud bo’lgan butun to’plam bilan solishtiradi. Ketma-ketliklar aniqlanganch, ma’lumotlar bazasiga kiritadi. Ma’lumotlar banklarning vazifalariga axborotlarni saqlash, tizimlashtirish, yangilash va ulardan foydalanishni ta’minlash kiradi. Biologik mavzulardagi ilmiy nashrlar banklari ham mavjud. Xar qanday ilmiy jurnalning sonida chop etilgan har bir maqola bu banklarda saqlanadi va boshqa har qanday olim uni internetda osongina topishi uchun imkon bo’ladi. Yeng yirik onlayn kutubxona PubMed tibbiy va biologik nashrlar so’nggi 50 yil ichida chop etilgan 16 milliondan ortiq maqolalarni o’z ichiga oladi. Integratsiyalashgan ma’lumotlar banklari va entsiklopediyalar muayyan gen haqidagi barcha ma’lum

ma'lumotlarni birlashtirib, muhim vazifani bajaradi. Boshqa banklardagi ma'lumotlarni ko'p sonli ma'lumotlar bilan umumlashtiradilar va doimiy uni yangilab turishadi. Bioinformatika o'z oldiga qanday tadqiqot maqsadlarini qo'yishini ko'rib chiqaylik. Genomlarni tahlil qilish, ulardagi genlarni qidirish, yangi o'qilgan genom turli takrorlanadigan kombinatsiyalar aniqlash kiradi. Genomdan genni ajratib olishning bu operatsiyasi genom markup deb ataladi.

Gen funksiyasini bashorat qilish. Barcha genlarning funksiyalarini eksperimental ravishda aniqlash juda ko'p vaqt talab qiladi. Bu holda, bioinformatika ularni asoslangan xolda bashorat qilishda yordam beradi va vazifalari allaqachon aniqlangan genlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Biron xil ketma-ketlikning alohida olingan bo'limlarining rolini baholash maqsadida masalan oqsil molekulasi biologik vazifalariga ma'sul bo'lgan joylar mavjud bo'ladi. Ushbu bo'limlarni quyidagi usullar yordamida aniqlashdan oldin bioinformatika ma'lum bir oqsilning barcha funksiyalarini bashorat qiladi. Oqsillarning ketma-ketliklarining molekulyar modellarini qurish asosida, Protein tuzilmalari eksperimental tarzda aniqlanadi, masalan, oqsil molekulalaridan iborat mikroskopik kristalni rentgen nurlari bilan nurlantirish orqali. Bu uzoq va qimmat jarayon. Ba'zi oqsillarni kristall strukturaga ega bo'lmaganligi uchun umuman bunday tahlil qilib bo'lmaydi. Kompyuter modellashtirish yordamida bioinformatika oqsilning fazoviy modelini tuzishga yordam beradi. Makromodellarning faoliyat mexanizmi tadqiqoti o'tkazilgandan so'ng, ularning modellari asosida olingan molekulaning fazoviy tuzilishini asosida bioinformatika usullaridan foydalanib, uning qanday ishlashini taxmin qilish mumkin ish.

Kompyuter dasturlariga asoslangan dori dizaynlarini yaratish. Dorilar turli kimyoviy birikmalarning fazodagi maqsadli oqsil bilan o'zaro ta'sirini simulyatsiya qilish yo'li bilan loyihalanishi mumkin. SHu bilan birga bunday ta'sirlarning optimal bo'lgan shaklini tanlash kerak. Axborotlarni tahlil qilish biologiya, kimyo, fizika, matematika va informatika fanlari uyg'unligi biologik tizimni ko'p jihatdan

tavsiflashga imkon beradi. Foydalanish kompyuter resurslari tahlil jarayonini tezlashtirishga yordam beradi vanatijalarni olish aniqligi va tezligini oshiradi.

Informatika yutuqlaridan foydalanish. Bioinformatika texnologiyalari yordamida biologiyada yangi kashfiyotlar tibbiyot, farmakologiya, kosmetologiya, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, ekologiya va boshqa sohalarda keng qo'llanilmoqda. Bioinformatika mustaqil ravishda amaliy qiymatga ega bo'lgan natijalarni beradi va turli sohalarda ishlash uchun sharoit yaratadi.

Bioinformatikaning asosiy metodlari. Bioinformatikaga oid ishlarning aksariyati biologik axborotni saqlash va keyin uni qayta ishlash uchun ma'lumotlar bazalaridan foydalanish texnologiyasiga qaratilgan. Bu ma'lumotlar bazalari davlatniki va xususiy bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlar bazalariga ochiq standartlar orqali ommaviy kirishni ta'minlash juda muhimdir. Biologik axborotni qayta ishlash uchun ontologiyalar va mantiqiy usullardan foydalanish rivojlanib bormoqda.

Aniq dasturiy paketlarga misollar. Bioinformatika usullari tizimlar biologiyasida muhim rol o'ynaydi. Ular kompyuterlar yordamida keng imkonlar yaratadi.

- tajriba ma'lumotlarini ma'lumotlar banklariga to'plash va integratsiya qilish;
- kompyuter tahlilini amalga oshirish uchun;
- turmush tizimlarini strukturaviy va funktsional tashkil etishni matematik modellashtirishni o'tkazish;
- tirik tizimlarning yangi xususiyatlarini bashorat qilish;
- shu asosda eksperimental tadqiqotlarning yangi bosqichlarini rejalashtirish.

Qo'yida bugungi kunda keng tarqalgan asosiy ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklari keltirilgan:

- GenBank - <http://www.ncbi.nlm.nih.gov/GenBank>
- Nukleotid ketma-ketliklarining ma'lumotlar banki (3400000000juft asoslari 461000 ketma-ketliklarda).
- SWISS-PROT - <http://www.expasy.ch/sprot/sprot-top.html>

- Oqsillarning ketma-ketligi asosida annotatsiyalangan ma'lumotlar banki.
- PIR - <http://www.nbrf.georgetown.edu/pir/searchdb.html>
- gomologiya va taksonomiyaga ko'ra, oqsillarning ketma-ketligiga ko'ra annotatsiyalangan bank ma'lumotlari.
- PDB - <http://www.rcsb.org/pdb/>
- 3D strukturaga ko'ra, biologik makromolekulalarning ma'lumotlar banki. Bank dambix po strukture biologicheskix makromolekul.
- NDB - <http://ndbserver.rutgers.edu>
- Nuklein kislotalar bo'yicha bank ma'lumotlari. DNK va RNK ning uchlamchi fazoviy tasvirlari kiritilgan.
- ProDom - <http://protein.toulouse.inra.fr/prodom.html>
- Oqsillar domeniga ko'ra ma'lumotlar banki.
- ACT - (Artemis Comparison Tool) - genom tahlili;
- Arlequin - populyatsion-genetik ma'lumotlar tahlili.
- Bio Edit - aminokislota va nuklein kislotalar ketma-ketligini taxrirlanishi redaktori;
- Bio Numerics - bioinformatika bo'yicha tijorat universal paketlar dasturi;
- BLAST - aminokislota va nuklein kislotalar ketma-ketligining bazalarida bir-biriga yaqin ketma-ketliklarni izlash dasturi;
- ClustaIW - keng ravishdagi aminokislota va nuklein kislotalar ketma-ketligini taxrirlash
- FASTA - aminokislota va nuklein kislotalar ketma-ketligining uxshash algortmlari to'plami
- Mesquite - Java tilidagi qiyosiy biologiya uchun dastur
- Muscle - ClustalIW ga nisbatan tez va aniq dastur. Aminokislota va nuklein kislotalar ketma-ketligining solishtirish dasturi.
- PopGene - populyatsiyalarning genetik xilma xilligini tahlili dasturi. Populations - populyatsion-genetik tahlil.

Keng qo'llaniladigan saytlar:

1. <http://www.bioinformatics.ru>
2. <http://www.rusbiotech.ru>
3. <http://elementy.ru/lib/430895>
4. <http://www.sibai.ru>
5. <http://lake.baikal.ru>
6. <http://www.jcbi.ru>
7. http://www.rtcbl.iitp.ru/index_r.html
8. <http://medi.ru/pbmc/8800101.htm>

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Bioinformatika sohasida birinchi biologik ma'lumotlar dasturi qachon va kim tomonidan yaratilgan?*
2. *Bioinformatika biologiya sohasining qaysi yo'nalishlarida qo'llaniladi?*
3. *Bioinformatikaning qanday bo'limlari mavjud?*
4. *4.Genomika kontekstida annotasiya nimani anglatadi?*
5. *5.Zamonaviy biologik tadqiqotlarda bioinformatikaning tutgan o'rniga ta'rif bering?*
6. *Gen funksiyasini bashorat qilish nimaga asoslanadi?*


II. BOB. DNK, RNK VA OQSIL

Dezoksiribonuklein kislota (DNK) - bu tirik organizmlarning rivojlanishi va faoliyati uchun genetik dasturni saqlash, avloddan avlodga yetkazish va amalga oshirishni ta'minlaydigan makromolekuladir. DNK molekulasi biologik ma'lumotlarni nukleotidlar ketma-ketligidan iborat genetik kod shaklida saqlaydi. DNKda har xil turdagi RNK va oqsillarning tuzilishi haqida ma'lumotlar mavjud. Eukariot hujayralarda - hayvonlar, o'simliklar va zamburug'larda DNK xromosomalarning bir qismi sifatida hujayra yadrosida, shuningdek ba'zi hujayra organoidlarida - mitoxondriya va plastidlarda joylashgan. Prokariot organizmlar - bakteriyalar va arxeylar hujayralarida aylana yoki chiziqli DNK molekulasi, ya'ni nukleoid deb ataladigan hujayra membranasiga biriktirilgan. Quyi taraqqiy etgan eukariotlar masalan, achitqi zamburug'ida plazmidlar deb nomlangan kichik, avtonom, asosan aylana shaklidagi DNK molekulalari mavjud. Bundan tashqari, bitta yoki ikki zanjirli DNK molekulalari DNK - tutuvchi viruslarda viruslar genomini hosil qilishi mumkin.

Kimyoviy nuqtai nazardan, DNK bu takrorlanadigan bloklar - nukleotidlardan tashkil topgan uzun polimer molekuladir. Har bir nukleotid azotli asos, shakar - dezoksiriboza va fosfat kislota guruhidan iborat. Zanjirdagi nukleotidlar orasidagi bog'lanishlar dezoksiriboza va fosfat kislota guruhi fosfodiefir bog'lari orqali hosil bo'ladi.

Aksariyat hollarda bir qatorli DNKni o'z ichiga olgan ba'zi viruslar bundan mustasno. DNK makromolekulasidagi azotli asoslar bir-biriga komplementar ikkita zanjir asosida tashkil topgan. Ushbu ikki zanjirli molekula spiral chiziqqa o'ralgan.


Umuman olganda, DNK molekulasining tuzilishi an'anaviy "qo'sh spiral" shaklida



4-rasm. Ionlarning kontsentratsiyasi va molekulaning nukleotid tarkibiga qarab, tirik organizmlarda DNKning ikki karra spirali turli shakllarda mavjud. Rasmda A, B va Z shakllari ko'rsatilgan (chapdan o'ngga)

tan olingan, lekin, ushbu ko'rinish noto'g'ri nomlangan bo'lib, aslida "ikkita vint" shaklidagi nomlanish to'g'ri hisoblanadi. Spiral o'ng tarafga og'gan bo'lsa, DNKning A- va B shakllari, chap tarafga og'gan bo'lsa, DNKning Z-shakli deb ataladi (4-rasm).

DNKda azotli asoslarning to'rt xili mavjud -adenin (A), guanin (G), timin (T) va sitozin (S). Zanjirlardan birining azotli asoslari boshqa zanjirning azotli asoslari bilan komplementarlik prinsipiga binoan vodorod bog'lari bilan bog'lanadi: adenin (A) faqat timin (T) bilan, guanin (G) – faqat sitozin (S) bilan bog'lanadi (5-rasm). Nukleotidlarning ketma-ketligi har xil turdagi RNK haqida ma'lumotni "kodlash" imkonini beradi, ularning eng muhimi axborot yoki matrisali- mRNK, ribosomal – rRNK va transport -tRNK hisoblanadi. Ushbu barcha RNK turlari DNK matrisasida transkripsiya jarayonida sintez qilingan RNK ketma-ketligiga nusxa ko'chirish yo'li bilan sintez qilinadi va oqsillarning biosintezida translyasiya jarayonida ishtirok etadi. Kodlash ketma-ketliklaridan tashqari, hujayra DNKsida boshqaruvchi va strukturaviy funktsiyalarni bajaradigan ketma-ketliklar mavjud.



5-rasm. DNK tuzilishi (juft spiral). Tuzilishdagi turli xil atomlar turli xil ranglarda ko'rsatilgan; ikkita asosiy juftlikning batafsil tuzilishi quyida ko'rsatilgan

Bundan tashqari, eukariotlarning genomida ko'pincha "genetik parazitlar" ga tegishli mintaqalar, masalan, transpozonlar mavjud bo'ladi.

DNK tuzilishini aniqlash 1953 yilda, biologiya tarixidagi burilish nuqtalaridan biri bo'ldi. Francis Krik, Jeyms Uotson, va Maurice Wilkins DNK struktursini aniqlashda qo'shgan buyuk hissi uchun 1962 yilda fiziologiya va tibbiyot soxasi bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu

mukofotga hissa qo'shgan Rozalinda Franklin rentgenografiya usulida DNK tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar olgan, ushbu strukturani esa Uotson va Krik ochib bergan.

Birinchi marta DNK moddasini Johann Friedrich Misher 1869 yilda yiringli massadagi hujayra qoldig'idan azot va fosfordan tashkil topgan moddani ajratib olgan. Avvaliga, yangi modda Misher tomonidan nuklein deb atalgan, keyinchalik kislotalik xususiyatlari aniqlangandan so'ng, nuklein kislota deb atala boshlaydi. Yangi kashf etilgan moddaning biologik funktsiyasi noma'lum bo'lib, uzoq vaqt davomida DNK organizmda fosfor zahirasi hisoblangan. Bundan tashqari, hatto 20-asrning boshlarida ham ko'plab biologlar DNKning irsiy ma'lumot uzatilishida hech qanday aloqasi yo'q deb hisoblashadi, chunki molekula tuzilishi, ularning fikriga ko'ra, juda monoton-bir xil bo'lib, kodlangan ma'lumotni o'z ichiga olmaydi.

1930 yillarga qadar DNK faqat hayvon hujayralarida, o'simlik hujayralarida esa RNK mavjud deb hisoblangan. 1934 yilda "Hoppe-Seyler's Zeitschrift fur physiologische Chemie" nashrida va 1935 yilda Moskva davlat universiteti olimlari qo'lyozmalarida biokimyogarlari A.N. Belozersky va A.R. Kizel tomonidan chop etilgan maqolalarida o'simlik hujayralarida DNK mavjudligi isbotlangan. 1936 yilda Belozerskiy guruhi dukkakli, donli va boshqa o'simliklarning urug'lari va to'qimalaridan DNKni ajratib olishgan. 1939 - 1947 yillarda xuddi shu olimlar guruhining tadqiqotlari natijasida har xil turdagi bakteriyalar tarkibidagi nuklein kislotalarining mavjudligining isbotlanganligi dunyo ilmiy adabiyotlaridagi birinchi ma'lumot bo'ldi.

Asta-sekin, genetik ma'lumot tashuvchisi, ilgari mavjud bo'lgan fikrlar singari, oqsillar emas, balkim DNK ekanligi isbotlandi. Dastlabki hal qiluvchi dalillardan biri Osvold Every, Kolin Maklaud va Maklin Makkartining 1944 yilda bakteriyalarni transformasiyasi bo'yicha olib borgan tajribalaridan kelib chiqqan. Ular pnevmokokklardan ajratilgan DNKni transformatsiya qilishi natijasida, yani zararsiz kulturalarning kasallik qo'zg'atadigan bakteriyalar xususiyatlariga ega

bo'lishini isbotlashga muvaffaq bo'lishdi. Amerikalik olimlar Alfred Xershi va Marta Chayzning tajribasi 1952 yilda radioaktiv izotoplar uslubi yordamida bakteriofag DNKlari bilan yuqtirilgan hujayraga faqat fag nuklein kislota o'tkazishini ko'rsatdi va yangi avlod fagida boshlang'ich fag bilan bir xil oqsillar va nuklein kislota mavjud irsiylanishini isbotlashgan.

XX asrning 50-yillariga qadar DNKning aniq tuzilishi, shuningdek irsiy ma'lumotni irsiylanishi uslublari aniq emas edi. DNK bir nechta nukleotidlardan iborat ekanligi aniq ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, hech kim bu zanjirlarning miqdori va qanday bog'langanligini aniq bilmagan.

1949-1951 yillarda biokimyogar Ervin Chargaff guruhi olib borgan faoliyati natijasida Chargaff qoidalari shakllantirildi. Chargaff va uning hamkasblari DNK nukleotidlarini qog'oz xromatografiya yordamida ajratishga va har xil turdagi nukleotidlarning aniq miqdoriy nisbatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Adenin (A), timin (T), guanin (G) va sitozin (S) uchun topilgan nisbat quyidagicha bo'lgan: adenin miqdori timin miqdoriga, guanin esa sitozin miqdoriga teng: $A = T$, $G = C$. Ushbu qoidalar rentgenstruktur tahlillar asosida DNK tuzilishini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynadi.

DNK juft spiralining tuzilishi Frensis Krik va Jeyms Uotson tomonidan 1953 yilda Mauris Uilkins va Rozalind Franklin tomonidan olingan rentgen ma'lumotlari va Chargaff qoidalari asosida taklif qilingan.



[Frensis Krik](#)



[Jeyms Uotson](#)



[Moris Uilkins](#)



[Rosalind Franklin](#)


1957 yilda amerikaliklar Aleksandr Rich, Gari Felsenfeld va Devid Devis uchta ipdan tashkil topgan nuklein kislotani tasvirlashdi. 1985-1986 yillarda Moskvada Maksim Davidovich Frank-Kamenetskiy ikkita emas, balki uchta DNK

zanjiridan tashkil topgan H-shaklini isbotlashgan va qanday hosil bo'lishini ko'rsatishdi.

DNK tarkibining asosiy tuzilmalari

Deoksiribonuklein kislotasi (DNK) - bu monomerlar sifatida nukleotidlardan tashkil topgan, biopolimer- polianion hisoblanadi. Har bir nukleotid 5'-holatida shakar deoksiribozasiga biriktirilgan fosfor kislota qoldig'idan iborat bo'lib, unga to'rtta azotli asoslardan biri 1'-holatida glikozid bog'lari (C - N) orqali bog'lanadi. DNK va RNK o'rtasidagi asosiy farqlardan birini tashkil etuvchi xarakterli shakarning mavjudligi, bu nuklein kislotalarning nomlarida qayd etilgan RNK tarkibida riboza shakari bilan tavsiflanadi.

Molekulalarning tuzilishi asosida nukleotidlarni tashkil etuvchi asoslar ikki guruhga bo'linadi: purinlar - adenin (A) va guanin (G) bir-biriga bog'langan besh va olti a'zoli geterosikllar orqali hosil bo'ladi va pirimidinlar - sitozin (S) va timin (T) olti a'zodan iborat geterosikl orqali hosil bo'ladi (6-rasm).



6-rasm. DNK molekulasida tarkibidagi asosiy azotli asoslari.

Shuni ta'kidlash kerakki, timin (T) va uratsil (U) ilgari mavjud bo'lgan fikrlarga ko'ra, mos ravishda DNK va RNK da mavjud bo'lishi chegaralanmagan, ba'zi RNK molekulalarining sintezidan so'ng, ushbu molekulalardagi uratsillarning katta qismi maxsus fermentlar yordamida timinga aylanib metillanadi. Bunday jarayonlar transport va ribosomal RNKlarda uchraydi.

DNK polimeri juda murakkab tuzilishga ega. Nukleotidlar uzun polinukleotid zanjirlarida kovalent ravishda bog'langan. Bu zanjirlar aksariyat hollarda ayrim bir zanjirli DNK-genomiga ega bo'lgan viruslardan tashqari, o'zaro

vodorod bog'lari bilan bog'langan bo'ladi va ikkilamchi strukturalarni hosil qilib, ikkilamchi spiral nomini oladi. Har bir zanjir asosi ketma-ket keladigan fosfatlar va shakardan tashkil topgan. Bir zanjir ichki qismidagi qo'shni nukleotidlar fosfodiefir bog'lar bilan bog'langan, ular o'z navbatida bir nukleotidning dezoksiriboza molekulasining (3'—OH) 3'-gidroksil guruhi va boshqanukleotidning (5'—PO₃) 5'- fosfat guruhi o'rtasida vujudga keladi. DNKning assimetrik zanjirlar uchi 3' - va 5' deb ataladi. DNK sintezida zanjir qutblanishi muhim ahamiyatga egadir, zanjir uzayishi faqatgina yangi nukleotidlarning erkin 3'-uchiga qo'shilishi natijasida yuz beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tirik organizmlarning aksariyat qismida DNK bir emas, balki ikkita polinukleotid zanjiridan iborat. Ushbu ikkita uzun zanjir bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, uning tarkibidagi zanjirlarning azotli asoslari o'rtasida hosil bo'lgan vodorod bog'lanishlari bilan barqarorlashgan bir-biriga nisbatan spiral shaklida o'ralgan. Tabiatda bu spiral ko'pincha o'ng tomonga og'gan bo'ladi. DNK molekulasini tashkil etuvchi ikkita ipning 3'-uchidan 5'-uchiga yo'nalishlari qarama-qarshi joylashgan bo'lib, iplar bir-biriga "antiparallel" joylashgan.

Ikki karra spiralning kengligi 22 dan 24 A ga tengdir, yoki 2,2-2,4 nm bo'ladi, har bir nukleotid uzunligi 3,3 A yoki 0,33 nm g teng. Shu bilan birga, spiralda kichkina 12 A li va katta 22 A li qatorlarni farqlash mumkin. Oqsillar, masalan transkripsiya omillari, ikki zanjirli DNK ning ma'lum ketma-ketliklariga bog'lanadi, asosan katta qatorlarda asoslar uchlari bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Asoslar orasidagi bog'lar shakllanishi

DNK zanjiridagi iplarning biridagi har bir tayanch asos ikkinchi ipning bitta aniq asosiga bog'lanadi. Ushbu bunday o'ziga xos majburiy bog'lanish komplementarlik deb ataladi. Purinlar pirimidinlar bilan bir - birini to'ldiradi ya'ni ular bilan vodorod bog'larini hosil qila oladi: adenin faqat timin bilan, sitozin esa guanin bilan bog'lanishni hosil qiladi. Ikki karra spiralning bir-birini to'ldirishi shuni anglatadiki, bir qatorda joylashgan ma'lumotlar ikkinchi qatorda ham


mavjud. Bir-birini to'ldiruvchi asos juftlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarning qaytaruvchanligi va o'ziga xosligi DNKning replikatsiyasi va tirik organizmlardagi boshqa DNK funktsiyalari uchun muhimdir.

Vodorod bog'lari kovalent bo'lmaganligi sababli, ular osonlikcha buziladi va tiklanadi. Ikki karra spiralning zanjirlari fermentlar- helikaza ta'sirida yoki yuqori harorat ta'sirida ajralib ketishi mumkin. Turli xil asosli juftliklar har xil miqdordagi vodorod bog'lanishlarini hosil qiladi. A-T ikkita, G-C esa uchta vodorod bog'i bilan bog'lanadi, shuning uchun G-C ni uzish uchun ko'proq energiya talab qilinadi. G-C juftlarining ulushi va DNK molekulasi uzunligi zanjirning dissotsiyanishi uchun zarur bo'lgan energiya miqdorini aniqlaydi: tarkibida G-C miqdori yuqori bo'lgan uzun DNK molekulalari ko'proq chidamli bo'ladi. DNK molekulalarining ushbu funktsiyalari tufayli osonlik bilan ajralishi kerak bo'lgan qismlar, masalan, bakterial promotorlarda TATA ketma-ketligi, odatda ko'p miqdordagi A va T ni o'z ichiga oladi.

Azotli asoslarning kimyoviy modifikatsiyalari

DNK tarkibidagi azotli asoslar kovalent ravishda o'zgartirilishi mumkin, bu gen ekspressiyasini boshqarishda qo'llaniladi. Masalan, umurtqali hayvonlar hujayralarida sitozin metillanishi natijasida 5-metiltsitozin hosil bo'lishi somatik hujayralar tomonidan gen ekspressiyasini qiz hujayralariga yetkazish uchun ishlatiladi. Sitozin metillanishi DNK juft spiralidagi asoslarning juftlanishiga ta'sir qilmaydi. Umurtqali hayvonlarda somatik hujayralaridagi DNK metillanishi CG ketma-ketligidagi sitozin metillanishi bilan cheklanadi. O'rtacha metillanish darajasi turli xil organizmlarda farq qiladi, masalan, *Caenorhabditis elegans* nematodasida sitozin metillanishi kuzatilmaydi va yuqori metillanish darajasi umurtqali hayvonlarda uchraydi- 1% gacha. Asoslar boshqa modifikatsiyalari bakteriyalarda adenin metillanishi jarayoni va kinetoplastlarda "J-asoslaming" glikozillirlanishi uchraydi.

Genning promotor qismida 5-metilsitozin hosil bo'lishi bilan sitozinni metillashtirish uning faol bo'lmagan holati bilan o'zaro bog'liq. Sitozin metillanishi sut emizuvchilarda X- xromosomaning inaktivasiyasi uchun muximdir. DNK metillanishi genom imprintingida ishlatiladi.




7-rasm. Sitozin, 5-metilsitozin va timinning tuzilishi. Timin 5-metilsitozinni dezaminirlanishi natijasida paydo bo'lishi mumkin

Kanserogenez jarayonida DNK metillanish profili buziladi. Biologik roliga qaramasdan, 5-metilsitozin spontan ravishda amin guruhini yo'qotish va timinga aylanish xususiyatiga ega, shuning uchun metillangan sitozinlar yuqori sondagi mutatsiyalar hosil bo'lishi manbai hisoblanadi (7-rasm).

DNKning shikastlanishi

DNKga turli xil mutagenlar zarar yetkazishi mumkin, ular tarkibiga oksidlovchi va alkillovchi moddalar, shuningdek yuqori energiyali elektromagnit nurlanish - ultrabinafsha va rentgen nurlari kiradi. DNK zararlanish turi mutagen turiga bog'liq. Masalan, ultrabinafsha nurlari DNKga zarar yetkazadi, ular tarkibidagi timin dimerlarini hosil qiladi, ular qo'shni asoslar o'rtasida kovalent bog'lanish hosil bo'lishidan paydo bo'ladi.

Erkin radikallar yoki vodorod peroksid kabi oksidlovchilar DNKning bir necha turdagi zararlanishiga olib keladi, shu jumladan asoslarda modifikatsiyalar, xususan, guanozin va ikki zanjirli DNK sinishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, har bir inson hujayrasi kuniga 500 ga yaqin asos oksidlovchi birikmalar tomonidan zarar ko'radi (8-rasm). Zararlarning har xil turlari orasida eng xavfli qo'sh zanjirda hosil bo'ladigan uzilishlardir, chunki ularni tiklash qiyin va xromosoma mintaqalarining yo'qolishiga - o'chirilishiga va translokatsiyaga olib kelishi mumkin.



8-rasm. Spiralning o'rtasida joylashgan interkallatsiyalangan kimyoviy birikma benzopiren, tamaki tutunidagi asosiy mutagen

Ko'p mutagen molekularar ikkita qo'shni zanjir jufti orasiga kiritiladi, yani interkallash ro'y beradi. Bunday birikmalarning ko'pchiligi: masalan, etidiy bromid, daunorubicin, doksorubicin, talidomid aromatik tuzilmaga egadir. Interkallovchi birikma asoslar o'rtasiga kirishi uchun qo'sh spiral bir-biridan uzoqlashishi, ochilishi va struktura buzilishi kerak bo'ladi. Qosh spiralda vujudga kelgan bunday o'zgarishlar transkripsiya va replikasiya jarayonining o'tishiga xalaqit beradi, mutatsiyalar hosil qiladi. Shuning uchun interkallaydigan birikmalar ko'pincha kanserogen hisoblanadi, ular orasida – benzopiren, akridin, aflotoksin, etidiy bromid eng xavflisi hisoblanadi. Lekin bu xususiyatlariga qaramasdan, interkallaydigan birikmalar, onkologik kasalliklarni davolashda o'sma hujayralarining

o'sish jarayonini to'xtatishda qo'llaniladi. Ayrim moddalar –cisplatin, mitomicin, psoralen DNK zanjirlari o'rtasida ko'ndalang tikishlar hosil qila oladi va DNK sintezini bostirish xususiyatiga ega, shuning uchun o'sma kasalliklarining ayrim turlarini davolashda qo'llaniladi.

Superspirallashish. Superspirallashish asosida DNK zanjirining uchlarining yo'nalishlarida burilishi uning qisqarishi, “super spirallar” hosil bo'lishi tushuniladi. Oddiy holatlarda DNK zanjiri har 10, 4 juft asosi uchun bitta burilishni amalga oshiradi, ammo o'ta o'ralgan holatda ham bo'lishi mumkin. Superburilishning ikki turi mavjud: ijobiy - asoslar bir-biriga yaqinroq joylashgan normal burilish yo'nalishi bo'yicha va qarama-qarshi yo'nalishda buralgan ham bo'lishi


mumkin-salbiy superburalish deb ataladi. Tabiatda DNK molekulalari odatda salbiy superburalishi uchraydi, bu jarayonlar asosan fermentlar- topoizomerazalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu fermentlar DNKda transkripsiya va replikatsiya jarayonida hosil bo'lgan qo'shimcha supersprallrni olib tashlaydi.

Xromosomalarning uchlaridagi strukturalar. Chiziqli xromosomalarning uchida DNKning telomerallari deb nomlangan ixtisoslashgan tuzilmalari joylashgan. Ushbu mintaqalarning asosiy vazifasi xromosomalarning uchlarini yaxlitligini saqlashdir. Telomerlar, shuningdek DNK uchlarini endonukleazalar degradasiyasidan saqlaydi va reparasiya tizimining faolligini olib oladi. DNK-polimeraza fermentlari xromosomalarning 3'-uchini replikatsiyasini amalga oshira olmagan uchun, bu jarayonni maxsus ferment-telomeraza amalga oshiradi (10-rasm). Inson hujayralarida telomerlar ko'pincha bitta zanjirli DNK bilan ifodalanadi va TTAGGG ketma-ketligining bir necha ming takrorlanishlaridan tashkil topgan. Bu ketma-ketliklarda yuqori miqdorda guanin asoslari uchraydi, ular xromosoma uchlarini stabilashtiradi, va g'ayrioddiy strukturalar – G-kvadruplekslar hosil qiladi, ular o'zaro ta'sirda bo'lgan ikkita emas, balki to'rtta asoslardan tashkil topgan bo'ladi. To'rtta guanin asoslarining atomlari, bitta tekislikda joylashadi, asoslar o'rtasidagi stabilashtirilgan vodorod bog'lari yordamida markazda metal ionlari ko'pgina hollarda kaliy bilan xelatlangan plastinka hosil qiladi. Ushbu plastinkalar bir-birining ustiga joylashtirilgan bo'ladi. Xromosomalarning uchida boshqa tuzilmalar ham paydo bo'lishi mumkin: asoslar bir zanjirda yoki turli parallel zanjirlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Bunday strukturalardan tashqari telomerlar, T-halqalar yoki telomer halqalar deb ataladigan halqasimon tugunli strukturalar hosil qilish xususiyatiga egadir. Bularda bir zanjirli DNK stabilashtirilgan telomer oqsillari yordamida keng halqa shaklida joylashadi. T- tugun oxirgi uchida bir zanjirli telomer DNK ikki zanjirli DNK ga qo'shiladi, va ushbu molekulada zanjirlar qo'shilishini buzadi, va bog'lar faqat bir zanjir bilan bog'langan holda

qoladi. Bunday uch zanjirli tuzilma D-tugun den ataladi, ingliz tilidan displacement loop ma'nosini anglatadi.

DNK-biologik funktsiyasi. DNK genetik ma'lumot tashuvchisi bo'lib, nukleotidlar ketma-ketligi genetik kod yordamida qayd etilgan. Tirik organizmlarning ikkita asosiy xususiyati DNK molekulalari bilan bog'liq- irsiyat va o'zgaruvchanlik. DNK replikatsiyasi jarayonida hujayralar bo'linishi paytida qiz hujayralar tomonidan nasldan-naslga o'tganda DNK zanjirning ikki nusxasi hosil bo'ladi, natijada hosil bo'lgan qiz hujayralarda irsiy ma'lumot genetik jihatdan ota-ona irsiy ma'lumotiga o'xshash bo'ladi. Genetik ma'lumot gen ekspressiyasi, transkripsiya- DNK matritsasida RNK molekulalarining sintezi va translyatsiya- RNK matritsasida oqsillarning sintezi jarayonida amalga oshiriladi .

Nukleotidlar ketma-ketligi turli xil RNK turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kodlaydi: informatsion yoki axborot- mRNA, ribosomal-rRNK va transport- tRNK. Ushbu turdagi RNKlarning barchasi transkripsiya jarayonida DNKdan sintezlanadi. Ularning oqsil biosintezidagi roli turlicha, m-RNK oqsil tarkibidagi aminokislotalar ketma-ketligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ribosomal RNK ribosomalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, murakkab nukleoproteinlar bo'lib, ularning vazifasi m-RNK asosida aloxida olingan aminokislotalardan oqsillarni shakllantiradi, t-RNK aminokislotalarni oqsil shakllanadigan manzilga- ribosomalar faol markaziga yetkazib berishda ishtirok etadi.




10-rasm Telomerlarning tuzilishi. Markazda xelatlangan metall ioni yashil rangda ko'rsatilgan.

Genom tuzilishi

Ko'pgina tabiiy DNKlar ikki zanjirli strukturalarga ega bo'lib, chiziqli tuzilishga egadir, eukariotlar, ayrim viruslar va bakteriyalarning alohida olingan avlodlari yoki halqasimon DNK turi prokariotlar, xloroplastlar va mitoxondriyalarda, chiziqli bir zanjirli DNK ayrim viruslar va bakteriofaglarda uchraydi. In vivo sharoitida DNK zich spirallashtgan bo'lib, kondensirlangan holatda bo'ladi. Eukariotlar hujayrasida DNK yadroda joylashgan va mitozning profaza, metafaza va anafaza bosqichida xromosoma to'plami shaklida yo'rug'lik mikroskopida kuzatish mumkin. Bakterial prokariot hujayralar bitta halqasimon DNK molekulasiga ega bo'lib, sitoplazmada noto'g'ri shaklda joylashgan va nukleoid deb ataladi (11-rasm). Genom irsiy ma'lumoti genlardan tashkil topgan. Gen-irsiy ma'lumotning irsiylanish birligi va DNK ma'lum qismi bo'lib, organizm ma'lum aniq belgisini xarakterlaydi. Gen ochiq transkripsiya jarayonida qatnashadigan faol qismiga ega, shuningdek boshqaruvchi ketma-ketliklarga ega bo'lib, ular promotor va enhanserlar deb ataladi, genning bu qismlari faol qismining ekspressiyasini boshqaradi.

Ko'pgina turlarda genom umumiy ketma-ketligining faqatgina kam qismi oqsil kodlash xususiyatiga egadir. Inson genomining 1,5% kodlanadigan ekzonlardan iborat, DNK ning 50% dan ko'p qismi kodlanmaydigan takrorlanadigan ketma-ketliklardan iborat. Bunday kodlanmaydigan DNK ning ko'p miqdordagi genlarning mavjudligi va genomlar hajmidagi farqlari hozirgi kunga fan sohasining yechilmagan muammolarini ko'rsatadi.


Oqsil kodlamaydigan genomlar ketma-ketligi. Hozirgi vaqtda "keraksiz DNK" ingliz tilidan "*junk DNA* " atamasi sifatida ishlatiladi, ya'ni kodlanmaydigan DNK ketma-ketliklar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'paymoqda. Telomeralar va sentromeralarda oz sonli genlar mavjud, ammo ular xromosomalarning



11-rasm. Bakteriofag genomining DNKsi: transmissiya elektron mikroskopidagi fotosurat

funksiyasi va barqarorligi uchun muhimdir. Odamlarda ko'p uchraydigan kodlanmaydigan genlar- psevdogenlar bo'lib, bular genlar nusxasi hisoblanadi, mutatsiyalar natijasida faolsizlangan shaklda saqlanadi. Bunday ketma-ketliklar molekulyar biologlar tilida, molekulyar qazilma boyliklar deb ataladi va genlar duplikatsiyasi va keyingi divergensiyasi uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi. Organizmdagi oqsillar xilma-xilligining boshqa manbaiga-intronlarning alternativ splicingi jarayonida kesish va yopishtirish jarayonida ishlatilishi hisoblanadi. Bundan tashqari oqsil kodlamaydigan ketma-ketliklar yordamchi hujayra RNK larni, masalan kichik -RNK larni kodlashda ishtirok etadi. Yaqinda inson genomi transkripsiya jarayoni ustida olib borilgan tajribalar ko'rsatishicha, genom 10% i poliadenillangan RNK hosil bo'lishida qatnashishi isbotlangan, uy sichqoni genomida olib borilgan tajribalar ko'rsatishicha, sichqon genomining 62% i transkripsiyalanish xususiyatiga egadir.

Transkripsiya va translatsiya. DNK dagi kodlangan irsiy ma'lumot, oxirgi bosqichda biopolimerlar sitezida o'qilishi zarur bo'lib, ular mahsuloti hujayra tuzilmasida ishtirok etadi. DNK zanjiridagi asoslar ketma-ketligi to'g'ridan-to'g'ri RNK ketma-ketligini belgilaydi va ular transkripsiya jarayonida ishtirok etadi. m-RNK tarkibadagi ma'lumot transkripsiya deb ataluvchi jarayonning aminokislotalar ketma-ketligida yoziladi. m-RNK dagi nukleotidlar ketma-ketligi va aminokislotalar ketma-ketligi o'rtasidagi nisbat translatsiya jarayonining genetik kod deb ataluvchi qonuniyatlari bilan belgilanadi. Genetik kod uchta xarflardan, sozlardan iborat bo'lib, kodon deb ataladi va uchta nukleotiddan tuzilgandir, masalan ACT, CAG, TTT va boshqalar. Genlar nukleotidlari transkripsiya jarayonida RNK-polimeraza fermenti ishtirokida RNK ga o'tkaziladi. Bu nusxa esa o'z navbatida m-RNK dan ribosomalarda qaytadan kodlanadi, m-RNK dan nukleotidlar qayta o'qi'ladi, m-RNK ning aminokislotalarga birikkan t-RNK bilan jiftlashishini amalga oshiradi. Uchta xarfli kombinasiyalarda to'rt xil asoslar ishtirokini e'tiborga olsak, 64 xil kodonlar 4^3 -kombinasiyalar mavjudligini hisoblab topish mumkin. Kodonlar 20 xil standart aminokislotalarni kodlash



	U (Urasil)	C (Sitozin)	A (Adenin)	G (Guanin)	
U	UUU Fenilalanin	UCU Serin	UAU Tirozin	UGU Sistein	U
	UUC	UCC	UAC	UGC	C
	UUA Lösin	UCA	UAA Stop kodon	UGA Stop kodon	A
	UUG	UCG	UAG	UGG Triptofan	G
C	CUU Lösin	CCU Prolin	CAU Histidin	CGU Arjinin	U
	CUC	CCC	CAC	CGC	C
	CUA	CCA	CAA Glutamin	CGA	A
	CUG	CCG	CAG	CGG	G
A	AUU Izokösin	ACU Treonin	AAU Asparajin	AGU Serin	U
	AUC	ACC	AAC	AGC	C
	AUA	ACA	AAA Lizin	AGA Arjinin	A
	AUG Start kodon	ACG	AAG	AGG	G
G	GUU Valin	GCU Alanin	GAU Aspartik asit	GGU Glisin	U
	GUC	GCC	GAC	GGC	C
	GUA	GCA	GAA Glutamik asit	GGA	A
	GUG	GCG	GAG	GGG	G


12-rasm. Kodonlarning xillari

xususiyatiga ega, ularning ko'pchiligiga bitta kodondan ko'p kodon to'g'ri keladi (12-rasm).

Uchta kodondan biri, m-RNK ning oxirida joylashgan bo'lib, aminokislota kodlamaydi va oqsil molekulasini translyasiyasining tugashini anglatadi, bularga "stop" yoki "nonsens" kodonlar deb ataladi- TAA, TGA, TAG kodonlar shular jumlasiga kiradi.

Replikatsiya. Bir hujayrali organizmlar ko'payishi va ko'p hujayrali organizmlar o'sishi uchun hujayra bo'linishi katta ahamiyatga egadir, lekin hujayra bo'linishidan oldin genom ikki hissa oshishi zarur bo'lib, qiz hujayralar bir xil ota-onaga irsiy ma'lumotiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Nazariy jihatdan mavjud bo'lgan genom ikki xisssa oshishining replikasiya jarayonining yarimkonservativ turi DNK ko'payishida qo'llaniladi. DNK ikki zanjiri ajralib, keyinchalik yetishmaydigan komplementar ketma-ketliklar DNK-polimeraza fermenti asosida sintezlanadi. Bu ferment asoslarga to'g'ri keladigan nukleotid orqali komplementar juftlashib, unga o'sib kelayotgan zanjirga birlashtirish orqali polinukleotod zanjirini sintezlaydi. DNK-polimeraza yangi zanjirni sintezini mustaqil boshlay olmaydi, balkim mavjud zanjirni o'stirish xususiyatiga ega bo'lib, qisqa nukleotidlar zanjiri - praymerlar asosida praymaza fermenti ishtirokida sintezni boshlaydi.

DNK polimerazalar DNK zanjirini 5'-->3' faqatgina yo'nalishda sintezlash xususiyatiga ega bo'lgani uchun, antiparallel DNK zanjiri har-xil nusxada olib boriladi: birinchi zanjir to'xtovsiz, ikkinchisi esa vaqt oraliq'ida sintezlanadi.



13-rasm STAT3 transkripsiya omilining DNK bilan o'zaro ta'siri (ko'k spiral shaklida ko'rsatilgan)

Oqsillar bilan o'zaro ta'sir. DNKning barcha funktsiyalari uning oqsillar bilan o'zaro ta'siriga bog'liq. O'zaro ta'sirlar nospesifik bo'lishi mumkin, har qanday DNK molekulasiga oqsil qo'shilganda yoki ma'lum bir ketma-ketlikning mavjudligiga bog'liq (13-rasm). Shuningdek, fermentlar DNK bilan o'zaro ta'sirlashishi

mumkin, ulardan eng muhimi RNK-polimerazalar bo'lib, ular DNK asoslarining ketma-ketligini RNK molekulasini transkripsiya jarayonida, yoki yangi DNK zanjirini – replikatsiya jarayonida sintez qiladi.

Strukturaviy va boshqaruvchi oqsillar. DNK ning nukleotidlar ketma-ketligiga bog'liq bo'lmagan, oqsillarning DNK bilan o'zaro ta'siri, ularning struktur oqsillar bilan o'zaro ta'siri hisoblanadi. Hujayrada DNK ushbu oqsillar bilan bog'langan bo'ladi va kompakt strukturani hosil qiladi, bunga xromatin deb ataladi. Eukariotlarda xromatin DNKga katta bo'lmagan ishqoriy xususiyatga ega bo'lgan oqsill- gistonlarning bog'lanishi natijasida hosil bo'ladi, prokariotlarda esa xromatin biroz tartibsiz bo'lib, giston-o'xshash oqsillar bilan bog'langan. Gistonlar disksimon oqsil strukturalarni shakllantiradi ularga nukleosomalar deb ataladi, gistonlar xar biriga DNK ikki barobar spiral shaklida o'raladi. Gistonlar va DNK o'rtasidagi nospesifik bog'lar gistonlar tarkibidagi ishqorli xususiyatga ega bo'lgan aminokislotalarning va DNK shakar fosfat karkasining kislotali qoldiqlarining ion bog'lari hisobiga hosil bo'ladi. Bu aminokislotalar kimyoviy modifikatsiyalari metillanish, fosfolirlanish va asetillanish hisobiga ro'y beradi. Bu kimyoviy modifikatsiyalar DNK va gistonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchini o'zgartiradi, transkripsiya omillari uchun xizmat qiladigan maxsus ketma-ketliklarning transkripsiya jarayoniga moyilligini oshiradi va transkripsiya tezligini o'zgartiradi. Xromatin tarkibidagi nospesifik ketma-ketliklarga bog'langan boshqa oqsillar gel elektroforezda yuqori harakatchan bo'lib, buralgan DNK ning katta miqdorini tashkil qiladi. Bu oqsillar xromatin tarkibida yuqori tartibdagi strukturalarni tashkil

qilishda katta ahamiyatga ega. DNK ga birikadigan boshqa guruh oqsillariga- bir zanjirli DNK bilan bog'lanadigan oqsillar kiradi. Insonda bu guruhga kiruvchi oqsillardan yahshi o'rganilgan oqsillarga- replikasining A oqsili hisoblanadi, ushbu oqsil ikki zanjir ishtirok etadigan zanjir ochilishi bilan bog'liq bo'ladigan jarayonlarda shu jumladan, rekombinasiya va reparasiya jarayonlarida ishtirok etadi. Bu guruh oqsillari bir zanjirli DNKni halqa tugunlar hosil bo'lishi va nukleazalar ta'sirida degradasiya bo'lishidan saqlaydi. Shuningdek, boshqa oqsillar spesifik ketma-ketliklarga bog'lanadi va tanishda ishtirok etadi. Bunday yahshi o'rganilgan guruh oqsillariga-turli xil transkripsiya omillari kiradi, ya'ni transkripsiya jarayonini boshqaradigan oqsillar. Har bir oqsillar ma'lum ketma-ketlikni taniydi, asosan promotor qismlarda va genlar transkripsiyasini yoki bostiradi, yoki faollashtiradi. Bunday holatlar asosan transkripsiya omillarining RNK-polimeraza bilan to'g'ridan-to'g'ri assotsiasiyasi yoki, yordamchi oraliq-vositachi oqsillar yordamida yuz beradi. Polimeraza oqsillar bilan avvaliga assotsiyalashadi, keyin transkripsiya boshlanadi. Boshqa xollarda transkripsiya omillari promotor qismlardagi joylashgan gistonlarni modifikasilaydigan fermentlar bilan bog'lanadi va DNK ni polimerazaga ochib beradi. Spesifik ketma- ketliklar genom ko'p qismida uchragani uchun bitta transkripsiya omili tipining faolligining o'zgarishi minglab genlar faolligining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, bu oqsillar atrof-muhit o'zgarishiga organism javob reaksiyasida, organism rivojlanishida va hujayralar differensirovkasida tez-tez boshqarilib turiladi. Transkripsiya omillarining DNK bilan o'zaro ta'sirining maxsusligi, aminokislotalar va DNK asoslari o'rtasidagi munosabatlar orqali ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida DNK ketma-ketliklarini o'qish imkonini yaratadi. Asoslar bilan o'zaro ta'sirlar asosiy halqada o'tadi, bu yerda asoslar transkripsiya jarayonining o'tishi uchun ochiq bo'ladi.

DNKni modifikasilovchi fermentlar

Hujayrada DNK kompakt, yani superspirallashgan holatda joylashadi, boshqa holatda hujayra yadrosiga sig'mas edi. Asosiy hayotiy jarayonlari o'tishi uchun

DNK ochilishi kerak bo'ladi, ushbu jarayon ikki hil oqsil guruhlariga - topoizomerazalar va xelikazalar tomonidan amalga oshiriladi.

Topoizomerazalar- nukleazalar va ligazalar faolligiga ega bo'lgan fermentlardir. Ular DNK ning superburalish darajasini o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu fermentlarning ayrimlari DNK spiralini kesadi va hosil bo'lgan bitta zanjirning harakatlanishiga imkon yaratadi, superburalish darajasini kamaytiradi, keyinchalik yana kesilgan joyni birlashtirib qo'yadi. Boshqa fermentlar ikki zanjirdan birini kesadi, hosil bo'lgan bitta zanjir kesilgan joydan o'tish imkoniga ega bo'ladi, keyinchalik birinchi zanjirdagi kesilgan joyni yana ligirlaydi. Topoizomerazalar DNK bilan bog'liq bo'lgan - transkripsiya va replikasiya jarayonlarida ishtirok etadi.


Xelikazalar- molekulyar motor oqsillari hisoblanadi. Ular nukleotiduchfosfatlarning va ko'pgina hollarda ATF kimyoviy energiyasidan foydalanib, asoslar o'rtasidagi vodorod bog'larini uzadi, ikki zanjirni alohida olingan zanjirlarga ajratish xususiyatiga ega.

Polimerazalar. DNK metabolizmi uchun kerakli bo'lgan fermentlar guruhi mavjud bo'lib, ular nukleozidtrifosfatlardan polinukleotid zanjirini sintez qiladi, bularga DNK-polimerazalar deb ataladi. Ular DNK zanjiridagi oldingi nukleotidning 3'-gidroksil guruhiga yangi nukleotidlarni qo'shish xususiyatiga ega. hamma polimerazalar 5'--> 3' yonalishda faoliyat ko'rsatadi. Ferment faol markazida substrat-nukleozidtrifosfat-komplementar asos bilan bir zanjirli polinukleotid zanjirdagi-matrisa bilan juftlashadi. DNK replikasiyasi jarayonida DNK bog'liq DNK polimeraza boshlang'ich DNK ketma-ketligining nusxasini sintezlaydi. Bu jarayonda polimerizasiya aniqligi juda katta ahamiyatga ega bo'lib, xatoliklar mutatsiyalarga olib keladi, shuning uchun ko'pgina polimerazalar mustaqil ravishda "tahrirlash" xususiyatiga egadir, xatoliklarni bartaraf eta oladi.

Polimeraza sintez davrida xatoliklarni noto'g'ri nukleotidlar o'rtasidagi juftlashishlarning bo'lmasligi orqali taniydi. Juftlashish yo'qligi aniqlangandan so'ng, fermentning 3'--> 5' yo'nalishdagi ekzonukleazali faolligi oshadi va

noto'g'ri juftlashish joylarini kesib tashlanadi. Ko'pgina organizmlarda DNK-polimerazalar katta majmua sifatida faoliyat ko'rsatadi, ularga replisomalar deb ataladi va ular tarkibida ko'plab qo'shimcha subbirliklar bo'lib, xelikazalar ham ular tarkibida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

RNK bog'liq DNK polimerazalar- polimerazalarning maxsuslashgan turi bo'lib, RNK matrisasida DNK sintezini amalga oshiradi. Bu polimerazalar turiga teskari transkriptazalar kiradi, ushbu fermentlar retroviruslarda uchraydi va ular hujayrani zararlantirganda ferment faollashadi, xuddi shuningdek telomeraza, telomerlar replikasiyasi uchun foydalaniladi. Telomeraza- noan'anaviy ferment turlariga kiradi, chunki xususiy m-RNKga ega bo'ladi. Transkripsiya DNK-bog'liq RNK-polimeraza tomonidan amalga oshiriladi, yani DNK matrisasi asosida bir zanjirli m-RNK nusxa tushiradi. Gen transkripsiyasi boshlanishida RNK-polimeraza genning boshlang'ich promotor qismiga bog'lanadi, va DNK zanjirini



14-rasm Zararlangan DNK zanjirini bog'laydigan DNK ligaza I (turli xil ranglarda ko'rsatilgan bir nechta bir xil oqsil molekulalaridan tashkil topgan halqa shaklidagi tuzilish)


ochadi. Keyinchalik gen ketma-ketligini m-RNKga terminator qismiga yetguncha nusxa ko'chiradi, terminator qismida to'xtaydi va DNK dan ajraladi. DNK- bog'liq DNK polimeaza singari, RNK- polimeraza II inson genomida genlarning ko'p qismini transkripsiyasini amalga oshiradi, ko'p miqdordagi oqsil majmuasi- boshqaruvchilar va qo'shimcha birliklar tarkibida faoliyat ko'rsatadi.

Nukleazalar va ligazalar. Hujayrada sodir bo'ladigan turli xil jarayonlar, masalan, rekombinatsiya va reparasiya jarayonlarida, DNK zanjirlarini kesishi va yaxlitligini tiklashi (ligaza, 14-rasm) mumkin bo'lgan fermentlarni o'z ichiga oladi. DNKni

kesuvchi fermentlarga nukleazalar deyiladi. DNK molekulasining uchlarida nukleotidlarni gidrolizlaydigan nukleazalar ekzonukleazalar deb ataladi va endonukleazalar DNKni zanjir ichida kesib tashlaydi. Molekulyar biologiya va genetik muhandislikda eng ko'p ishlatiladigan nukleazalar DNKni ma'lum ketma-ketliklar qismida kesuvchi restriksion endonukleazalar ishlatiladi. Masalan, EcoRV fermenti - E. colidagi ferment olti nukleotidli 5'-GAT | ATC-3' ketma-ketligini taniydi va DNKni vertikal holda ikki zanjir joyida kesadi. Tabiatda bu fermentlar bakteriyalarni bakteriofaglar bilan zararlanishdan, bakterial hujayraga kiradigan fagni kesish orqali himoya qiladi. Bu holatlarda nukleazalar-restriksiya-modifikasiyalar tizimining asosiy qismi sifatida ishtirok etadi. DNK-ligazalar DNK fragmentlarining uchlarini tikadi, ATF energiyasidan foydalangan holda, fosfodiefir bog'larini katalizlaydi. Restriksion nukleazalar va ligazalar klonlashda va finjerprintingda qo'llaniladi.

Genetik rekombinatsiya

DNK ikkita zanjiri boshqa DNK segmentlari bilan ta'sirlashmaydi, inson hujayralarida turli xil xromosomalar yadroda fazoviy tuzilishi jihatdan qismlarga bo'lingan shaklda joylashadi. Turli xromosomalar o'ratsidagi bunday masofalar DNK ning irsiy ma'lumotni stabil saqlash xususiyatida katta ahamiyatga egadir. Rekombinatsiya jarayonida fermentlar yordamida DNK ning ikki zanjiri uziladi, va o'sha joylarida ma'lum qismlari o'zaro almashinadi, keyinchalik spirallar ketma-ketligi yana tiklanadi, shuning uchun gomologik bo'lmagan xromosomalar o'rtasida bunday almashinuvlar irsiy ma'lumot buzilishiga olib keladi (15-rasm).



15-rasm. Rekombinatsiya xromosomalarning (M) va (F) uzilishi va keyinchalik ikkita yangi xromosomalarni (C1 va C2) hosil qilish uchun ulanishi natijasida yuzaga keladi.

Xromosomalar o'rtasidagi irsiy ma'lumotning almashinuvi natijasida hosil bo'lgan rekombinasiyalar natijasida genlarning yangi kombinasiyalari vujudga keladi, o'z navbatida bu tabiiy tanlanish samarasini oshiradi va yangi oqsillar yuqori tezlikda amalga oshadigan evolyutsiyasida katta ahamiyatga egadir. Genetik

rekombinasiya reparasiya jarayonida ham katta ahamiyatga egadir, asosan hujayraning DNK ikkalla zanjirining uzulishi bilan bog'liq bo'lgan javob reaksiyasida aks etadi.

Krossingover eng ko'p tarqalgan turi- bu gomologik rekombinasiya hisoblanadi, ya'ni xromosomalar rekombinasiyasida ishtirok etadigan ketma-ketliklar bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak. Bir xil vaqtlarda gomologik uchastkalar shaklida transpozonlar ishtirok etadi. Gomologik bo'lmagan rekombinasiya hujayraning shikastlanishiga olib keladi, bunday rekombinasiya natijasida translokasiyalar vujudga keladi. Rekombinasiya reaksiyalari fermentlar tomonidan katalizlanadi, ular rekombinazalar deb ataladi, masalan *Cre*. Birinchi reaksiya bosqichida rekombinaza DNKning birinchi zanjirini uzadi, komplementar zanjirdan ajralishini va ikkinchi xromatida zanjirlarining biriga bog'lanishini ta'minlaydi. Ikkinchi xromatida ikkinchi marotaba uzilishi natijasida DNK zanjirining uzilishiga, birinchi xromatidada juftsiz qolgan zanjirga ulanishini ta'minlaydi va Hollidey strukturasini hosil qilishiga olib keladi. Hollidey strukturasini juftlashgan xromosoma bo'ylab xaraktatlanish xususiyatiga ega bo'ladi va zanjirlarni o'rin almashtirishini amalga oshiradi. Rekombinasiya reaksiyasi ferment bog'larini uzganga va ikki zanjirning ligirlanishi yuz berganda tugaydi.

DNK ga asoslangan metabolizm evolyutsiyasi. DNK tarkibidagi irsiy ma'lumot hamma zamonaviy organizmlarning rivojlanishi, o'sishi, hayot faoliyati uchun amalga oshirish imkonini beradi. Lekin Yerdagi hayotning uzoq to'rt milliard yil tarixi davomida DNK asosiy irsiy axborot manbai bo'lganligi to'g'risida ma'lumot yoq. Mavjud gipotezalarga ko'ra, RNK moddalar almashinuvida markaziy rol o'ynagan, chunki u irsiy ma'lumot o'tkazishda ishtirok etadi va ribozimlar ishtirokida katalizni amalga oshira oladi. Bundan tashqari, RNK-“oqsillar fabrikasi”ning ribosomalarning asosiy komponenti hisoblanadi. Qadimiy RNK dunyosi- yani kataliz uchun va irsiy ma'lumotni tashish uchun xizmat qilgan bo'lsa, to'rtta asosdan tashkil topgan zamonaviy genetik kodning shakllanish manbai bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Bu jarayon

organizmlarda mavjud kam sondagi asoslar, yani replikasiya aniqligini kuchaytirish, va ko'p sondagi asoslar asosida ribozimlar faolligini oshirush hisobiga ro'y bergan deb hisoblanadi.


Afsuski, qadimgi genetik tizimlar xozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Tashqi muhitda DNK o'rtacha bir million-yil davomida saqlanadi, asta-sekinlik bilan mayda fragmentlarga degradasiyaga uchraydi. 250 million-yil ilgari kristall tuzlaridan uchraydigan bakterial sporalardan DNKni ajratish va ularda [16S r-PHK](#) ning ketma-ketligini o'rganish ishlari bo'yicha diskussiya mavzulari davom etmoqda.

Ribonuklein kislota

Ribonuklein kislota- uchta asosiy makromolekulalardan biri bo'lib, hamma tirik organizmlar hujayralarida uchraydi va kodlashda, irsiy materialni o'qishda, genlarni boshqarishda va tasvirlashda ishtirok etadi.

DNK singari, RNK uzun zanjirdan iborat, undagi har bir zveno nukleotid deb ataladi. Har bir nukleotid azot asosidan, shakar va fosfar guruhidan iborat. RNK ketma-ketligi irsiy ma'lumotni kodlash imkonini beradi. Hamma tirik organizmlar RNKni oqsil sintezini dasturlashda ishlatiladi. Hujayra RNKlari transkripsiya jarayonida, ya'ni maxsus fermentlar RNK-polimerazalar asosida DNK matritsasida asosida RNK hosil bo'ladi. Keyinchalik matrisali RNKlar translyasiya jarayonida ishtirok etadilar. Translyasiya- bu m-RNK matrisasida oqsil sintezlanishi hisoblanadi. Boshqa RNKlar transkripsiyadan so'ng, kimyoviy modifikasiyalarga uchraydi, undan so'ng hosil bo'lgan ikkilamchi va uchlamchi strukturalar RNK tipiga qarab turli xil vazifalarni bajaradi. Bir zanjirli RNKlar uchun turli xil fazoviy strukturalar xos, ularda bitta zanjirning nukleotidlar bir qismi o'zaro juftlashgan bo'ladi. Ayrim yuqori sturturali RNKlar oqsil sintezida ishtirok etishadi, masalan t-RNKlar kodonlarni tanishda va aminokislotalarni oqsil sintezi jarayonida manziliga yetkazishda, ribosomal RNKlar esa ribosomalar strukturaviy va katalitik vazifalarni ishtirok etishadi. Shu bilan birga, zamonviy tasavvurlarga ko'ra, RNKlar vazifalari faqatgina translayasiya jarayonlari bilan chegaralanib qolmaydi, yadroviy kichik

RNKlar eukariot matrisali RNKlar splayisigida va boshqa jarayonlarda ishtirok etadi. Bundan tashqari, RNKlar ayrim fermentlar tarkibiga kiradi masalan telomerazalar, va ayrim RNKlarning fermentativ faolligi aniqlangan, ya'ni boshqa RNKlarni zanjirini kesish xususiyatiga ega bo'lib, va aksincha RNK fragmentlarini tikish xususiyatiga ham ega bo'ladi. Bunday RNKlar ribozimlar deb ataladi. Ko'pgina viruslar genomi RNK dan tashkil topgan, ya'ni DNK rolini bajaradi. Hujayradagi RNKlarning turli tuman funksiyasiga qarab, hujayra biologiyasida RNK biologik tizimlar paydo bo'lgunga qadar birinchi irsiy ma'lumotni tashuvchi molekulalar degan gipoteza mavjuddir.



16-rasm. Pro [mRNK halqasi](#). Asoslardagi [azot](#) atomlari ko'k rangda, fosfat asosidagi [kislorod](#) qizil

Oqsillar sintezida RNK roli 1939 yilda Torbbern Oskar Kaspersson, Jan Brashe va Djek Shuls ishlarida taklif qilingan. Jerard Mairbaks birinchi marta quyon gemoglobinini kodlaydigan, matrisali RNK ni ajratib olingan, va ushbu RNK oositlarga o'tkazilganda, xuddi shu oqsil kodlanishi aniqlangan. 1956-1957 yillarda A.Belozerskiy, A.Spirin, E.Volkin, L.Astraxan tomonidan hujayralardagi RNK tarkibini va hujayradagi RNK lar asosiy massasini ribosomal RNK tashkil qilishini aniqlaganlar. Severo Ochoa 1959 yilda tibbiyot bo'yicha RNK sintezining mexanizmini ochgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. 1990-yillarning boshlarida o'simlik genomiga begona genlarning kiritilishi analog genlarining ekspresiyasini bostirishga olib kelishi aniqlandi. Shu bilan birga 22 nukleotid qatoriga ega bo'lgan RNK lar mikro RNK lar bo'lib, S. elegans nematodalar ontogeneizida

boshqaruvchi rolini bajarishi isbotlangan (16-rasm).


Monomerlarning kimyoviy tarkibi va modifikatsiyalari. RNK nukleotidlari tarkibida shakar – riboza bo'lib, unga 1' holatida asoslar- adenin, guanin, sitozin

yoki uratsillardan biri birikkan bo'ladi. Fosfat guruhi ribozani zanjirga bog'lab, bir ribozaning 3 'uglerod atomi bilan, ikkinchisining 5' holatida bog'lanish hosil qiladi. Fosfat guruhlari fiziologik pH ko'rsatkichida salbiy zaryadlangan, shuning uchun RNK polianion xususiyatga ega. RNK to'rt asosli - adenin (A), guanin (G), uratsil (U) va sitozinli (S) polimer sifatida transkripsiyalanadi. Ammo "yetuk" RNKda ko'plab o'zgartirilgan asoslar va shakar mavjud. Hammasi bo'lib, RNK da 100 ga yaqin modifikasiyalangan turli xil nukleotidlar mavjud bo'lib, ulardan 2'-metilriboza shakarning ko'p uchraydigan modifikasiya variantlari hisoblanadi, psevdouridin esa -asoslarning modifikasiyalari hisoblanadi. Psevdouridin, riboza bilan C-N emas, balkim C-C bog'lari orqali bog'lanadi va RNK molekulasida turli xil xolatlarda uchraydi. Shuningdek, psevdouridin, t-RNK ning funksiyasi uchun muhim hisoblanadi. Ikkinchi modifikasiya turlariga gipoksantin kiradi, adeninning dezaminirlanishi natijasida hosil bo'ladi, va nukleozid inozin nomi bilan ataladi. Inozin genetik kodnig turg'unligini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Boshqa ko'plab uchraydigan modifikasiyalarning roli oxirigacha o'rganilmagan. Masalan, peptid bog'larni hosil qiluvchi ribonukleotidlar roli shular jumlasiga kiradi.

Tuzilishi. RNKdagi azotli asoslar sitozin va guanin, adenin va uratsil, shuningdek, guanin va uratsil o'rtasida vodorod bog'larini hosil qilishi mumkin. Lekin boshqa ta'sirlar ham mavjud bo'lib, bularga bir nechta adenin nukleotidlarining o'zaro tugunlar hosil qilishi, yoki to'rtta adenin o'zaro tugunlar hosil qilib o'zaro ta'sirlar adenin-guanin o'rtasida bo'lishini misol keltirish mumkin (17-rasm).

RNKning uni DNKdan ajratib turadigan muhim tarkibiy xususiyati ribozaning 2' holatida gidroksil guruhining mavjudligidir, bu

RNK molekulasining B-konformatsiyasida emas, balki A konformasiyada ega



OH

17-rasm. RNK polinukleotidning kimyoviy tuzilishi

bo'lishiga imkon beradi, bu holat ko'pincha DNKda kuzatiladi. DNK ning A-shaklida chuqur- tor qator va chuqur bo'lmagan, keng kichik qatorli struktura uchraydi.


RNK tarkibidagi 2' gidroksil guruhining mavjudligi, konformatsion plastik, ya'ni spiral hosil bo'lishida ishtirok etmaslik imkonini beradi, RNK molekulasining hududlari boshqa fosfat bog'lanishlariga kimyoviy ta'sir ko'rsatishi va ularni uzishida ishtirok etadi. Bir zanjirli RNK ning "ishchi" shakli, oqsillar singari, uchlamchi strukturaga ega bo'ladi. Uchlamchi struktura ikkilamchi struktura elementlari asosida hosil bo'lib, bu strukturaning hosil bo'lishida bitta molekula ichidagi vodorod bog'lari ishtirok etadi. Bir necha turdagi ikkilamchi strukturalar farqlanadi, bularga asos-halqa, halqa va psevdotugunlar shaklidagi strukturalar kiradi. Asoslar juftlashishining ko'p miqdordagi variatsiyalari mavjudligi uchun RNK ikkilamchi strukturasini bashorat qilish, oqsillar ikkilamchi strukturasini bashorat qilishga nisbatan murakkab vazifa hisoblanadi, lekin hozirda RNK ikkilamchi strukturalarini bashorat qilishning samarali dasturlari mavjud bo'lib, *ifold* dasturi shular jumlasiga kiradi (18-rasm).

RNK molekulalarining funktsiyasining ularning ikkilamchi tuzilishiga bog'liqligiga ribosoma to'plamlari- [IRES](#) misol bo'la oladi.

IRES - bu informasion RNKning 5' uchidagi struktura u oqsil sintezini boshlashning odatiy mexanizmini chetlab o'tish xususiyatiga ega bo'lib, ribosomaning biriktirilishini ta'minlaydi, bu 5' uchida maxsus modifikatsiyalangan asos- *cap* joylashadi va ushbu jarayonni amalga oshirishda oqsil sintezinig innisiasiya omillarini talab qiladi.

Dastlab IRES virusli RNKlarda topilgan, ammo hozirda mRNKlar ham [stress](#) sharoitida IRESga bog'liq innisiasiya mexanizmidan foydalanishi haqida tobora ko'proq ma'lumotlar to'planib bormoqda.

Ko'pgina RNK turlari, masalan, rRNK va mikro RNK, hujayradagi RNK molekulalari sintezlangandan keyin eukariotlar sitoplazmasiga eksportidan so'ng,



18-rasm. Sodda hayvonlar RNK komponentining ikkilamchi tuzilishi

oqsillar bilan birlashib kompleks hosil qiladi. Bunday RNK-oqsil komplekslari ribonukleoprotein komplekslari yoki [ribonukleoproteinlar](#) deb ataladi.


Tirik hujayrada RNK sintezi ferment - RNK polimeraza tomonidan amalga oshiriladi. eukariotlarda RNKning har xil turlari turli xil, ixtisoslashgan RNK polimerazalari tomonidan sintezlanadi. Umuman olganda, ham DNK, ham boshqa RNK molekulalari RNK sintezi uchun matritsa vazifasini o'tashi mumkin. Masalan, polioviruslar o'zlarining genetik materiallarini takrorlash uchun RNKga bog'liq RNK-polimerazadan foydalanadilar. Lekin ilgari faqat viruslarga hos bo'lgan RNK bog'liq RNK sintezi hujayrali organizmlarda RNK- interferensiya jarayoni natijasida sodir bo'ladi.

DNKga bog'liq bo'lgan RNK polimeraza holatida bo'lgani kabi va RNKga bog'liq RNK polimeraza ham promotor ketma-ketligiga birikadi. Matrisaning molekulasining ikkilamchi strukturasi polimerazaning helikaza faolligi asosida ochiladi, substrat molekulaning 3 'dan 5' uchi yo'nalishda harakat qilib RNKni 5'→3' yo'nalishida sintez qiladi. Molekulaning oxirgi uchidagi transkripsiya terminatori sintezning tugashini belgilaydi. Ko'pgina RNK molekulalari boshlang'ich molekulalar sifatida sintezlanadi, ular "tahrirlash" dan o'tadi - RNK-oqsil komplekslari yordamida keraksiz qismlari olib tashlanadi.

Masalan, *Escherichia coli*- da rRNK genlari bitta operonda joylashgan- lokusda joylashish tartibi quyidagicha: 16S - tRNK Glu₂ - 23S-5S, bitta uzun molekula sifatida o'qiladi, so'ngra avval rRNK hosil bo'lishi bilan bir nechta mintaqalarga bo'linadi, va keyin yetuk rRNK molekulalari hosil bo'ladi. Sintezdan so'ng RNKning nukleotidlar ketma-ketligini o'zgartirish jarayoni RNKni qayta ishlash yoki tahrirlash deb ataladi.

Transkripsiya tugaganidan so'ng, RNK molekulalari bajaradigan funksiyalariga qarab modifikasiyaga uchraydi. Eukariotlarda RNK ning yetilish jarayoni ya'ni oqsil sinteziga tayyorlanishi, splicing jarayonini o'z ichiga oladi: oqsilni kodlamaydigan ketma-ketliklarning intronlarning splicingasoma ribonukleotidi orqali olib tashlanishi ro'y beradi. Keyinchalik eukariotlarda

boshlang'ich i-RNK ning 5' uchiga maxsus modifikasiyalangan nukleotid cap qo'shiladi, 3' uchiga esa bir nechta adenin qo'shiladi, ularga poli A- uchi deb ataladi.



*19-rasm. RNKni
ajratib turadigan bolg
'a ribozimasining
tuzilishi*

Matrisali RNK- bu RNK turi DNK dagi kodlangan ma'lumotni ribosomalarga tirik organizmlarning oqsil sintezlovchi molekulyar mashinalarga o'tkazishda vositachi vazifasini bajaradi. i-RNK kodlaydigan ketma-ketliklari oqsil tarkibidagi aminokislotalar ketma-ketliklarini belgilaydi. Lekin ko'p RNK lar oqsilni kodlamaydi. Bu kodlamaydigan RNKlar alohida olingan genlar tomonidan transkripsiyalanadi, masalan, ribosomal RNK lar yoki intronlar hosilalari bo'lishi mumkin. Klassik, yahshi o'rganilgan kodlamaydigan RNK turlari - bular transport RNK va ribosomal RNK lar bo'lib, translatsiya jarayonida ishtirok etadi. RNK ning i- RNK prossesingida va boshqa vazifalarni bajaruvchi genlarni boshqarishda ishtirok etadigan

sinflari ham mavjud (19-rasm). Bundan tashqari, RNK ning kodlamaydigan molekulalari mavjud bo'lib, RNK molekulalarini ligirlash va kesish kabi kimyoviy reaksiyalarni katalizlash xususiyatiga ega. Oqsillar kabi, enzimlar bilan kimyoviy reaksiyalarni katalizlaydi, va RNK ning katalitik molekulalari ribozimlar deb ataladi.


Translyatsiya ishtirokchilari

Oqsil aminokislotalar tarkibi ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumot i-RNK tarkibida joylashgan. Ucha nukleotid kodon ketma-ketligi bitta aminokislota to'g'ri keladi. Eukariot hujayralarda transkripsiya qilingan boshlang'ich i-RNK, prossesing jarayonini o'tgandan so'ng, yetuk RNK ga aylanadi. Prossesing jarayonida oqsilni kodlamaydigan ketma-ketliklar -intronlar olib tashlanadi.

Shundan so'ng, i-RNK yadrodan sitoplazmaga eksport qilinadi, unga t-RNKga birikkan aminokislotalar yordamida i-RNK ning tranlyasiyasini amalga oshiradigan ribosomalar bilan qo'shilishi yuz beradi (20-rasm).


Yadrosiz hujayralarda bakteriyalar va arheylarda, ribosomalar i-RNK ga RNK transkripsiya o'tgan qismiga darhol birikishi yuz beradi. Eukariotlar va prokariotlarda, i-RNK ning sikli, ribonukleazalar ta'sirida parchalanashi orqali nazorat qilinadi. Transport- RNKlar - kichkina RNK lar bo'lib, 80 ga yaqin nukleotidlardan tashkil topgan bo'lib, konservativ uchlamchi strukturga egadir. Ular ribosomalarda spesifik aminokislotalarni peptid bog'lari sintezi joyiga tashishda ishtirok etadi.

Har bir t-RNK aminokislotani biriktirib oladigan, i-RNK dagi kodlarni taniydigan antikodon qismlari mavjud. Antikodon kodon bilan birga vodorod bog'larini hosil qiladi, t-RNK da hosil bo'lgan peptid bog'idagi oxirgi aminokislota va t-RNK dagi aminokislota o'rtasida peptid bo'gining hosil bo'lishiga yordam beradi. Ribosomal RNK lar -ribosomalarni katalizlaydigan tarkibiy qismi hisoblanadi. Eukariotlar ribosomalari to'rtta molekula r-RNK ga ega bo'ladi: 18S, 5,8S, 28S va 5S. To'rtta ribosomalarning uchasi yadrochada sintezlanadi. Sitoplazmada ribosomal RNK lar ribosomal oqsillar bilan birlashadi va nukleoprotein hosil qilishadi, ularga ribosomalar deb ataladi. Ribosoma mRNAga birikadi va oqsilni sintez qiladi. rRNK eukariot hujayralar sitoplazmasida topilgan RNKning 80% gacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Ribosomalarning boshqacha turi t-RNK va i-RNK vazifasini bajaruvchi ti- RNK ko'pgina bakteriyalar va plastidalar tarkibida uchraydi. Ribosomalarning nuqsonli stop kodonlarga ega bo'lmagan i-RNK da to'htab



20-rasm. RNKpolimeraza II fermenti ishtirokida DNKdan RNK transkripsiyasi RNK turlari

qolganda, ti-RNK katta bo'lmagan peptidga ulanadi va oqsil degradasiyasida ishtirok etadi.



21-*ras*m. Har xil turdagi RNKlarning oqsil sintezidagi roli (Uotsonga ko'ra)

Genlarni boshqarishda ishtirok etish. Tirik hujayralarda RNK ning bir nechta turi mavjud bo'lib, genning yoki iRNK ga komplementar bo'lgan genning namoyon bo'lish darajasini pasaytiradi. Mikro-RNK lar 21-22 nukleotid qatoriga ega bo'lib, eukariotlarda topilgan, va RNK-interferensiya mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatadi. Bunda mikro-

RNK va fermentlar kompleksi genning promotor qismlarida DNK ning metillanishiga olib keladi, va gen faolligini pasaytiradi. mi-RNK ni boshqarishning boshqa turi ishlatilganda, komplementar mi-RNK degradasiyaga uchraydi. Lekin genlar ekspressiyasini ko'paytiradigan mi-RNK turlari ham mavjuddir. Kichik interferensiyalaydigan RNKlar 20-25 nukleotid qatoridan iborat, ko'pgina hollarda virus RNKlarining parchalanishidan hosil bo'ladi, lekin endogen hujayraviiy mi-RNK turlari ham mavjud.

Kichik interferensiyalaydigan RNKlar o'hshash mikro-RNK mexanizmlarining RNK-interferensiyasi orqali harakat qilishadi. Hayvonlarda RNK ning yangi turi topilgan bo'lib, ular pi-RNK 29-30 nukleotiddan iborat bo'lib, Piwi bilan o'zaro ta'sirlasha oladi, jinsiy hujayralarda transpozonlar nusxalarining sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaydi va gametalarni hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari, pi-RNK epigenetik tarzda ona tomondan irsiylanadi, va avlodlarga transpozonlarni ekspressiyasini ingibirlaydigan xususiyatlarning irsiylanishini ta'minlaydi. Ma'nosiz RNKlar bakteriyalarda keng tarqalgan bo'lib, i-RNK ga birikadi va genlarni namoyon etuvchi xususiyatlarini bostiradi, lekin bir hillari ekspressiyasini faollashtiradi. Bunday RNKlar i-RNK ga birikkanda, RNK ning ikki zanjirli molekulasini hosil bo'ladi va fermentlar tomonidan degradasiya

qilinadi. Eukariotlarda yuqori molekulyar - RNK ga o'hshash RNK molekulari topilgan, ular oqsil molekulasini kodlamaydi. Ular ham genlarning namoyon bo'lishida ishtirok etadi. Misol tariqasida sut emizuvchilarda Xist genini keltirish mumkin, X-xromosomalarning biriga birikadi va faolsizlantiradi.

Genlarni boshqarishda individual molekulalarning roolidan tashqari, regulyator elementlar mRNKning translyasiya qilinmagan 5' va 3' mintaqalarida hosil bo'ladi. Ushbu elementlar translyasiyaning boshlanishiga to'sqinlik qilib, mustaqil ravishda harakat qilishi yoki oqsillarni biriktirishi mumkin.

RNK prosessingi. Ko'pgina RNKlar boshqa RNKlar modifikasiyasida ishtirok etadi. Intronlar boshlang'ich iRNKdan splaysasoma yordamida kesiladi, splaysasomalar tarkibida oqsillardan tashqari bir qancha kichik yadro RNKlari ham bo'ladi. Bundan tashqari, intronlar

o'zlarining xususiy kesilishini katalizlaydi. Transkripsiyanatijasida sintezlangan RNK kimyoviy jihatdan modifikasiya qilinishi mumkin. Eukariotlarda RNK nukleotidlarining kimyoviy

modifikasiyasi, masalan, ularning metillanishi, kichik yadro RNKlari -

60-300 nukleotidlardan tashkil

topgan ketma-ketliklar tomonidan

amalga oshiriladi. RNKning bu turi

yadrochada va Kahal tanachalarida


joylashgan. Kichik yadro RNKlari

fermentlar bilan assotsiasiyasi yuz

bergandan so'ng, ular RNK-nishon

bilan bog'lanadi ikki molekula asoslari orasida juftliklar hosil qiladi, fermentlar esa

RNK-nishonlarining nukleotidlarini modifikasiya qiladi. Ribosomal va transport



22-rasm. Poliovirus misolida RNK genomiga ega bo'lgan virusning hayot aylanishi : 1 – asl virionni retseptorga biriktirish; 2 – virion hujayraga kiradi; 3 – virus RNKlaridan virus oqsillarini polipeptid hosil bo'lishi bilan tarjima qilish; 4 – virusli polimerazalar uning RNKini ko'paytiradi

RNKlar ko'pgina modifikatsiyalarga ega bo'lib, evolyutsiya davomida saqlanib qoladi (22-rasm).

RNK genomlari

DNK singari, RNK ham biologik jarayonlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. RNKlar viruslar genomi va virusga o'xshash strukturalarning genomi sifatida foydalanilishi mumkin. RNK-genomlarini oraliq DNK bosqichiga ega bo'lmagan va ko'payish uchun DNK nusxalarini hosil qiluvchi va qaytadan RNK ga sintezlanadigan turlariga bo'linadi, masalan retroviruslarda.

RNK- tutuvchi viruslar. Ko'pgina viruslar, masalan gripp virusi, hamma bosqichlarda faqat RNK dan tashkil topgan genomga ega. RNK asosan oqsil qobig'ining ichida joylashadi va kodlanadigan RNK-bog'liq RNK-polimerazalar yordamida replikasiya jarayonini o'taydi. RNK dan tashkil topgan viruslar genomi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- "RNK ning musbat zanjiriga" ega bo'lgan, i-RNK va genom sifatida qo'llaniladigan
- "minus zanjirga ega" bo'lgan, faqat genom sifatida qo'llaniladi, i-RNK sifatida komplementar molekula foydalaniladi
- ikki zanjirli viruslar

Viroidlar- RNK genomiga ega bo'lgan, patogenlarning boshqa guruhi bo'lib, oqsil molekulalariga ega bo'lmaydi. Ular xo'jayin organism RNK-polimerazalar yordamida replikasiya qilinadi.

Retroviruslar va retrotranspozonlar. Boshqa viruslarda RNK-genom hayotiy siklining birida ega bo'lishi mumkin. Retroviruslar virionlari RNK molekulalariga ega, bu RNK lar xo'jayin hujayrasiga kirganda DNK nusxalarini sintezlashda matrisa bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, DNK matritsasi RNK-genom sintezlanadi. Viruslardan tashqari, teskari transkripsiya jarayonini genomning mobil elementlari- retrotranspozonlar ham qo'llashadi.

DNK sekvenirlash


Biopolimerlar, nuklein kislotalami- DNK, RNK, oqsillami sekvenirlash, ularning nukleotid va aminokislotali ketma-ketliklarini aniqlash bo'lib, lotin tilidan *sequentum*- ketma ketlik ma'nosini anglatadi.

Sekvenirlanish natijasida monomerlar ketma-ketliging chiziqli tuzilmasi to'g'risida matn shaklida rasmiy tavsifi hosil qilinadi. DNK sekvenirlangan qismlari odatda 100 nukleotidlar juftidan oshmaydi- *next generation sequencing* va Senger sekvenirlanishi bo'yicha 1000 nukleotidlar jufti hosil qilinishi mumkin. Bir-birini qoplaydigan DNK qismlari sekvenirlanishi natijasida to'liq genlar, umumiy i-RNK yoki organizmlar to'liq genomi to'g'risida ma'lumot beradigan genlar qismlari olinadi (23-rasm).

Sekvenirlash uchun Edman, Senger va boshqa uslublar qo'llaniladi, odatda hozirgi kunda genlarni sekvenirlash uchun Sengerning ddNTP-didezoksinukleoziduchfosfatlar uslubi qo'llaniladi.

Sekvenirlashdan oldin DNK ning *PZR-polimerazali zanjirli reaksiya* uslubi yordamida taniladigan ketma-ketligi amplifikasiya qilinadi. To'liq genom sekvenirlanishi yangi avlod sekvenirlash texnologiyalarini *next generation sequencing* uslubini qo'llab amalga oshiriladi.

Didezoksinukleotid yoki "zanjir uzilishi" uslubi F.Senger tomonidan 1977 yilda ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda DNK nukleotid ketma-ketligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Senger bo'yicha sekvenirlashda sekvenirlanayotgan zanjirning maxsus 17-20 nukleotid uzunligiga ega bo'lgan sintetik oligonukleotidning gibridizasiyasi amalga oshiriladi. Bu oligonukleotid praymer bo'lib, 3'-gidroksil guruhni matritsaga komplementar bo'lgan, zanjirning inisiasiyasini boshlaydi. Praymerli eritmalar 4 ta probirkaga joylashtiriladi, ularning



23-rasm. Radiofaol izotop bilan nishonlangan PZR mahsulotlariga ega bo'lgan gel qismlari. Radioavtograf. (Senger uslubida sekvenirlash)

har birida dATP, dCTP, dGTP, dTTP dezoksinnukleotidlari bo'lib, ularning biri radioizotop bilan nishonlangan va 4 ta 2', 3'-didezoksinnukleotidlardan ddATP, ddTTP, ddGTP, ddCTP biri bo'ladi. Didezoksinnukleotid hamma pozitsiyalar bo'yicha uzayib borayotgan zanjirga qo'shiladi, va uning zanjirga qo'shilish joyida zanjir sintezi to'xtaydi. Buning natijasida har 4 probirkada DNK-polimeraza ishtirokida primar ketma-ketligiga ega bo'lgan oligonukleotidlarning har hil uzunlikdagi noyob to'plami hosil bo'ladi. Keyinchalik probirkalarga zanjirlarni ajratish uchun formamid qo'shiladi, va poliakrilamid gelida to'rt hil yo'lakchada elektroforez o'tkaziladi. Sekvenirlangan DNK segmentlarini "o'qish" maqsadida radioavtografiya o'tkaziladi. Zamonaviy uslubda didezoksinnukleotidlarni to'rt hil turli tuman fluoressent bo'yoqlar bilan bo'yaladi va bitta probirkada PZR o'tkaziladi. So'ngra poliakrilamidli elektroforezda lazer nuri gelning ma'lum qismida fluorescent bo'yoqlarini qo'zg'atadi va gelda migratsiya bo'lgan nukleotidni detector aniqlaydi. Zamonaviy asboblari yordamida DNK ning kapillyar elektroforezini o'tkazishda foydalaniladi.

Genomika, proteomika va metabolomika

Genomika - molekulyar genetikaning tirik organizmlar genomini va genlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'limi bo'lib, maxsus yo'nalish sifatida tirik organizmlarning ayrim turlari genomlarini tartiblashtirish bo'yicha birinchi loyihalar paydo bo'lishi bilan birga 1980 va 1990 yillarda paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib 1977 yilda, 5368 nukleotid ketma-ketlik uzunligiga ega bo'lgan C-X174 bakteriofagining genomi to'liq o'rganilgan va tartiblangan.

Genom - bu organizm hujayrasida joylashgan irsiy materiallarning to'plamidir. Odamlarda- Homo sapiens genom yadroda joylashgan 23 juft xromosomadan, shuningdek mitoxondriyal DNKdan iborat. Yigirma ikkita autosomal xromosoma, ikkita jinsiy xromosoma X va Y, inson mitoxondriyal DNKsi taxminan 3,1 milliard baza juftini o'z ichiga oladi. Gen bu tirik organizmlar irsiyatining tarkibiy va funktsional birligi bo'lib, ma'lum bir polipeptid yoki funktsional RNKning ketma-ketligini belgilaydigan DNK ketma-ketligi

hisoblanadi. Genlar aniqrog'i, genlarning allellari ko'payish jarayonida ota-onadan naslga o'tadigan organizmlarning irsiy xususiyatlarini aniqlaydi. Shu bilan birga, ba'zi organoidlar mitoxondriya, plastidalar organizm genomiga kirmaydigan xususiyatlarini aniqlaydigan DNKlariga ega bo'ladi.

Genetik ma'lumot genlardagi DNK yoki RNK molekulalarining maxsus funktsional hududlarida nukleotidlar ketma-ketligi - genetik kod yordamida kodlangan oqsillarning tuzilishi haqidagi ma'lumotdir. Genetika, genomika yoki gen muxandisligida olib boriladigan tajribalar ma'lum model yoki muhitda o'tkaziladi.

In vitro lotincha so'zdan olingan bo'lib, "probirka ichida" ma'nosini anglatadi - bu tajribalarni o'tkazish texnologiyasi, tajribalar "sinov probirkasida" - tirik organizmdan tashqarida o'tkaziladi. Umumiy ma'noda, bu atama *in vivo* jonli organizmga odamlarda yoki hayvonot modelida eksperimentga qarshi holda olib boriladi. Molekulyar biologiya, biokimyo, farmakologiya, tibbiyot, genetika va boshqalar bilan bog'liq ko'plab tajribalar organizmdan tashqarida, tirik hujayralar kulturasida yoki hujayrasiz modelda amalga oshiriladi.

In vivo lotin so'zidan olingan bo'lib- so'zma-so'z "tiriklikda" ma'nosini anglatadi, ya'ni tajribalar "tirik organizm ichida" yoki "hujayra ichida" olib boriladi.

Amplifikatsiya- lotincha "amplification" - kuchaytirish, ko'payish, molekulyar biologiyada - xromosoma DNK qismlarining qo'shimcha nusxalarini shakllantirish jarayoni, odatda tarkibida ba'zi genlar yoki strukturaviy geteroxromatin segmentlarini ko'paytirish tushuniladi. Amplifikatsiya - bu o'sma hujayralarining rivojlanishi paytida onkogenlarning faollashuv mexanizmlaridan biri, masalan, neyroblastomaning rivojlanishi paytida N-myc onkogen bolalarda to'qima saratonining eng keng tarqalgan shaklini misol keltirish mumkin. Shuningdek, amplifikatsiya - PZR - polimeraza zanjiri reaksiyasi paytida ma'lum bir nukleotid ketma-ketligi nusxalarini ko'paytirish bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda genomika sohasining qo'yidagi bo'limlari mavjud:

Strukturaviy genomika - bu genom ma'lumotlarining mazmuni va tashkil etilishi. Maqsad ma'lum tuzilishga ega bo'lgan genlarni o'rganish, ularning funksiyasini tushunish, shuningdek "asosiy" oqsil molekulalarining fazoviy tuzilishini va uning o'zaro ta'sirini aniqlashdir.

Funksional genomika - bu gendan xususiyatga qadar genomda qayd etilgan ma'lumotlarning amalga oshirilishi.

Qiyosiy genomika (evolyutsion) - turli organizmlar genamlari tarkibi va tashkil etilishini taqqoslovchi tadqiqotlar asosida olib boriladi. To'liq genom ketma-ketliklarini olish turli xil tirik organizmlar genamlari o'rtasidagi farqlar darajasini yoritib berdi. Allellar bir xil genning gomologik xromosomalarning bir xil bo'limlarida lokuslarida joylashgan va bir xil belgi rivojlanishining muqobil variantlarini belgilaydigan turli shakllari. "Allel" atamasi V. Yoxansen tomonidan 1909 yilda taklif qilingan. Genomdagi o'zgarishlar mutatsiyalar orqali sodir bo'ladi. Evolyutsion taraqqiyotda ushbu jarayonlar turlar hosil bo'lishida va jinsiy ko'payish asosida bio xilma-xillikning rivojlanishiga olib kelgan. Mutatsiya lotin so'zidan olingan bo'lib, *mutatio* - o'zgarish ma'nosini anglatadi - tashqi yoki ichki muhit ta'sirida yuzaga keladigan genotipdagi doimiy, ya'ni ma'lum bir hujayra yoki organizmning avlodlariga irsiylanishi mumkin bo'lgan o'zgarish hisoblanadi. Bu atama Gyugo de Friz tomonidan taklif qilingan. Mutatsiyalar paydo bo'lish jarayoni mutagenez deb ataladi. Mutatsiyalar eng ko'p tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi:

Translokatsiya - bu xromosomaning bir qismi homolog bo'lmagan xromosomaga o'tadigan xromosoma mutatsiyasining bir turi. Duplikatsiya lotinchadan "duplication" - ikki baravar ko'payish - xromosomalarning tuzilishini buzadigan mutatsiya turi hisoblanib, bu genlarni o'z ichiga olgan xromosoma mintaqalarining takrorlanishi. Bu barcha xromosomalarning gomologik rekombinatsiyasi, retrotranspozitsiyasi yoki takrorlanishidagi xatolardan kelib chiqishi mumkin.

Deletsiya bu lotin so'zidan olingan bo'lib, "deletion" - qisqarish ma'nosini anglatadi, bunda xromosomaning qayta tashkil etilishi yuz berib, unda

xromosomaning bir qismi yo'qoladi. Xromosomaning qisqarishi orqali buzilishi yoki tengsiz irsiylanish natijasida bo'lishi mumkin. Yo'qotilgan xromosoma mintaqasining pozitsiyasi bo'yicha qisqarishlar ichki -interstitsial va terminal deb tasniflanadi.

Proteomika inglizcha so'zdan olingan bo'lib, *Proteomics*- molekulyar biologiyaning oqsillarni aniqlash va miqdoriy tahliliga bag'ishlangan sohasi hisoblanadi, boshqacha aytganda, oqsillarni yuqori samaradorlik bilan o'rganishdir. "Proteomika" atamasi 1997 yilda taklif qilingan. Barcha hujayra oqsillarining umumiy miqdori proteom deb ataladi.

Oqsillar va ularning tirik organizmlarda, shu jumladan odamlarda o'zaro ta'sirini o'rganish proteomika fan soxasi tomonidan olib boriladi. Proteomika bo'yicha olimlar oqsillarning "sintezi", ularning parchalanishi va organizmdagi sintezlanmaydigan oqsillarni almashtirish bilan shug'ullanishadi. Shuningdek, oqsillar organizmda sintezlangandan keyin qanday o'zgarishlarga uchrashi mumkin bo'lgan jarayonlar tadqiqot qilinadi. An'anaga ko'ra oqsillarni o'rganish biokimyo bo'limlaridan biridir, ammo inson genomi DNKsi va boshqa bir qator organizmlarning tuzilishi aniqlagandan so'ng, tadqiqotchilar oqsillarni o'rganish soxasida yangi molekulyar usullarni qo'llanilishi bilan birga yangi termin proteomika paydo bo'ldi. Xususan, insonning barcha oqsillari tuzilishi va ularning standart sharoitlarda olingan proteolitik bo'laklari haqida keng ma'lumotlar bazalari rivojlandi. Bu oqsillarni bir xil sharoitda olingan proteolitik qismlarini molekulyar og'irligi bo'yicha aniqlashga imkon beradi.

Proteomika hujayra, to'qima yoki organizmda mavjud bo'lgan oqsillar turini o'rganadi. Birinchi proteomika usullari, masalan, Edmanning oqsillar ketma-ketligi texnologiyalari genom texnologiyalardan ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, haqiqatan ham oqsillarni yuqori o'tkazuvchanligi faqat post-genom davrida, ya'ni turli organizmlar genomlarining ma'lum nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangandan son'ng mumkin bo'lgan.

Shunga ko'ra, proteomika genomikaga qaraganda ob'ektiv jihatdan murakkabroq, chunki organizm genomi ko'p hollarda hayot davomida o'zgarmaydi, lekin uning barcha oqsillari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Hatto bitta organizmning har xil tipdagi hujayralari proteomlari farq qiladi. Bundan tashqari, proteomni o'rganish boshqa holatlar bilan murakkablashadi, masalan, ko'plab oqsillar translyatsiyadan keyingi o'tadigan modifikatsiyalarga asosan, proteomika bo'limlari translyatsiyadan keyingi modifikatsiyani o'rganish bilan shug'ullanadi-fosfoproteomika va glikoproteomika. Ko'pgina oqsillarning faolligi uchun boshqa oqsillar va RNK bilan o'zaro aloqalar juda muhimdir, bu ularning identifikatsiyasini ham qiyinlashtiradi. Va nihoyat, ba'zi oqsillar shu qadar qisqa vaqt ichida mavjud bo'lib, shunchalik tez parchalanadiki, ularni mavjud usullar yordamida o'rganish juda qiyin.

Proteomika usuli bilan olingan ma'lumotlar turli xil kasalliklarning sabablarini, masalan, neyrodegenerativ kasalliklar sabablarini, shuningdek davolash usullarini chuqurroq anglashni shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin. Proteomika yangi vaksinalar yaratish uchun mos antigenlarni izlash bilan shig'ullanadi. Turli xil saraton kasalliklarida maxsus oqsillarni aniqlash biomarker diagnostikasi, saraton kasalliklarini tashxis qilishda va davolash uchun katta ahamiyatga ega.

Proteomika tarixi 1950 yilda, Edman oqsillarni sekvenirlash usulini taklif qilganida boshlanadi. 1958 yilda Frederik Senger tadqiqot guruhi insulinning aminokislotalar ketma-ketligini aniqladi. 1959 yilda immunotahlil usuliga asos solindi, bu usul oqsillarni o'rganish uchun katta ahamiyatga ega edi. 1967 yilda Edman usuli yordamida oqsillarning aminokislota ketma-ketligini aniqlaydigan birinchi avtomat sekvenator yaratildi. 1970 yilda Laemmli denaturasiya uslubi asosida poliakrilamidli gel elektroforez yordamida oqsillarni ajratish usulini taklif qildi va 1975 yilda uning asosida ikki o'lchamli elektroforez texnikasi ishlab chiqildi. 1984 yilda elektrosprey ionizasiya usuli ixtiro qilindi, bu oqsillarni mass-spektrometriya uslubi yordamida o'rganish imkonini berdi va 1985 yilda MALDI ionlash usuli taklif qilindi. MALDI- *Matrix-assisted laser desorption/ionization*

ingliz so'zidan olingan bo'lib, matrisali-faollashgan lazerli desorbsiya-ionlanish ma'nosini anglatadi, ya'ni tahlil qilinayotgan modda va matritsaga lazer nurlari impulslarini ta'sir qilishi asosida ionlanish yuzaga kelishi natijasida amalga oshiriladi.

1994 yilda mass-spektrometriya bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida shakllangan birinchi peptid xaritalari paydo bo'ldi. 1996 yilda aspirant Mark Uilkins "proteome" atamasini kiritdi va keyingi yil "proteomika" atamasi paydo bo'ldi. 1999 yilda fragmentlarni bashorat qilish uchun birinchi dasturlar paydo bo'ldi, ularning massalari oqsillar ketma-ketligi bo'yicha mass-spektrometriya yordamida aniqlandi. 2001 yilda дробовик uslubi asosida proteomika sohasining rivojlanishiga asos solindi va 2014 yilga kelib ushbu usul bitta namunada 20 ming odam oqsilini aniqlashga imkon berdi. Hozirgi vaqtda nafaqat mass-spektrometriyaning har xil turlari kabi proteomika usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish, balki proteomik ma'lumotlarni izohlash uchun yangi dasturlar ham mavjud. Proteomika sohasida eng dolzarb muammolardan biri bu oqsil iosintezi va uning genetic boshqarilishi muammosi hisoblanadi.

Oqsil biosintezi - mRNK va tRNK molekulalari ishtirokida ribosomalarda paydo bo'ladigan aminokislotalardan polipeptid zanjiri sintezining murakkab ko'p bosqichli jarayoni. Protein biosintezi jarayoni sezilarli energiya sarfini talab qiladi. Oqsillar yuqori molekulyar organik moddalar bo'lib, ular zanjirga peptid bog'lari bilan bog'langan alfa-aminokislotalardan iborat. Tirik organizmlarda oqsillarning aminokislota tarkibi genetik kod bilan aniqlanadi, aksariyat hollarda 20 ta standart aminokislotalar sintezda ishlatiladi. Ularning ko'plab birikmalari oqsil molekulalarining turli xil xususiyatlarini beradi. Bundan tashqari, oqsil tarkibidagi aminokislotalar ko'pincha translyatsiyadan keyingi modifikatsiyani boshdan kechiradi, bu ham protein o'z vazifasini bajara boshlashidan oldin, ham hujayradagi "vazifasi" paytida yuz berishi mumkin. Ko'pincha, tirik organizmlarda bir nechta oqsil molekulalari murakkab komplekslarni, masalan, fotosintez kompleksini hosil qiladi.

Oqsillarni o'rganish usullari. Oqsillarni o'rganishda an'anaviy yondashuv ularni to'qima va hujayralardan ajratib olishni, keyinchalik tozalashni o'z ichiga oladi, buning natijasida tozalangan oqsilning tuzilishi va funktsiyasini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Proteomika boshqacha yondashuvni qo'llaydi: hujayraning tarkibidagi barcha oqsil tarkibini bir bosqichda ko'rish va tahlil qilish mumkin. Bu mass-spektrometriya va ikki o'lchovli elektroforez kabi usullar va texnologiyalar paydo bo'lishi va rivojlanishi tufayli mumkin bo'ldi. Biroq, proteomika usullari bu ikki misol bilan cheklanib qolmaydi.


Edman usuli. *Edmanning degradatsiyalash* usuli peptidlarning birlamchi ketma-ketligini aniqlashning eng qadimgi usullaridan biridir. 1950-1956 yillarda shved biokimyosi Pyer Viktor Edman tomonidan ishlab chiqilgan. Usulning mohiyati o'rganilayotgan peptidni ma'lum reaktivlar to'plami bilan qayta ishlashdan iborat bo'lib, bu ketma-ketlikning N-uchidan bitta aminokislotalarni chiqarib tashlashga olib keladi. Reaksiyani siklik takrorlash va reaksiya mahsulotlarini tahlil qilish peptiddagi aminokislotalarning ketma-ketligi to'g'risida ma'lumot beradi. Edman usuli yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida keng tarqaldi. Hozirgi vaqtda usulning o'ziga xos kamchiliklari - reaksiyaning miqdoriy bo'lmagan yo'nalishi, bir nechta jarayonlar tufayli amalda qo'llanilmaydi.

1953 yilda Frederik Senger insulin gormoni aminokislotalar ketma-ketligini aniqladi. N-terminal qoldig'ini nishonlash va identifikatsiyalash uchun Senger 1-ftor-2,4-dinitrobenzoldan foydalanishni taklif qildi. Oqsilning N-terminal qoldig'i ushbu reagentga bog'langandan so'ng, polipeptid zanjiri xlorid kislota bilan alohida aminokislotalarga gidrolizlanadi va belgilangan qoldiq aniqlanadi. Agar oqsil bir nechta polipeptid zanjiridan iborat bo'lsa, u holda ikkala N-terminal qoldiqlari belgilanadi, ya'ni oqsil tarkibidagi individual polipeptid zanjirlari soni aniqlanadi. Barcha oqsillar ketma-ketligini ketma-ketlashtirish uchun ko'pincha Edmanning sekvens usuli qo'llaniladi. 1960-yillarda Edman uslubini amalga oshiradigan avtomat sekvenatorlar yaratildi. Sengerni aniqlashi uchun 10 yildan ko'proq vaqtni

talab qilgan insulinning birlamchi tuzilishini endi bir necha kun ichida proteinlarni to'g'ridan-to'g'ri sekvenirlanish yo'li bilan olish mumkin.

Hozirda Edman usuli genom ketma-ketligi noma'lum bo'lgan organizmlarni o'rganishda kamdan-kam qo'llaniladi. An'anaviy oqsillar ketma-ketligi, ularning ko'pgina xususiyatlarini masalan, translyatsiyadan keyingi modifikatsiyalar, genlar ketma-ketligining tanib bo'lmaydigan qismlarini o'rganishda ishlatiladi.

Aksariyat oqsillarni ketma-ketligini aniqlashdan oldin maxsus usulda tayyorlash kerak. Birinchidan, oqsil tarkibidagi disulfid bog'lanishlari, kislota bilan oksidlanish yoki, ditiotreitol bilan qaytarilish reaksiyasi natijasida yo'q qilinadi.



24-rasm. Edman uslubida oqsilning feniltiogidantoin N-uchini aniqlash

Bundan tashqari, oqsil zanjiri maxsus proteazalar tomonidan bo'laklarga bo'linadi, chunki uzun oqsillarni ketma-ketligi past darajadagi aniqlikka ega. Odatda, gidroliz uchun tripsin fermenti ishlatiladi, ushbu ferment lizin yoki arginin qoldig'iga tegishli bo'lgan peptid bog'lanishlariga ta'sir qiladi.

Shuning uchun, to'liq gidroliz paytida oqsil tarkibidagi lizin va arginin qoldiqlari soni tripsin orqali aniqlansa, hosil bo'lgan bo'laklar sonini taxmin qilish mumkin bo'ladi. Olingan bo'laklar elektroforez yoki xromatografiya usuli bilan qo'shimcha ravishda tozalanadi va Edmanga ko'ra ketma-ketlik hosil bo'ladi. Oqsil bo'laklarini ajratib ketma-ketliklarni olish uchun tripsin tomonidan aniqlanadigan qismlar va oqsilning boshqa qoldiqlarini taniy oladigan maxsus ferment bilan bo'laklarga bo'linadi. Olingan ikki hil bo'laklar umumiy oqsilning ketma-ketligiga asoslanib, oqsilning to'liq aminokislotalar ketma-ketligi tiklanadi.

Ikki o'lchamli gel elektroforez

1970-80 yillarda oqsillarni ajratish va tozalash usullari rivojlandi. Ushbu usullar xromatografiya va elektroforez uslublarining prinsiplarini birlashtirdi, ularning ko'plari uzoq vaqtdan beri ishlatilmay qolgan, ammo ba'zilari hali XXI asrda ishlatilmoqda. 1970 yilda shveytsariyalik olim Ulrix Laemmli denaturatsiya asosida oqsillarni elektroforez bilan ajratish usulini taklif qildi. Birinchidan, oqsillar molekulyar massasiga ko'ra, qatlamlar shaklida natriy dodesil sulfating. *Natriy dodesil sulfat*, SDS ta'sirida denaturatsiyaga uchratilgan. Oqsil qancha ko'p bo'lsa, SDS shuncha ko'p bog'lanadi va ularning kompleksi shunchalik salbiy zaryadga ega bo'ladi. Shuning uchun, namunalar poliakrilamid gelida tekshirilganda, ular elektr maydon ta'sirida harakatlana boshlaydilar, oqsil molekulalarining harakatlanish tezligi ularning massasiga bog'liq, yengil oqsillar gel bo'ylab tezroq harakatlanadi. Ushbu uslubda molekulyar massasi 5 dan 250 kDa gacha bo'lgan oqsillarni ajratish uchun juda mos keladi. Laemmli usuli yanada rivojlantirildi, 1975 yilda Patrik O'Farrell va Yoaxim Kloz mustaqil ravishda ikki o'lchamli elektroforez usulini taklif qilishdi. SDS yordamida ajratishdan oldin oqsillarni izoelektrik nuqtalariga ko'ra oldindan ajratiladi. Birinchidan, oqsillar statsionar pH ko'rsatkichiga ko'ra, maxsus polimerlar bilan to'ldirilgan shisha naychaga kiritiladi. Oqsillar naycha orqali taqsimlanadi, pH ko'rsatkichiga ko'ra, oqsillar izoelektrik nuqtasiga teng bo'lgan maydonlarga joylashadi. Keyinchalik, naychaning tarkibi ajratiladi va an'anaviy Laemmli boyicha gelda elektroforez o'tkaziladi. Shunday qilib, oqsillar avval izoelektrik nuqtaga, so'ngra molekulyar massasiga ko'ra bo'linadi. Ikki o'lchamli elektroforez usulida oqsillar an'anaviy elektroforezdagi kabi tasma bilan emas, balki oqsil konsentratsiyasiga to'g'ri keladigan bo'yalish intensivligi orqali aniqlanadi. Ikki o'lchamli elektroforez yordamida nafaqat turli xil oqsillarni, balki bir xil oqsilning izoformalarini, shuningdek, translyatsiyadan

keyingi modifikatsiyalari har xil bo'lgan oqsil shakllarini ajratish mumkin. Ikki o'lchamli elektroforez texnikasini turli xil takomillashtirish taklif qilindi, uning ba'zi bosqichlari, shuningdek gell skanerlarni qayta ishlash tizimlari avtomatlashtirildi. Aslida, ikki o'lchamli elektroforez - bu proteomni tasavvur qilishning yagona usuli hisoblanadi.


Western blotting uslubi. Ba'zi hollarda organizmlardan izolyatsiya qilingan hujayra oqsillarini ma'lum hujayra antitanalar bilan o'zaro ta'sir qilishini aniqlash uchun Western blotting usuli qo'llaniladi. Western blot yoki immunoblot uslubi oqsillarni antitanalar orqali aniqlashga asoslangan. Reaksiya birinchi bosqichida poliakrilamid gelida denaturasiyaga uchragan oqsillar uzunligi bo'yicha yoki oqsil nativ holati uchlamchi strukturasiga ko'ra, SDS tasirida elektroforez o'tkaziladi. Keyinchalik oqsillar natriysellyulozaali yoki PVDF- membranalariga o'tkaziladi va oqsillarga nisbatan maxsus bo'lgan monoklonal yoki poliklonal antitanalar yordamida deteksiya qilinadi (25-rasm). Western blotting molekulyar biologiya, biokimyo, genetika va boshqa sohalarga keng qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xshash, immunoenzim- ELISA yoki immunobo'yash uslublari ham oqsillarni maxsus antitanalar yordamida aniqlashda ishlatiladi. Western blotting uslubi George Stark tomonidan Stenford Univeriteti laboratoriyasida ishlab chiqilgan bo'lib, western blot nomlanishi W.Neal Burnett tomonidan berilgan. Uslub nomlanishi southern-blotting DNK ni aniqlash texnologiyasini aniqlagan Edvin Southern nomiga atalgan va western-blotting uslubi shunga asosan nomlangan. Huddi shuningdek, analogiyada RNK ni aniqlash uslubi Northern-blotting deb ataladi va oqsillar modifikasiyasining post translyasion deteksiyasi uslubi Eastern blotting deb nomlanadi (26-rasm).



25-rasm. Ikki o 'lchamli elektroforez

Mass-spektrometriya. Mass-spektrometriya o'rganilayotgan birikmalarning molekulyar og'irligini aniqlashga qaratilgan bir qator usullarni o'z ichiga oladi. U biologiyada, ayniqsa proteomikada keng qo'llanilishini mumkin. Mass-spektrometriya, mass -spektografiya yoki mass-spektrometrik tahlillarini o'z ichiga oladi va moddalarning kimyoviy, elementli va izotop tarkibiga qarab bu moddalarning konsentrasiyasini aniqlashda va identifikatsiya qilishda qo'llaniladi.

O'lchash asosini komponentlar ionizatsiyasi xizmat qiladi va massaning zaryadga nisbati asosida modda tarkibini tashkil etuvchi komponentlarni aniqlash, ion tokining intensivligini o'lchash va modda tarkibidagi har bir komponentning hissasini hisoblab chiqish, ya'ni moddaning mass-spektrini aniqlash tashkil qiladi. Har bir komponentning kimyoviy tabiatiga ko'ra, kelib chiqishi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishini hisobga olsak, mass- spektrometriya tibbiyotda, biologiya va sanoatda katta ahamiyatga egadir. Mass- spektrlarni hosil qilish uchun birinchi navbatda, organik yoki noorganik moddani tashkil etuvchi neytral molekula va atomlarni zaryadlangan ionlarga aylantirish lozim. Bu jarayonga ionizatsiya deb ataladi, organik va noorganik moddalar uchun turlicha o'tkaziladi. Ikkinchi navbatda, asosiy shartlardan biri mass- spektrometrning vakuum qismida ionlarni gaz holatiga o'tkaish lozim bo'ladi. Mass-spektrometrlardagi vakuum qismlari chuqur bo'lib, ionlar uning ichida to'siqsiz bemaolol harakat qiladi, agar mass-spektrometrlarda vakuum qismlari bo'lmasa, ionlar tarqalib ketadi va rekombinatsiyaga uchraydi, y'ni qaytadan zaryadlanmagan holatga qaytadi. Ko'pgina katta molekulyar massaga ega bo'lmagan molekulalar faqatgina bitta musbat va manfiy zaryadga ega bo'lishi



26-rasm. Western blotting sxemasi. Oqsillar elektroforez (1) bilan ajralib, membranaga (2) o'tkaziladi. Keyin membrana birinchi (3) va ikkinchi (4) antitanalar bilan ishlanadi, shundan keyin antitanalar bilan bog'langan oqsillar aniqlanadi.

mumkin. Molekula qanchalik katta bo'lsa, shunchalik ionizasiya vaqtida ko'p zaryadli ionga aylanish ehtimoli mavjud. Shuning uchun, bunday samara katta molekulalarda, masalan oqsillar, nuklein kislotalar va polimerlarda namoyon bo'ladi. Ionizasiyaning ayrim turlarida, masalan elektronlar bilan ta'sir ettirilganda, molekulalar bir nechta xarakterli qismlarga ajralishi mumkin, ushbu holat qo'shimcha identifikasiya qilish va noma'lum strukturalarni o'rganish imkonini beradi.

1980-yillarda mass-spektrometriya asosida molekulalarning nurga sezgir bo'lgan organik moddalar- matritsalar ishlatila boshlandi, shu bilan birga lazer yordamida ionlashtiruvchi usul ishlab chiqildi. Matritsa o'rganilayotgan moddaning molekulalarini o'rab oladi va lazer ta'sirida qo'shni molekulalarni ionlashtiradi. Yangi ionlash usuli an'anaviy mass- spektrometr detektori bilan birlashtirildi- MALDI-TOF deb atala boshladi. Ushbu detektorda ionlar vakuum trubkasida harakatlanib, detektor bo'lgan sezgir plastinkaga yetib boradi. Ion naychaning uzunligini bosib o'tadigan vaqt uning massasiga teskari proportsionaldir. 1990-yillarda va 2000-yillarning boshlarida oqsillarni o'rganish uchun MALDI-TOF usuli juda faol ishlatilgan. MALDI-TOF yordamida patogen mikroorganizmlarni aniq tur va turga qarab aniqlash mumkin. Proteomikani saraton kasalliklarini tashxislash uchun oqsil biomarkerlari tahlili yordamida, shuningdek o'smaning malignanlik darajasini aniqlash imkoniyati o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda allaqachon ma'lum yutuqlarga erishilgan. Masalan, Qo'shma Shtatlarda 2015 yilda ishlab chiqilgan Xpresys Lung testiga ruxsat beriladi, unda bir nechta plazma oqsillarining maqsadli mass-spektrometriyasidan foydalaniladi va o'pkada o'sma tugunlarining malignanligi darajasi baholanadi.

Proteomikaning so'nggi yutuqlari - mass-spektrometriya, organellalar oqsillari va membrana oqsillarini ajratish - yurak proteomini o'rganish va modifikatsiyalangan oqsillarni aniqlash shuningdek, ularning modifikatsiyasining xususiyatini aniqlash imkoniyatini yaratishi mumkin. Yurak proteomidagi

ma'lumotlar turli yurak-qon tomir kasalliklari mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

Proteomikada bioinformatika. Mass-spektrometriya va chiplar yordamida oqsil bo'laklari haqida ma'lumot olish mumkin, lekin ushbu uslublar oqsillarning to'liq strukturasi haqida ma'lumot bera olmaydi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda mass-spektrometriya ma'lumotlari va mikrosxemalardan o'rganilgan oqsil bo'laklaridan deyarli to'liq yig'ilgan oqsillar to'g'risida ma'lumot beradigan dasturlar yaratildi. Ushbu dasturlar UniProt va PROSITE ma'lumotlar bazalari asosidagi oqsillar kichik ketma-ketliklarining tahrirlariga asoslangan. Oqsillarni tahlil qiladigan dasturlarning aksariyati ularning translyatsiyadan keyingi modifikatsiyasini hisobga olmaydi. Translyatsiyadan keyingi modifikatsiyani aniqlaydigan mavjud vositalar faqat taxminiy xarakterga ega.

Biomarker oqsillarini o'rganish uchun bioinformatikaning hisoblash usullari faol qo'llaniladi. Shunday qilib, kompyuter modellari yordamida homiladorlik paytida ona organizmi va homila o'rtasida intensiv ravishda oqsil almashinuvini ko'rsatish mumkin va tahlil uchun onadan faqat invaziv bo'lmagan qon namunalari talab qilinadi. Genom ketma-ketliklaridan olingan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun proteomika usullaridan foydalanadigan proteogenomika kabi yo'nalish rivojlanmoqda. Shuningdek, rentgen difraksiyasini tahlil qilish va NMR spektroskopiyasi ma'lumotlari asosida oqsil tuzilmalarini keng miqyosda o'rganish bilan shug'ullanadigan tarkibiy proteomika mavjud.

Proteomika va tizimlar biologiyasi. Miqdoriy proteomikaning so'nggi yutuqlari tizimlarni chuqur tahlil qilish uchun ishlatishga imkon beradi. Turli xil ta'sirlarga, tashqi omillarning harakatlari, hujayra tsiklining turli bosqichlari bilan bog'liq holda hujayra fiziologiyasining o'zgarishiga javoban biologik tizimlarning xatti-harakatlarini ta'riflash ko'plab biologik jarayonlarning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi. Shu tufayli proteomika genomika, transkriptomika, epigenomika, metabolomika kabi ilmiy yo'nalishlar - tizimlar biologiyasiga kiritilgan. Shunday qilib, saraton hujayralari proteomining atlasini, inglizcha

Proteome Cancer Atlas tarkibida ushbu oqsillar uchun genom va transkriptom ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, saraton genom atlasini ing. *The Cancer Genome Atlas* da taxminan 200 dan ortiq 4000 dan ortiq tahlil qilingan o'sma namunalaridagi oqsillarning ekspressiyasi to'g'risida miqdoriy ma'lumotlar mavjud. Proteomika usullari asosida ishlab chiqilgan dori-darmonlarning maqsadga muvofiqligini tasdiqlash, biomarkerlarning samaradorligini aniqlash va dori ta'sir mexanizmi va uning toksikligini o'rganish uchun ishlatiladi. Bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ikki organizmning proteomlarini taqqoslash, bu ikki organizm uchun umumiy bo'lgan ikkala oqsilni va ularning fenotiplaridagi farqlarni aniqlaydigan oqsillarni aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil evolyutsion jarayonni tushunish uchun foydali bo'lgan ma'lumotni berishi mumkin va ba'zida bu oqsillarning ilgari noma'lum funktsiyalarini aniqlashga imkon beradi.

“Inson genomi” loyihasi



27-rasm. “Inson genomi” loyihasi logotipi

Inson Genom loyihasi (ingliz tilidan, *Human Genom Project* , *HGP*) - Xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasi bo'lib, uning asosiy maqsadi DNK tarkibiga kiruvchi nukleotidlar ketma-ketligini va inson genomini tashkil qilgan 20-25 ming genlarni aniqlash bo'ldi (20- rasm). Ushbu loyiha biologiya sohasida o'tkazilgan eng yirik xalqaro xamkorlik munosabatlaridan biri hisoblanadi. Loyiha 1990 yilda Jeyms

Uotson rahbarligida, AQSH lari Sog'liqni saqlash Milliy

Tashkiloti tomonidan o'z faoliyatini boshlagan. 2000 yilda genom tuzilmasining qoralama ishchi varianti ishlab chiqildi va 2003 yilda to'liq genom tuzilmasi taqdim etildi, lekin bugungi kunga qadar genom ayrim qismlarining to'liq tahlillari tugatilmagan. Celera Corporation xususiy kompaniyasi tomonidan parallel ravishda xuddi shunday analogik loyiha ishga tushirilgan edi, ushbu loyiha “Inson genomi” loyihasidan sal ilgari faoliyatini tugatgan. Sekvenirlash ishlari asosan AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya davlatlarining universitetlari va tadqiqot markazlarida

o'tkazilgan. Inson genlarini aniqlash kabi fundamental ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlardan tashqari, sog'liqni saqlash sohasida yangi dorivor vositalarni yaratish va boshqa yo'nalishlarini rivojlantirish sohasida ko'p ishlar qilindi. Loyiha maqsadiga ko'ra, inson turi genomi genlarini aniqlash, tahrirlash va tushunish ishlari bilan bog'liq bo'lsada, boshqa organizmlar, ayrim bakteriyalar shu jumladan, *Escherichia coli*, hasharotlardan drozofila, va sut emizuvchilarga mansub bo'lgan uy sichqoni genomi ham tadqiq qilindi. Loyiha faoliyatining bo'shlag'ich davrida inson gaploid genomini tashkil etuvchi uch milliardga yaqin nukleotidlarni aniqlash rejalashtirilgan. Keyinchalik bir nechta tadqiqot guruhlarini sekvenirlash ishlari kengaytirish maqsadida, bir nechta xalqaro loyihalar HapMap, «Applied Biosystems», «Perlegen», «Illumina», «JCVI», «Personal Genome Project» va «Roche-454» inson diploid genomi ishlari olib borishdi. Har bir tirik organizm - bitta tuxumdan rivojlangan egizaklar va klonlangan hayvonlar bundan mustasno bo'lib, loyiha ishlari inson genomini ketma-ketliklarini aniqlash, har bir gen variatsiyasini sekvenirlash ishlari o'z ichiga oldi. Lekin, "Inson genomi" loyihasi hujayralar tarkibini tashkil etuvchi hamma DNK larning ketma-ketligini aniqlash kirmagan, balkim genom ayrim geteroxromatin qismlarni sekvenirlash ishlari tashkil qilgan va hozirga qadar 8% ga yaqin qismlari sekvenirlanmagan.

Ushbu loyiha AQSH Energetika vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlangan bir necha yillik ishlarning , xususan 1984 va 1986 yillarda bo'lib o'tgan seminarlarning va Energetika Vazirligining qo'llab quvvatlashi natijasida faoliyat boshlaydi. 1987 yildagi hisobotlarga ko'ra "Bu harakat yakuniy maqsadi inson genomini tushunishdan iborat" "Inson genomini bilish tibbiyot sohasining va sog'liqni saqlash borasidagi boshqa fanlarni rivojlanishi uchun zarur" deb ko'rsatilgan. Ushbu vazifalarni hal etish uchun muhim bo'lgan texnologiyalarni yaratish 1980 yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan.

1988 yilda Jeyms Uotson AQSH Milliy Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (NIH) Inson genomini tadqiq qilish milliy markazining rahbari bo'lib ishlagan. 1993 yildan bo'shlab Frensis Kollinz markaz rahbari sifatida faoliyat ko'rsatadi, va

1997 markazning nomi Inson Genomini tadqiqot qilish Milliy instituti -National Human Genome Resources Institute ga o'zgartirildi.

Mazkur 3 milliard dollarlik miqdordagi loyiha 1990 yilda AQSH Energetika vazirligi va Milliy Sog'liqni saqlash Instituti tomonidan ishga tushirildi, 15 yil davom etilishi rejalashtirilgan. Bu konsorsiumga AQSH idan tashqari, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya davlatlari qatnashgan. Keng masshtabdagi Xalqaro kooperasiya va genomika yo'nalishining sekvenirlash tadqiqot ishlari, shuningdek hisoblash texnologiyalari sohasidagi yutuqlar, genomning qoralama varianti 2000 yilda tugatilgan, AQSH ining shu davrdagi prezidenti Bill Klinton va Buyuk Britaniya premier ministri Toni Bler tomonidan 2000 yil 26 iyunda e'lon qilingan. Sekvenirlash ishlarini davom ettirish 2003 yilda olib borilgan ishlarning to'liq 2 yil oldin muvaffaqiyatli tamomlaganligi, 2006 yil may oyida " Nature " jurnalida loyihani yakunlash yo'lida yana bir muhim voqea bo'ldi, oxirgi xromosoma, 1- xromosoma ketma-ketligi to'g'risida e'lon qilinadi. Bugungi kunda inson genomining to'liq ketma-ketligi" to'g'risida ta'riflar mavjud. Ularga ko'ra, genom to'liq sekvenirlangan, boshqalariga ko'ra esa, hali ishlar davom etmoqda. Hozirgi kunda inson DNK zanjiridagi nukleotidlar qatorining navbatli ketma-ketligining tartibini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan sekvens ihlari yakunlanmoqda, sekvens ishlarining interpretasiyasi esa hali davom etadi. Bu ishlar yakun topganda inson genomining o'qish ishlari yakun topadi. Loyiha bo'yicha inson genomini sekvens asosida o'qish ishlari 2003 yilda tugatilgan, lekin bir qancha regionlar tugatilmagan hisoblanadi:

Birinchi navbatda xromosomalarning markaziy regionlari- sentromeralar singari ma'lum bo'lib, ularda DNK ketma-ketligining takrorlanuvchi qismlari juda ko'p uchraydi, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida sekvenirlash murakkab, bo'lib sentromeralar 1-10 million nukleotid juftliklariga ega bo'lib, ko'p qismlari sekvenirlanmagan.

- Ikkinchidan, xromosomalar uchi telomerlar deb ataladi, ular ham takrorlanuvchi nukleotidlardan iborat, shuning uchun 46 xromosomalarning

ko'pchiligida ular aniqlanmagan.

- Uchinchidan, har bir individuum genomida multigenli oilalar vakillariga ega bo'lgan bir qancha lokuslar mavjud, ularni hozirda mavjud bo'lgan DNK fragmentasiyasi uslubida aniqlash qiyin, bu genlar oilasi asosan immun tizim uchun muhim bo'lgan oqsillarni kodlaydi.

- Bu regionlardan tashqari genomda bir qancha - bo'shliqlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari yirik tuzilgan va aniqlash murakkab hisoblanadi.

DNK ning ko'p qismini tashkil qilgan va qolgan qismi takrorlanuvchi qismlar bo'lib, ularda genlar bo'lishi ehtimoli juda past, va hozirgacha aniq emas, sekvenirlash ishlari bu regionlarda davom etmoqda.

Maqsadi. Inson DNKsining ketma-ketligi Internet tarmogida har qanday foydalanuvchi uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazalarida saqlanadi. AQSH Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi (va uning Evropa va Yaponiyadagi sherik tashkilotlari) genom ketma-ketliklari GenBank deb nomlanuvchi ma'lumotlar bazasida, bugungi kunda aniqlangan va gipotetik genlar va oqsillar ketma-ketligi bilan birga saqlaydi. Boshqa tashkilotlar, masalan, Santa-Kruzdagi Kaliforniya universiteti va Ensembl ma'lumotlar bazalarida qo'shimcha ma'lumotlar, annotasiyalar hamda vizualizatsiya bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni qidirish uchun kuchli dastur vositalari qo'llab-quvvatlaydi. Ma'lumotlar tahlili uchun kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan, chunki bu dasturlarsiz ma'lumotlarni aniqlash juda murakkabdir. Genlarning chegarasini identifikatsiya qilish va DNK ketma-ketliklaridagi boshqa ketma-ketliklarini aniqlash genom annotasiyasi deb ataladi, bu soha bioinformatikagaga tegishlidir.

Ushbu jarayon kompyuterlar yordamida inson tomonidan amalga oshiriladi, lekin ular bu jarayonni juda sekin amalga oshiradi, genomlarning sekvenirlash jarayonini qisqa muddatlarda amalga oshirish maqsadida, maxsus kompyuter dasturlari ishlatiladi. Bugungu kunda annotatsiya texnologiyalari DNK ketma-ketliklari va inson tili asosida parallel olib boriladigan statistik modellarga asoslangan- informakada formal grammatika deb ataluvchi konsepsiyalari

ishlatiladi. "Inson genomi" loyihasining boshqa yana bir maqsadi- genom tadqiqotlarining etik, huquqiy va ijtimoiy asoratlarini tadqiqot qilish hisoblanadi.

Hamma insonlar qandaydir darajada noyob genom ketma-ketliklariga egadir. Shining uchun "Inson genomi" loyihasi nashr etgan ma'lumotlar aniq bir tanlab olingan insonga tegishli emasdir. Ma'lumotlar asosan ko'p bo'lmagan miqdordagi anonim donorlarning kombinirlangan genom ma'lumotlariga tegishli hisoblanadi. Olingan genom ketma-ketliklari individuumlar orasida genlarni aniqlash bo'yicha kelgusi ishlarda asos bo'lib xizmat qiladi. Asosiy ishlar asosan bir nukleotidlar polimorfizmini aniqlash tadqiqotlariga bag'ishlangan.

Loyiha o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga muddatdan ilgari erishdi. Genomning 95% sekvenirlash ishlarini aniqlash vazifa qilib qo'yilgan edi, tadqiqotchilar sayl harakati bilan genom DNK sining 99,9% sekvenirlandi.


Loyiha asosan AQSH hukumati tomonidan Sog'liqni Saqlash Milliy Instituti orqali va Buyuk Britaniya Wellcome Trust sahovat mehr-muruvvat jamiyati tomonidan Senger Institutini va dunyo bo'ylab boshqa guruhlarini moliyalashtirildi. Moliyalashtirish bir qancha sekvenirlash markazlariga taqsimot qilindi, bularga: Whitehead Instituti, Senger Instituti, Sent-Luisdagi Vashington Universiteti va Baylor Tibbiyot Kollejlari kiradi.

Tadqiqot ishlrda genom katta bo'lmagan uzunlikdagi qismlarga, 150 000 juft nukleotidlar uzunligida taqsimlanadi, keyinchalik bu qismlar vektorga ulanadi va BAC deb ataluvchi sun'iy recombinant bakterial xromosoma hosil qilingan. Bu bakteriyalar gen muxandisligi uslubida bakteriyalardan yaratilgan. Genlarga ega bo'lgan vektorlarni bakteriyalarga kiritilgan va replikasiya jarayonida genlardan nusxa ko'chirilgan. Genom har bir qismlari drobovik uslubida sekvenirlangan va olingan hamma ketma-ketliklar birgalikda kompyuter matnida terilgan. Natijada butun xromosomaning tuzilishini tiklash uchun to'plangan DNKning katta bo'laklarining kattaligi taxminan 150000 tayanch juftligini tashkil etgan. Ushbu tizim "ierarxik drobovik usuli" deb nomlanadi, chunki genom avval turli

o'lchamdagi bo'laklarga bo'linadi, ularning xromosomadagi o'rni oldindan ma'lum bo'lishi kerak.

Umumiy va xususiy loyihalar ma'lumotlarini taqqoslash

1998 yilda amerikalik tadqiqotchi Kreyg Venter va uning Celera Corporation xususiy firmasi xususiy moliyalashtirish asosida genom tadqiqotlari bo'yicha ishlarni olib borgan. 1990 yillarda Milliy Sog'liqni Saqlash Institutida ishlaydi va loyihaning asosiy maqsadi sifatida genom sekvenirlash ishlarini qulay, tez va arzon moliyalashtirishga qaratadi. Genom moliyalashtirish ishlariga 300 million dollar miqdoridagi loyiha asosida ish olib boradi. Celera kompaniyasi bakteriyalarning 6 million juft nukleotidlardan iborat bo'lgan uzunlikdagi genom ketma-ketliklarni aniqlashda qo'llaniladigan Drobovik uslubidan foydalanadi, ma'lumki inson genomi 3 milliard nukleotid ketma-ketligidan iborat. 2000 yilda genom tadqiqotlari e'lon qilingan bo'lsada, Celera kompaniyasi, "Inson genomi" loyihasida faoliyat ko'rsatgan olimlar o'z ishlarining batafsil ma'lumotlarini 2001 yilda e'lon qilishdi. «Nature» jurnalining maxsus sonida davlat tadqiqotlarining natijalari va «Science» jurnalida Celera kompaniyasining tadqiqot ishlari nashr qilindi. Bu ma'lumotlarda genom 83% tadqiqot ma'lumotlarining qoralama variantlari keltirilgan bo'lib, 90% euhromatin regionlarining 150 000 bo'shliqlari, va tugallanmagan segmentlarini o'z ichiga olgan. 2003 yildan 2005 yilgacha qoralama variantlarning qayta ishlangan namunalari keltirildi va genom 92% ning aniqlangan qismlari e'lon qilindi.



“Inson genomi”- aniq organizm DNK sekvensiga mo'ljallangan, eng mashxur xalqaro genom loyihasi hisoblanadi. Xozirgi kunda inson DNK sining ketma-ketligi to'g'risidagi bilimlar juda katta foyda keltirmoqda. Biologiya va tibbiyot sohida erishilgan yutuqlardan tashqari, turli xil organizmlar modelini –drozofila, Danio rerio, achitqilar, nematodalar, ayrim o'simliklar va ko'pgina mikroblar va parazitlarni genomini

sekvenirlash fan sohasida yangiliklar olib kelishi kutilmoqda.

2004 yilda “Inson genomi” Loyihasi, Inson genomini sekvenirlash bo'yicha Xalqaro Konsorium tadqiqotchilari (ingliz tilidan International Human Genome Sequencing Consortium- IHGSC), inson genomidagi genlar soni 20 dan 25 mingtagacha ekanligi to'g'risida ma'lumot berishdi. Bundan oldingi ma'lumotlarga ko'ra, 3 dan 40 mingtagacha, loyiha ish boshlashdan oldin 2 milliongacha degan ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Lekin hozirgi davrgacha bu sonlar o'zgarib turmoqda, va yaqin davrlargacha genlar soni to'g'risidagi ma'lumot aniq bir fikrga kelishi mumkin bo'lmaydi.

Xususiy loyiha tarixi. 1976 yila Uolter Firs va uning guruhi tomonidan Genta Universitetida (Gent, Belgiya) MS2 bakteriofagining- virus genomi to'liq aniqlandi. DNK ni fragmentlarga bo'lib aniqlash texnikasi - ingliz tilidan shotgun deb ataladi, DNK ning qisqa fragmentlari ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumotni genom rekonstruksiyasida ishlatilgan. Bu texnikani birinchi marta Senger Fi-X174 fagining genomini sekvenirlashda qo'llagan, 1977 yilda birinchi to'liq sekvenirlangan genom hisoblanadi. Texnika “shotgun sequencing” - drobovik uslubi deb atalgan, chunki genom ko'plab bo'lakchalarga bo'linadi. Uslubni keng miqyosda qo'llash uchun sekvenirlash va genom qayta yig'ish uchun uni avtomatlashtirish zaruriyati paydo bo'ldi va bu jarayon 1980 yilda amalga oshdi. 1995 yilda ushbu uslub birinchi 1,8 million juft nukleotidlardan iborat bo'lgan erkin yashovchi organism *Haemophilus influenzae* bakteriya genomiga, va 100 million juft asoslarga ega bo'lgan hayvon genomiga qo'llash mumkinligi ko'rsatildi. Usul avtomatlashtirilgan sekvensdan foydalanishni o'z ichiga oladi, bu esa uzunroq ketma-ketliklarni aniqlashga imkon beradi, o'sha paytda bir marta taxminan 500 ketma-ketlikka ega bo'lgan juftlik olingan. Taxminan 2000 juftlikdagi ketma-ketliklar ikki yo'nalishda "o'qildi", bu muhim elementlar bo'lib, ularning yaratilishi genomni yig'ish uchun va DNKning "contig" deb nomlanuvchi yirik mintaqalarini tiklash uchun zarur bo'lgan birinchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga olib keldi.

1998 yilda ushbu uslub Celera Corporation tomonidan inson genomini o'qish uchun qo'llanilla boshladi. Ushbu uslubni qo'llashda DNK ni 2 dan 300 mingga ega bo'lgan uzunlikdagi fragmentlarga bo'lish va "DNK kutubhomsini" tashkil qilishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik hosil qilingan 800 nukleotid qatorlariga ega bolgan fragmentlarni, har bir fragmentni ikki tomonidan avtomatik sekvenatorda o'qish amalga oshirilgan. Murakkab algoritm va superkompyuter yordamida, bo'laklar birlashtirilishi amalga oshirilgan va genom millionlab 800 nukleotid uzunligiga ega bo'lgan fragmentlardan rekonstruksiya qilingan.

Davlat va xususiy loyihalar yutuqlari yangi, yuqori avtomatlashtirilgan kapillyar DNK sekvenator *Applied Biosystems 3700* ga bog'liq bo'lgan. Ushbu sekvenator DNK zanjirlarini juda mayin ingichka kapillyar trubkadan o'tkazgan, eski sekvenator modellarida esa yassi gel ishlatilgan. Yana bir kritik omillardan biri hamma inson genomini sekvenirlash uchun, 30-50 milliongacha ketma- ketliklarni qayta ishlaydigan genom ma'lumotlarini yig'ish uchun yangi, mashtabli dastur, assembler zarurati paydo bo'ldi. Celera kompaniyasining katta masshtabli loyihalaridan biri xuddi shunday assemblerni yaratish bo'lib, genomlarni sekvenirlash uchun yuqori avtomatlashtirilgan katta fabrikasini yaratish bilan parallel ravishda olib bordi. Assemblerni ishlab chiqish Brayen Ramos rahbarligida olib borilib, assemblerning birinchi versiyasi 2000 yilda Celera kompaniyasi professor Djerald Rubin bilan kelishilgan holda, olib borildi va meva pashshasi *Drosophila melanogaster* genomi DNK sini fragmentlarga bo'lish uslubi orqali genom ketma-ketliklari o'qildi. Ushbu avtomatlashtirilgan uslub yordamida ular 130 million juft nukleotidlarni dastur orqali qayta ishladilar, va avvalgi ishlarga ko'ra 10 baravar ko'p ma'lumotlar yig'shga muvaffaq bo'lishdi. Bir yildan so'ng Celera Corporation inson genomining 3 milliard juft nukleotidga ega bo'lgan genom ma'lumotlarini e'lon qilishdi.

"Inson genomi" davlatlararo loyihasida, IHGSC tadqiqotchilari ko'pgina insonlardan donor sifatida ayollar qon namunalari va erkaklarning sperma namunalaridan genom izlanishlarida qo'llanilgan. Lekin olingan namunalardan

faqatgina ayrimlari DNK tadqiqotlarida ishlatilgan. Shunga ko'ra donorlar shaxsi anonim xolda saqlangan, xattoki olimlar donorlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishmagan. Umumiy loyiha ishlarida turli xil DNK kutubxonasining klonlari tadqiq qilingan. Bunday kutubxonalarning ko'pchiligi doktor Piter J. De Jong tomonidan tuzilgan. Norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, genetiklar jamiyatida davlat loyihasida DNK tadqiqotlari uchun Buffalo shahrida istiqomat qiluvchi erkak DNK si ishlatilgan- kodli nomi RP11. "Inson genomi" loyihasi tadqiqotchilari tanlanma asosda tanlangan 20 ta donor ichidan ikkita erkak va ikkita ayol donორlarning oq qon hujayralarini ishlatishgan, har bir donor DNK kutubxonasi uchun manba bo'lib qolgan. Kutubxonalardan RP11 donorining ma'lumotlari sifatii ko'rasatichlariga qarab ko'proq ishlatilgan. Albatta erkak sperma namunalarini ishlatishda, ularning DNK ma'lumotlarining yarmini saqlashini inobatga olish lozim, yani X va Y xromosomalardan olgan ma'lumotlar ahamiyatga ega bo'lgan, 22 autosomalarga nisbatan, har bir erkak spermatozoid bitta X va Y xromosomaga ega.

"Inson genomi" sekvenirlash fazasi tugagan bo'lsada, DNK ning o'zgaruvchanligi bo'yicha tadqiqotlar HapMap Xalqaro loyihasida davom etmoqda, bu loyihaning maqsadi bir nukleotidli polimorfizm SNP guruhlar strukturasi, boshqacha bunday guruhlar gaplotiplar deb ataladi, identifikasiyasi hisoblanadi.

HapMap loyihasi uchun umumii hisobda 270 insondan namuna olingan: Yoruba va Ibadan aholisi (Nigeriya), Yaponiya aholisi (Tokio), Xitoy aholisi (Pekin), va Centre d'Etude du Polymorphisms Humain (*CEPH*), fransuz manбайдan olingan bo'lib, ularga AQSH rezidensiyasidagi Shimoliy Evropadan kelib chiqqan aholi genom ma'lumotlari kiradi.

Celera Genomics kompaniyasi sekvenirlanish uchun 5 kishining DNK namunasi ishlatilgan. Kreyg Venter kompaniyaning asoschisi Celera kompaniyasi DNK namunalari sifatida 21 kishi donor namunasidan 5 kishinikini tanlab olingan va ular orasida o'zining DNK namunasi ham ishlatilganini e'lon qilgan.

Genom ma'lumotlarini talqin qilish bo'yicha ishlar hali boshlang'ich bosqichida bo'lib, inson genomiga oid batafsil ma'lumot tibbiyot va biotexnologiyalarning rivojlanishi uchun yangi istiqbollar kutilmoqda. Myriad Genetics kabi bir qator kompaniyalar turli kasalliklarga, shu jumladan ko'krak bezi saratoni, qon ivishining buzilishi, kista fibrozi, jigar kasalligiga moyilligini ko'rsatadigan genetik testlarni o'tkazishning oddiy usullarini taklif qila boshladilar. Shuningdek, inson genomi haqidagi ma'lumotlar saraton, Altsgeymer kasalligi va boshqa klinik ahamiyatga ega bo'lgan sabablarni qidirishda yordam berishi va kelajakda ularni davolashda katta yutuqlarga olib kelishi kutilmoqda.

Biologlar uchun ko'plab foydali natijalar ham kutilmoqda, masalan, saratonning ma'lum bir shaklini o'rganayotgan tadqiqotchi izlanishini bitta gengacha qisqartirishi mumkin. Onlayn genom ma'lumotlar bazasiga tashrif buyurib, ushbu tadqiqotchi boshqa olimlarning ushbu gen haqida nima yozganligini, shu jumladan gen uchun xarakterli bo'lgan oqsilining uch o'lchovli tuzilishi, uning funktsiyasi, boshqa inson genlari bilan evolyutsion aloqasi, sichqon, achitqi yoki Drosophila genlari bilan bog'liqligini tasdiqlashi mumkin. Zararli mutatsiyalar, boshqa genlar bilan o'zaro ta'sirlar, gen faollashgan tana to'qimalari, ushbu gen bilan bog'liq kasalliklar yoki boshqa ma'lumotlar tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqotlarda, turli xil organizmlarning DNK ketma-ketliklaridagi o'xshashliklar evolyutsiya nazariyasi bo'yicha, yangi ma'lumotlar bilan boyitishda, ko'pgina hollarda evolyutsiya masalalarini molekulyar biologiya muammolariga bog'lab o'rganish dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, ko'pgina evolyutsion muammolarni ribosomalar va organellalar paydo bo'lishi, umurtqalilarda embrion, immun tizim rivojlanishining molekulyar darajasini kuzatish mumkin. Bu muammolarning o'rganilishi insonlar va ularga yaqin sut emizuvchilar o'rtasida o'xshashliklarni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Inson genomi turli tumanligini aniqlash loyihasi ingliz tilidan Human Genome Differences Project- alohida o'tkazilayotgan loyiha bo'lib, etnik guruhlar o'rtasidagi DNK ketma-ketliklarini xaritalashga bag'ishlangan. Kelajakda HGDP

loyihasi bo'yicha olingan ma'lumotlar kasalliklarni nazorat qilishda, inson va antropologiya sohasida yangi ma'lumotlar olishda katta ahamiyatga ega. HGDP etnik guruhlarda alohida olingan kasalliklarga moyilligini aniqlashda va ularni davolashda yangi strategiyalarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Shuningdek, ushbu loyiha inson populyasilarining bu kasalliklarga adaptasiyasining o'tishini tushuntirishda yangi ma'lumotlar beradi. Inson genomini tadqiqot qilishning asosiy istiqbollari sekvenirlanish yangi avlodining uslublarini ochilishiga zamin yaratadi. Yangi uslublarning rivojlanishi natijasida genom sekvenirlanishining jarayoni soddalashtirildi va tezlashtirildi. Ushbu uslublar katta miqdordagi inson genomining -"1000 ta genom lohiyasi", bir nukleotidli polimorfizmlarni aniqlashda qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, yangi avlod sekvenirlanishi genom elementlarini xaritalash loyihasiga asos soldi- ENCODE, bu loyihada genlarning boshqaruvchi va boshqa ketma-ketliklarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:


1. *DNK azotli asoslarining modifikasiyalari DNK strukturasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
2. *DNK shikastlanishi qanday o'zgarishlarga olib keladi?*
3. *Xromosoma uchidagi strukturalar qanday ahamiyatga ega?*
4. *Oqsil kodlamaydigan ketma-ketliklar ahamiyatini tushuntirib bering?*
5. *Strukturaviy va boshqaruvchi oqsillar roli nimadan iborat?*
6. *DNK modifikasiyalovchi fermentlar guruhi tasnif bering?*
7. *Genetik rekombinasiya tushunchasi nimani anglatadi?*
8. *M-RNK lar rolini ochib bering?*
9. *Evolutsiya nuqtai-nazaridan RNK-genomlarining rolini tushuntirib bering?*
10. *DNK sekvensida qaysi olim uslubi keng qo'llaniladi v anima uchun?*
11. *Birinchi marta qaysi organism genomi to'liq ochib berilgan?*

12. Inson genomi loyihasining maqsadi qanday muammoga qaratilgan?

III. BOB. ZAMONAVIY BIOINFORMATIK MA'LUMOTLAR BAZALARI

Zamonaviy genom tadqiqotlarining o'ziga xos belgilaridan biri bu juda katta miqdordagi ketma-ketlik ma'lumotlarini yaratishdir. Genom ma'lumotlar hajmi o'sib borishi bilan, ma'lumotlarni boshqarish uchun murakkab hisoblash metodologiyasi talab qilinadi. Shunday qilib, genomika va bioinformatika oldida turgan birinchi vazifa - bu kompyuter ma'lumotlar bazalarini yaratish va ulardan foydalanish orqali keng hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va boshqarish tashkil qiladi.

Biologik ma'lumotlar bazasi - bu tizimda saqlanadigan ma'lumotlarning tarkibiy qismlarini yangilash, so'rash va yuklab olish uchun mo'ljallangan, kompyuterlashtirilgan dasturiy ta'minot bilan bog'langan jarayon hisoblanadi. Oddiy ma'lumotlar bazasi har xil ma'lumot to'plamini o'z ichiga olgan bitta fayl bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar bazasini rivojlantirishning asosiy maqsadi ma'lumotlarni oson qidirib topishga imkon beradigan tuzimli to'plamida ma'lumotlarni tashkil qilishdir. Misol uchun bir nechta mashhur ma'lumotlar bazalari: NCBI - Genotika Milliy Biotexnologiya Markazi, Shveytsariya Bioinformatika Institutidan-SwissProt va Protein Axborot Resursidan-PIR



28-rasm. Biologik ma'lumotlar bazalarining qisqa jamlanmasi

ma'lumotlar bazalarini keltirish mumkin (28-rasm).

Biologik ma'lumotlar bazalarining turlari. Ularning tarkibiga qarab biologik ma'lumotlar bazalarini taxminan ikki toifaga bo'lish mumkin:

1. Birlamchi ma'lumotlar bazalari: Birlamchi ma'lumotlar bazalari arxivlashgan ma'lumotlar bazasi deb ham ataladi. Ular nukleotidlar ketma-ketligi, oqsillar ketma-ketligi yoki makromolekulyar tuzilish kabi eksperimental ravishda olingan ma'lumotlar kabilar bilan to'ldirilgan. Eksperimental tadqiqot natijalari tadqiqotchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar bazasiga topshiriladi va bu ma'lumotlar arxivlanib boradi. Ma'lumotlar quyidagi bazalarga taqdim etiladi:

- EMBL, GenBank NCBI va DDBJ-nukleotidlar ketma-ketligi,
- Array Express Archive va GEO-funksional genomik ma'lumotlar,
- Protein ma'lumotlari banki -PDB; uch o'lchovli makromolekulyar tuzilmalar koordinatalari.

2. Ikkilamchi ma'lumotlar bazalari: Ikkilamchi ma'lumotlar bazalari dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ikkilamchi ma'lumotlar bazalari ko'pincha ko'plab manbalardan olingan ma'lumotlarga, shu jumladan boshqa ma'lumotlar bazalariga boshlang'ich va ikkinchi darajali ma'lumotlar bazalariga asoslanadi.

Ushbu bazalarga quyidagilar misol bo'ladi:

- InterPro- oqsil oilalari, motivlari va domenlari,
- UniProt ma'lumotlar bazasi- oqsillar to'g'risidagi ketma-ketlik va funksional ma'lumotlar
- Ensembl-genlar o'zgaruvchanligi, funktsiyasi, boshqarish funktsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar

Bundan tashqari ko'pgina ma'lumotlar manbalari ham birlamchi, ham ikkilamchi xususiyatlarga ega. Masalan, UniProt peptidlarni sekvenirlash tajribalarida olingan birlamchi ketma-ketlikni qabul qiladi. Shu bilan birga, UniProt peptidlar ketma-ketligini genom ma'lumotidan TrEMBL va SwissProt ma'lumotlar bazasidan oladi va tahlil qiladi.

Tarmoqlarda maxsus ma'lumotlar bazalari ham mavjud bo'lib, ular ma'lum tadqiqotlarga qiziqish uyg'otadi. Masalan, Flybase, OIVning ketma-ketliklari ma'lumotlar bazasi va ribosomal ma'lumotlar bazasi loyihasi ma'lum bir organizmda yoki ma'lum bir turdagi ma'lumotlarga ixtisoslashgan ma'lumotlar bazalari hisoblanadi.

Ma'lumotlar bazalarining ahamiyati ilm fanning rivojlanishidagi o'rni juda ham muhim.

- Ma'lumotlar bazalari ma'lumotlar ombori vazifasini bajaradi.
- Ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarni saqlash va boshqarish uchun turli xil qidirish mezonlari orqali ma'lumotni osongina olish va foydalanish imkonini beradi.
- Ikkilamchi ma'lumotlar bazalari so'nggi o'n yil ichida biologiya sohalarining ma'lumotlar kutubxonasiga aylandi va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan har qanday gen yoki gen mahsuloti to'g'risida juda ko'p ma'lumot olish imkonini beradi.
- Ko'plab foydalanuvchilarning bir xil ma'lumotlarda ishonchlilik darajasini oshirish va murakkab muammolar yechimini topishga yordam beradi.
- Ma'lumotlarni indekslash, identifikatsiyalashga imkon beradi.
- Xilma-xil ma'lumotlarning ko'payishini oldini olishga yordam beradi.

Zamonaviy nukleotid ma'lumotlar bazalari

Nukleotidlar ketma-ketligi bazalari-turlari va ahamiyati. Biologiya sohasi tobora ma'lumotlarga boy fanga aylanib borgan sari, katta ma'lumotlar to'plamlarini saqlash va ular bilan aloqa qilish zarurati tug'iladi. Aniq misollarga - bu nukleotidlarning ketma-ketligi, oqsillar ketma-ketligi va rentgen kristallografiyasi, makromolekulyar NMR markazi tomonidan ishlab chiqarilgan oqsillarning 3D tarkibiy va tuzilish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Nukleotidlar ketma-ketligidan tashkil topgan bunday ma'lumotlar bazalari nuklein kislotalari ketma-ketligining bazalari deb nomlanadi.

Nuklein kislotalari ketma-ketligini saqlaydigan va ommaga taqdim etadigan uchta asosiy ma'lumotlar bazasi mavjud: GenBank, NCBI, EMBL, DDBJ. Ular nukleotidlarning ketma-ketlik bazalari deb nomlanadi, chunki ular barcha nuklein kislotalari ketma-ketligining omboridir. Nukleotid ma'lumotlar bazasi GenBank, RefSeq, TPA va PDB kabi bir nechta bazalar to'plamidir. Genom, gen va transkripsiya ketma-ketligi ma'lumotlari biotibbiy tadqiqotlar va kashfiyot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

a. GenBank AQShda joylashgan bo'lib, NCBI portali orqali malaka oshiruvchilar foydalanishi mumkin. EMBL -Yevropa molekulyar biologiya laboratoriyasi Buyuk Britaniyada va DDJB -Yaponiyaning DNK ma'lumotlar bazasi, Yaponiyada joylashgan. Uchalasi ham nukleotidlar ketma-ketliklarini qabul qilishadi, so'ngra ular orasidagi optimal sinxronizatsiyaga erishish uchun har kuni yangi va yangilangan ma'lumotlarni almashadilar. Ushbu uchta ma'lumotlar bazasi asl ketma-ketlik ma'lumotiga ega bo'lganligi uchun birlamchi ma'lumotlar bazasiga birikadi -INSDC va ular Sequence Read Archive -SRA bilan hamkorlik qiladi, u yuqori o'tkazuvchanlikdagi ketma-ketliklaridan olingan ma'lumotlarni arxivlaydi. GenBankning ketma-ket ma'lumotlar bazasi ochiq foydalanish, barcha ommaga ma'lum bo'lgan nukleotidlarning izohli to'plami va ularning proteinli tarjimalaridan iborat. Ushbu ma'lumotlar bazasi nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi -INSDC bilan hamkorlik qilish doirasida Milliy biotexnologiya ma'lumotlari markazi -NCBI tomonidan ishlab chiqiladi va saqlanadi. Dunyo bo'ylab laboratoriyalarda 100000 dan ortiq alohida organizmlardan ishlab chiqariladigan ketma-ketliklarni jamlaydi. GenBank biologik sohalarda tadqiqotlar olib borish uchun muhim ma'lumotlar bazasiga aylandi va so'nggi 18 yilda har ikki oyda ikki baravar ko'payib, geometrik progressiv o'sdi.

b. EMBL (Yevropa molekulyar biologiya laboratoriyasi). Yevropa molekulyar biologiya laboratoriyasi-EMBL. Nukleotidlarning ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi - Yevropa bioinformatika institutida -EBI saqlanadigan birlamchi nukleotidlarning ketma-ket to'plamini saqlaydi. Ma'lumotlarni

genomlarni sekvenirlash markazlaridan, alohida olimlardan va patent idoralaridan oladi.

c. DDBJ-Yaponiya DNK ma'lumotlar banki. U Yaponiyaning Shizuoka prefekturasidagi Milliy Genetika Institutida -NIG joylashgan. Bu Osiyodagi yagona nukleotidlar ketma-ketligi ma'lumotlar banki hisoblanadi. Garchi DDBJ o'z ma'lumotlarini asosan yapon tadqiqotchilaridan qabul qilsa-da, u har qanday boshqa mamlakatlarning tadqiqotchilaridan ma'lumotlarni qabul qilishi va taqdim etishi mumkin.

Ko'pgina ikkilamchi ma'lumotlar bazalari shunchaki GenBank yoki EMBL kabi birlamchi ma'lumotlar bazalarining biridan yoki ikkinchisidan ajratib olingan kichik to'plamdir. Boshqa ikkilamchi ma'lumotlar bazalari ham mavjud bo'lib, ular hech qanday ketma-ketlikni taqdim etmaydilar, ularda ketma-ketliklarning ma'lumotlar bazalarida to'plangan ma'lumotlar mavjud.

a. Omniome ma'lumotlar bazasi: Omniome ma'lumotlar bazasi TIGR Genomik tadqiqotlar instituti tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan keng qamrovli mikrobial manbadir. U nafaqat har bir genom uchun o'rganib chiqilgan ketma-ketligi va izohiga ega, balki organizmlar, taksonlar DNK molekulalarining tuzilishi, tarkibi va DNK ketma-ketligidan bashorat qilingan boshqa protein tarkibi atributlari to'g'risidagi ma'lumotlarga egadir. Ushbu ma'lumotlar bazasiko'p genomli izlanishlar va tahlillar ishlarini osonlashtiradi, masalan, turli xil genomlardagi oqsillar va genlarning joylashish holatini taqqoslash ishlarida qo'llaniladi.

b. FlyBase ma'lumotlar bazasi: Konsorsium *D. Melanogaster* meva pashshasi misolida va uning barcha genomini yuqori to'liqlik va sifatga ko'ra ajratib beradi.

c. ACEDB: Bu nafaqat ketma-ketlikni, balki genetik xaritalar, shuningdek, *C. Elegans* nematoda qurti haqidagi fenotipik ma'lumotlarning ham omboridir.

DDBJ- ma'lumotlar bazasi-Yaponiya

DNA Data Bank Japan- Yaponiya DNK ma'lumotlar bazasi bo'lib, turli genlar va organizmlar bilan bog'liq nukleotid ketma-ketliklar haqida ma'lumotga

ega bo'lgan elektron resurslar bazasidir (29-rasm). DDBJ markazi INSDC a'zosi sifatida nukleotid natija ma'lumotlarini to'playdi.


DDBJ ma'lumotlar bazasining tashkillashtirilishi:

- 1980 EMBL ma'lumotlar kutubxonasi tashkil etildi va Yaponiya davlatidan nukleotid
- ma'lumotlar banki uchun xalqaro hamkorlikni so'radi.
- 1982 EMBL va GenBank xalqaro hamkorlikni boshladi, ma'lumotlar bankida ishtirok etish uchun Yaponiya davlatiga xamkorik taklif qilishdi.
- 1983 xalqaro ma'lumotlar banki uchun hissa qo'shish maqsadida nukleotid ma'lumotlarini to'plash, baholash va tajriba ma'lumotlarini yuklash boshlandi.

- 1984 NIG, Genetika Milliy instituti universitetlararo ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etildi. DDBJ NIG tarkibida ishlay boshladi.

29-rasm. DDBJ ma'lumotlar bazasi oynasining umumiy ko'rinishi.

- 1986 DNKning ma'lumotlar bazasi maslahat qo'mitasi tashkil etildi.
- 1987 DDBJ mustaqil bo'ldi va DDBJ ma'lumotlar bazasi operatsiyasining rasmiy boshlanishi deb hisoblanadi.



uchun, CIB axborot Biologiya markazi NIG tashkil etildi.

- 2001 CIB, CIB-DDBJ sifatida qayta tashkil etildi, Yaponiya axborot Biologiya va DNK ma'lumotlar banki markaziga aylandi.

• 1

99

5

D

D

BJ

nin

g

ya

na

da

sa

ma

ral

i

fao

liy

ati

- 2005 DDBJ, EMBL, GenBank o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kelishib yagona Xalqaro nukleotid ketma-ketlik ma'lumotlar bazasi-INSDC ni tashkil qilishdi.
- 2009 yilda DDBJ fakulteti xodimlari xizmati bilan DBCLS va DDBJ hamkorlik yanada kuchaygan.

DDBJ ma'lumotlar bazasi molekulayar biologiya yuzasidan boshqa ma'lumotlar bazasi bilan a'loqada xamkorik qiladi:

<i>DNK ma'lumotlar bazasi:</i>	^r DDBJ / EMBL / GenBank ^r MGA
<i>Proteinlar bazasi:</i>	* UniProt ^r PDB ^r DAD ^r Patent

U quyidagi xizmatlarni taqdim etadi (30-rasm):

1980-yillarning boshidan boshlab DDBJ nukleotidlar ketma-ketligi ma'lumotlar bazalaridan biri sifatida, shu jumladan Yevropada EMBL-Bank / EBI va AQShda GenBank / NCBI a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. 2005 yilda DDBJ, EMBL-Bank va GenBank o'zaro hamkorlikni INSDC deb atashni kelishdilar.



30-rasm. Nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasini yaratish uchun hamkorlik doirasi.

DDBJ, EMBL va GenBank tomonidan birgalikda boshqariladigan xalqaro ketma-ketlik ma'lumotlar bazalariga ma'lumotlarni taqdim etgan shaxslar quyidagilarni bilishlari kerak:

INSD o'zlarining ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan barcha gen annotasiyalariga bepul va cheklovsiz kirishning yagona siyosatiga ega. Dunyo miqyosidagi olimlar ushbu annotasiyalardan tajribalarni rejalashtirishda yoki tahlillarni nashr qilish uchun foydalanishlari mumkin. Ilmiy nashrlarni chop etishda ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, ilmiy izlanishlar asl nusxasini keltirish lozim bo'ladi.

INSD ma'lumotlariga kirishni cheklaydigan, ushbu annotasiya ma'lumotlardan foydalanishni cheklaydigan yoki ular asosida nashrlarning ayrim turlarini taqiqlangan annotasiyalarni o'tkazib bo'lmaydi. Xususan, foydalanish bo'yicha cheklovlar yoki litsenziyalash talablari ketma-ketlik ma'lumotlari annotasiyalarga kiritilmaydi va ma'lumotlar bazasini qayta taqsimlash yoki undan foydalanishda cheklovlar yoki litsenziyalash to'lovlari bo'lmaydi. INSD-ga taqdim etilgan barcha ma'lumotlar bazalari annotasiyalar ilmiy nashrlar bazasiga bog'langan bo'ladi. Xatolarni tuzatish va mualliflar tomonidan annotasiyalarning yangilanishi qabul qilinadi va noto'g'ri annotasiyalar bazaning keyingi nashridan olib tashlanishi mumkin, ammo barchasi kirish raqami orqali doimiy ravishda saqlanib qoladi. Taqdim etuvchilarga INSD tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan veb-saytlarda aks ettirilgan ma'lumotlar keng jamoatchilikka oshkor qilinishi tavsiya etiladi. Ma'lumotni topshirish huquqiga ega ekanliklarini aniqlash uchun yuboruvchilar javobgar hisoblanadi.

Cheklangan tahririyat nazorati va ba'zi ichki ekspert tekshiruvlaridan tashqari, masalan, INSD formatlaridan to'g'ri foydalanish va CDS yozuvlarida ko'rsatilgan kodlash hududlarining tarjimasi tekshirish o'tkaziladi, yozuvning sifati va aniqligi ma'lumotlar bazasi emas, balki taqdim etuvchi muallifning zimmasiga yuklanadi. Ma'lumotlar bazalari iloji boricha sifatli manbaga erishish uchun ma'lumotlar bazasi taqdim etuvchilari va foydalanuvchilari bilan ishlaydi.

DDBJ markazi rasman tadqiqotchilar tomonidan nukleotid ketma-ketliklar to'plash va ma'lumotlar jamlash uchun tasdiqlangan halqaro baza hisoblanadi. DDBJ markazi har kuni ENA/EBI va NCBI bilan chiqarilgan ma'lumotlarni almashtirganligi sababli, uchta ma'lumot markazi har qanday vaqtda deyarli bir xil ma'lumotlarni o'zaro almashadi. Deyarli yagona ma'lumotlar bazasi INSD deb ataladi. DDBJ asosan yapon tadqiqotchilari tomonidan natija ma'lumotlarni to'playdi, Yapon tadqiqotchilarining INSD ma'lumotlarining 99% DDBJ orqali taqdim etiladi. Patent arizalariga ko'ra tegishli nukleotid va aminokislotalar ketma-ketligi ma'lumotlarini taqdim etish:

INSD Yaponiya, Koreya, Yevropa va AQShda Patent idoralari tomonidan to'plangan patent- mualliflik ixtirolari ilovalar bilan bog'liq nukleotid natija ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. DDBJ markazi, shuningdek, Yaponiya va Koreyada patent idoralari tomonidan to'plangan patent ilovalar bilan bog'liq aminokislotalar natija ma'lumotlarni beradi.

EMBL-tadqiqot markazi va ma'lumotlar bazasi-Yevropa

EMBL-tadqiqot markazi va ma'lumotlar bazasi haqida umumiy ma'lumot. EMBL -1974 yilda tashkil topgan, tirik tabiat haqidagi fanlar bo'yicha Yevropaning yetakchi laboratoriyalari-molekulyar biologiya spektrlarini qamrab oluvchi 80 dan ortiq mustaqil tadqiqot guruhlariga bo'lgan hukumatlararo tashkilot(31-rasm) hisoblanadi. EMBL-tadqiqot markazi va ma'lumotlar bazasi oltita saytlar hamjihatligida ishlaydi: Heidelberg, Barselona, Gamburg, Grenobl, Rim va EMBL-EBI Xinxton.

Yevropa molekulyar biologiya laboratoriyasi -EMBL dunyodagi yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari va Yevropaning tirik tabiat haqidagi ilm-fan laboratoriyalari jamlanmalaridan biridir. EMBL Yevropa bo'ylab oltita markaz va uning saytlardan foydalanib ishlaydi:

1. Heidelberg, Germaniya* - asosiy laboratoriya;
2. Xinxton, Buyuk Britaniya* - Yevropa bioinformatika instituti (EMBL-EBI);

3. Grenobl, Fransiya* - struktur biologiya bo'yicha tadqiqotlar va xizmatlar;
4. Gamburg, Germaniya* - struktur biologiya bo'yicha tadqiqotlar va xizmatlar;
5. Rim, Italiya* - epigenetika va neyrobiologiya;
6. Barselona, Ispaniya* - to'qima biologiyasi va kasalliklarni modellashtirish.

EMBL boshqaruvi. EMBL - tirik tabiat bilan bog'liq bolgan fanlar bo'yicha fundamental tadqiqotlarga ixtisoslashgan hukumatlararo tashkilot bo'lib, 20 dan ortiq a'zo davlatlarning, shu jumladan, Yevropa va Isroilning, shuningdek, ikkita assotsiatsiyalashgan a'zo bo'lgan Argentina va Avstraliyaning jamoat tadqiqot markazlari tomonidan moliyalashtiriladi. EMBLni Bosh direktor, hozirda EMBL Kengashi tomonidan boshqaruvchi organ tomonidan tayinlangan professor Edit Xard boshqaradi. Kengash tarkibiga barcha a'zo va unga a'zo bo'lgan davlatlar vakillari kiradi. EMBL missiyasining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- molekulyar biologiyada asosiy tadqiqotlarni o'tkazish;
- o'rgatish, barcha darajadagi olimlar, talabalar va yangi a'zolarga, tirik tabiat haqidagi bilimlarni o'rgatish
- a'zo davlatlar olimlariga xizmatlarni taklif qilish, tirik tabiat bilan bog'liq bo'lgan hamma ma'lumotlar yuzasidan xizmat ko'rsatish
- yangi vositalar va usullarni ishlab chiqish;
- texnologiyalar transferida faol ishtirok etish;
- Yevropa ilmiy tadqiqotlarini birlashtirish, zamonaviy biologiya sohasidagi hamma ilmiy tadqiqot ishlarini birlashtirish

EMBL-dagi mavjud tadqiqotlar. EMBL-da olib borilgan tadqiqotlar biologik tashkilotlarning ko'p darajalarida, molekuladan organizmgacha, shuningdek,

hisoblash biologiyasi, bioinformatika va tizimlar biologiyasida eksperimental tahliliga urg'u beradi. Tadqiqotlar molekulyar biologiya spektrini qamrab oluvchi 80 dan ortiq mustaqil guruhlar tomonidan olib borilmoqda. EMBL xalqaro, innovatsion va fanlararo o'zaro hamkorlikni tashkil qilgan. Uning ko'pgina mamlakatlardan kelgan 1700 dan ortiq xodimlari bioinformatika, genomika, biologiya, fizika, kimyo va informatika fanlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy xizmatlar haqida. EMBL tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar quyidagilardan iborat:

- biomolekulyar ma'lumotlar bazalari va bioinformatika vositalari, xususan EMBL-EBI;
- Gamburg va Grenoblda struktura biologiyasi uchun texnologik jihozlar va yuqori o'tkazuvchanlik texnologiyalari bilan ta'minlash;
- o'rnatish yoki saqlash uchun qimmatga tushadigan yoki katta xarajatlarni talab qiladigan usullar va texnologiyalardan tejamkor va samarali usullardan foydalanishni ta'minlash.

EMBL-EBI Foydalanish shartlari.

1. EMBL-EBI vakolati bilan shaffof ravishda ilm-fanni tadqiqotlarini targ'ib qiladi, bu biologiya sohasidagi ilmiy tajribalardan olinadigan eng keng jamoatchilikka taqdim etiladigan ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan bepul onlayn xizmatlar, ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotni taqdim qilishni o'z ichiga oladi. Olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ma'lumotlar taqdim etilganda, taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanishga hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi.

2. EMBL-EBI ilg'or ilmiy amaliyotga muvofiq har qanday onlayn xizmatlar, ma'lumotlar bazalari yoki dasturiy ta'minotga kiritiladi va nashrlarda yoki mahsulotlarda aks ettirilishini talab qiladi. Kutilayotgan natijalar tegishli veb-sahifada ko'rsatiladi.

3. EMBL-EBI-ga uning onlayn-xizmatlarida taqdim etilgan har qanday ma'lumot maxfiy hisoblanmaydi.

4. Barcha ilmiy ma'lumotlar ma'lum vaqt oralig'ida saqlanadi va ma'lumotlar turiga mos ravishda taqdim etiladi, masalan kirish ma'lumotlari kirish qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan olimlar ma'lumotlari, ma'lum vaqtgacha nashr etishdan oldin taqiqlangan.

5. EMBL-EBI tomonidan saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlar qonun yoki sud tartibga soluvchi buyruq talab qilgan hollardagina alohida holatlarda oshkor etiladi. EMBL-EBI ma'lum bir dasturiy ta'minot yoki ma'lumotlar bazalaridan biron-bir shaxsning foydalanishi uchun jamoat tashkilotlariga taqdim qilishi mumkin.

6. OpenScience-dagi majburiyati saqlab qolgan holda, ushbu foydalanish shartlarini istalgan vaqtda yangilash huquqini saqlab qoladi. O'zgarishlar muqarrar bo'lgan taqdirda, veb-saytlarga xabar yuborish orqali har qanday o'zgarishlar to'g'risida oqilona xabar berishga harakat qiladi, va ushbu o'zgarishlarni veb-saytdan foydalanganda tekshirib ko'rish mumkin bo'ladi. Eng yangi qayta o'zgarishlar, 'EMBL-EBI foydalanish shartlari' sahifasida ko'rinadi.

7. Ushbu foydalanish shartlariga tegishli har qanday savol yoki izohga quyidagi manzilga murojaat qilish mumkin: Administrator, EMBL-EBI, Wellcome Trust Genome Campus, Hinxton CB10 1SD

Onlayn xizmatlar.

1. EMBL-EBI onlayn xizmatlaridan foydalanuvchilar EMBL-EBI kompyuterlari, fayllari yoki tarmoqlaridan tashqari xizmat ko'rsatish interfeyslaridan foydalanishga urinmaslikka kelishib olishgan.

2. EMBL-EBI veb-saytlari cookie-fayllardan ma'lumotlarni yozib olish uchun foydalanadi. Cookie fayllaridan foydalanishni boshqarish mumkin, lekin EMBL-EBI veb-saytlaridan cookie-fayllarni qabul qilinmasa, veb-saytning barcha xususiyatlaridan to'liq foydalana olish imkoni bo'lmaydi. Turli xil veb-brauzerlarda cookie fayllarini qanday boshqarish va EMBL-EBI va uchinchi tomon cookie fayllarining to'liq ro'yxati - <https://www.ebi.ac.uk/about/cookie-control/> da keltirilgan.

3. EMBL-EBI ushbu onlayn xizmatlarning uzluksizligini ta'minlash uchun

barcha imkoniyatlarni ishga solgan va har qanday o'zgarishlar yoki uzilishlar to'g'risida tegishli ogohlantirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, EMBL-EBI xizmat vaqtincha yoki doimiy to'xtab qolishining oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4. EMBL-EBI onlayn xizmatlaridan boshqalarga xizmat ko'rsatadigan EMBL-EBI ni oldini oladigan yoki oldini oladigan darajada foydalanishga har qanday urinish foydalanishni bloklashga olib keladi. EMBL-EBI foydalanuvchini ularning ehtiyojlarini va qanday qilib ularni boshqa manbalardan olish mumkinligini muhokama qilish uchun murojaat qiladi.

5. EMBL-EBI veb-sahifalarida ishlaydigan dastur har qanday shaxs tomonidan veb-sahifada alohida istisnolar ko'rsatilmagan hollardagina istalgan maqsadlarda foydalanilishi mumkin. EMBL-EBI-ning veb-sahifalari orqali(to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi tomon bazalari orqali) yuklab olish uchun taqdim etilgan har qanday dasturning shaxsiy litsenziya shartnomasi mavjuddir.

6. EMBL-EBI to'plangan ma'lumotlarning toifalari va ularni qayta ishlash usullarini hisobga olgan holda, zarur deb hisoblagan xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun tegishli texnik va tashkiliy choralarni amalga oshiradi.

Ma'lumot xizmatlari.

1. Veb-saytga ma'lumotlar bazasiga ilmiy ma'lumotlarni taqdim etilganda, bu ma'lumotlar bir vaqtning o'zida ilmiy ma'lumotlarga muvofiq tarzda chiqariladi va doimiy ravishda saqlashi mumkin.

2. EMBL-EBI o'zi, Internet-xizmatlari orqali mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish yoki tarqatish uchun hech qanday qo'shimcha cheklovlar qo'ymaydi.

3. EMBL-EBI taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligi, yaratilgan ma'lumotlar bazasi, dasturiy ta'minot yoki Internet-xizmatlarning aniqligi, shuningdek ma'lumotlar bazalari, dasturiy ta'minotlar va har qanday maqsadlar uchun onlayn xizmatlarning yaroqliligini kafolatlamaydi.

4. Dastlabki ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan talab qilinadigan huquqlarga, shu jumladan patent, mualliflik huquqi, boshqa intellektual mulk

huquqlari, biologik xilma-xillik bilan bog'liq foydalanish va imtiyozlarni baham ko'rish huquqlariga ega bo'lishi mumkin. EGA ma'lumotlar bazasi va biotibbiy tadqiqotlar uchun ruxsat berilgan inson ma'lumotlari uchun ushbu huquqlar Ma'lumotlarga kirish to'g'risidagi bitimlarda rasmiylashtirilishi mumkin. EMBL-EBI xizmatlaridan foydalanuvchilarning ma'lumotlardan foydalanish bunday uchinchi shaxslarning biron bir huquqlariga zarar etkazmasligini ta'minlash uchun javobgardir.

NCBI - ma'lumotlar bazasi -GenBank-AQSH



(<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/genbank/>)

NCBI-“Biotexnologik Ma'lumotlar Milliy Markazi” *National Center Biotechnology Information*, 1988 yilda AQSH da tashkil etilgan, Milliy tibbiyot kutubxonasining filiali sifatida- *National Library of Medicine* asosida yuzaga kelgan (32-rasm).

The screenshot shows the NCBI homepage with a navigation menu on the left, a central workflow diagram, and a right sidebar with links to various databases and news.

NCBI Bosh sahifasi

- Resurslar ro'yxati (AZ)
- Barcha manbalar
- Kimyoviy moddalar va bioassaylar
- Ma'lumot va dasturiy ta'minot
- DNK va RNK
- Domenlar va tuzilmalar
- Genlar va ifoda
- Genetika va tibbiyot
- Genomlar va xantalar
- Homologiya
- Adabiyot
- Proteinlar
- Seksiyani tahlil qilish
- Taksonomiya
- O'quv va qo'llanmalar
- O'zgarish

NCBI-ga xush kelibsiz

Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi biologik va genom ma'lumotiga kirishni ta'minlash orqali fan va sog'liqni saqlashni rivojlantiradi.

[NCBI haqida](#) | [Missiya](#) | [Tashkilot](#) | [NCBI yangiliklari va blogi](#)

Yuborish

Ma'lumot yoki qo'lyozmalarni NCBI ma'lumotlar bazasiga saqlash

Yuklab oling

NCBI ma'lumotlarini kompyuteringizga o'tkazing

O'rganing

Yordam hujjatlarini toping, darsga boring yoki darslarni tomosha qiling

Rivojlaning

Ilovalarni yaratish uchun NCBI API va kod kutubxonalaridan foydalaning

Tahlil qiling

Ma'lumotlaringizni tahlil qilish vazifasi uchun NCBI vositasini aniqlang

Izlanishlar

NCBI tadqiqotlari va hamkorlikdagi loyihalarni o'rganing

Ommabop manbalar

- PubMed
- Kutub javoni
- PubMed Central
- QARSHI
- Nukleotid
- Genom
- SNP
- Gen
- Protein
- PubChem

NCBI yangiliklari va blogi

- SARS-CoV-2 ma'lumotlarini tezkor burilish bilan tezkor etkazib berish 09 April 2020 yil
- 1-rasm. SARS-CoV-2 taqdimot ma'lumotlari bu anja GenBank unki
- 22 aprel NCBI-ning ALFA-dagi veb-seminari: variantlarni tahlil qilish va taqin qilish uchun allel chastotasi ma'lumotlari 08 aprel 2020 yil
- 2020 yil 22-aprel nihonchamha kuni anaf
- Keyingi RefSeq FTP raqami 200 tagscha o'tkaziladi 07 April 2020 yil
- Keyingi hashr uchun NCBI-ning Referat Sequence (RefSeq) raqamini 200 ra

[Ko'proq...](#)

32-rasm. NCBI ma'lumotlar bazasining asosiy oynasi.

U AQShning Vifetda, Merilend shtatidagi Sog'liqni Saqlash Milliy Institutida joylashgan. NCBIning asosiy maqsadi sog'lom va kasal organizmda o'tadigan molekulyar va genetik jarayonlarni keng tushunish uchun yangi informatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishdan iborat. Maxsus maqsadlariga: biologik ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni mashinali qayta ishlash yuqori texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarga bazalar ma'lumotiga va dasturiy ta'minotga kirishini osonlashtirish, butun jahon bo'yicha biotexnologik ma'lumotlarni yig'ish ishlarini olib borishdan iborat. Shuning uchun NCBI Genbank (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/genbank/>) tarmog'iga xizmat ko'rsatadi. GenBank - bu nuklein kislotalar genetik ketma-ketligining ma'lumotlar bazasi, asosan NCBI tomonidan boshqariladi, barcha ommaga ma'lum bo'lgan DNK ketma-ketliklarining sharhlangan to'plamidir (Nuklein kislotalar tadqiqotlari, 2013 yil yanvar; 41 (D1): D3642). GenBank Yaponiyaning DNK ma'lumotbazasi (DDBJ), Yevropadagi nukleotidlar arxivi (ENA) va NCBI-da GenBankni o'z ichiga olgan Xalqaro nukleotidlar ketma-ketligi ma'lumotlar bazasi bilan hamkorlikning bir qismidir.

NCBI bazasi quyidagi xizmat ko'rsatish resurslarini taqdim etadi:

- Mahalliy ketma-ketliklarni qidiruv vositasi (BLAST)
- BioProject (ilgari inson Genomi loyihasi)
- BioSistemalar
- BLAST (yakka tartibda)
- Konservativ domenlar ma'lumotlar bazasi (CDD)
- Bazada Saqlanadigan domenlarni qidirish xizmati (CD qidirish)
- Genomik tarkibiy o'zgarishlarning ma'lumotlar bazasi (dbVar)
- Genotiplar va fenotiplar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi (dbGaP)
- Single nukleotid Polimorphism Ma'lumotlar Bazasi (dbSNP)
- FTP: FASTA BLAST ma'lumotlar bazasi
- FTP: Genom xaritasi ma'lumotlari

- GenBank
- Genom BLAST
- Primer-BLAST
- PubMed
- Taksonomiya umumiy daraxti
- Vektorni tahrirlash vositasi (VAST)




INSDC - nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi




(<http://www.insdc.org>)

Nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi -INSDC. DNK, RNK va aminokislotalar ketma-ketligini 30 yillar mobaynida o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazalarini yig'ish va tarqatish bo'yicha kompleks sa'yl-harakatlarini boshqarishdan iborat (33-rasm). Biologik ma'lumotlar arxivlarining uzoq vaqtdan beri davom etayotgan global izlanishlardan biri, ommaviy nukleotidlarning ketma-ketligi haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, saqlaydi va kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

INSDCning uchta hamkori ma'lumotlar bazalariga ishonchli ma'lumotlarni topshirishga yordam beradigan va butun dunyo bo'ylab doimiy ravishda ma'lumot almashishni qo'llab-quvvatlaydigan ma'lumotlar, metadata va protokollarning formatlarini yaratish bo'yicha hamkorlikda ish olib boradi- BioSample dasturi yordamida:

**INSDC** International Nucleotide Sequence Database Collaboration

INSDC HAQIDA SIYOSAT ADVISORLAR HUUJATLAR



Nukleotidlarning ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi bilan hamkorlik

- Xalqaro nukleotid uzun bazasi hamkorlik (INSDC) o'rtasida uzoq turgan asosiy tashabbus bo'lib [almashishga](#) [tli](#) . [EMBL](#) . [Abu ostida](#) va [NCBI](#) . INSDC ma'lumotlar va eksperimental konfiguratsiyalarga oid kontekstual ma'lumotlar bilan boyitilgan, funktsional izohga o'tishlar va birikmalar orqali o'qiladigan ma'lumotlar spektrini qamrab oladi.

Ma'lumot turi	DDBJ	EMBL-EBI	NCBI
Keyingi avlod o'qiydi	Davrani o'qish arxivi	Evropa nukleotidi Anxv (ENA)	Davrani o'qish arxivi
Kapillyar o'qiydi	Izlar arxivi		Izlar arxivi
Izohlanmagan ketma-ketliklar	DDBJ		GenBank
Namunalar	BioSample		BioSample
Tadqiqotlar	BioProject		BioProject

- INSDC maslahat kengashi, [Xalqaro maslahat qo'mitasi](#) har bir ma'lumotlar bazasining maslahat organlarining a'zolaridan iborat. Xalqaro maslahat qo'mitasi chop [ggg'oz](#) INSDC ma'lumotlarni depozit hisobvarag'tga muhimligini yangi bir bor tasdiqlagan.
- Xalqaro ketma-ketlik ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni taqdim etgan shaxslar [INSDC siyosatidan](#) xabardor bo'lishi kerak

Ma'lumotni qanday yuborish kerak

- Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni qanday topshirish haqida to'liq ma'lumot olish uchun, iltimos, hamkorlikdagi sherikni tanlang.

33-rasm. INSDC-xalqaro ma'lumotlar bazasining asosiy oynasi ko'rinishi.

- Mishima shahridagi Milliy Genetika Institutida Yaponiya DNK ma'lumotlar banki (DDBJ; <http://www.ddbj.nig.ac.jp/>);


- Buyuk Britaniyaning Xinxton shahridagi Yevropa Molekulyar Biologiya Laboratoriyasining Yevropa Bioinformatika Instituti- EMBL-EBI; <http://www.ebi.ac.uk/ena>.

- AQShning Biotexnologiya Axborot Milliy Markazi- NCBI; <http://www.ncbi.nlm.nih.gov/genbank/>, Bethesda shtatida, MD, AQSh.

INSDC ma'lumotlariga bepul va cheklanmagan kirishning birgalikdagi yagona siyosatiga ega. Ushbu siyosatga binoan, INSDC har kuni nukleotidlar ketma-ketligi va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni to'playdi, saqlaydi, ta'minlaydi va almashadi.

INSDC xalqaro ma'lumotlar bazasida quyidagi yo'naltirilgan platformalari mavjud:

- Bioinformatika
- Biologik ma'lumotlar bazasi
- Yaponiya DNK ma'lumotlari banki
- Yevropa bioinformatika instituti
- Biologik ma'lumotlar bazalari ro'yxati
- Milliy Biotexnologiya Axborot markazi
- Sequence ma'lumotlar bazasi



INSDC xalqaro ma'lumotlar bazasida quyidagi bog'laniladigan URL platformalari mavjud:

- > Rasmiy veb-sayt
- > EMBL INSDC sayti
- > EMBL nukleotid bazasi
- > Yaponiya DNK ma'lumotlari banki
- > GenBank nukleotidini qidirish

INSDC xalqaro ma'lumotlar bazasida quyidagi hujjatlar platformalari mavjud:

- > INSDC tomonidan boshqariladigan so'z birikmalari

- › Genetik kod jadvallari*
- › INSDC holati to'g'risidagi hujjat
- › Genom to'plamini topshirish uchun INSDC standartlari
- › INSDSeq XML v1.5 dtd
- › INSDC Advisor jurnalining muharrirlariga ochiq xat
- › TPA topshirish bo'yicha ko'rsatmalar
- › INSDSeq XML holati
- › / inference qualifier lug'at bo'yicha tavsiyanoma
- › / eksperiment kvalifikatori lug'at bo'yicha tavsiyanoma
- › / Submitter_seqid kvalifikatori tavsiyalari to'g'risidagi hujjat
- › INSDC kelishilgan uslubiy kalit so'zlari

*Genetik kod jadvallari platformasidan ma'lumot (2016 yil tuzilgan):

Achitqi zamburug'i mitoxondriyasidan (transl_table = 3)

Aminokislotalar FFLSSSSYY **

CCWWTTTTPPPPHHQRRRRRIIMMTTTTNNKKSSRRVVVVAAAADDE

EGGGG

Boshlash kodlari ----- — ** ----- — MM ----- — -----

Baza1 TTTTTTTTTTTTTTTTCCCCCCCCCCCCCAAAAAAAAAAAAAA

AGGGGGGGGGGGGGGGGG

Baza2 TTTTCCCCAAAAGGGGTTTTCCCCAAAAGGGGTTTTCCCCAAA

AGGGGTTTTCCCCAAAAGGGG

Baza3 TCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAGTC

AGTCAGTCAGTCAGTCAGTCAG

Vaqt o'tishi bilan an'anaviy INSDC ketma-ketlik arxiviga kiritilgan nukleotidlar ketma-ketliklar sonining korrelyativ o'sishi kuzatildi. Jumladan, ommaviy ketma-ketlik ma'lumotlari-WGS hamda ommaviy bo'lmagan ya'ni Expressed Sequence Tag (EST), Genome Survey Sequence (GSS), Patent va Transkriptome Shotgun Assambleyasi (TSA) ketma-ketlik ma'lumotlari o'rin oladi. Keyinchalik (2013 yil) barcha ma'lumotlar BioSample dasturi yordamida

optimallashtirilib umumlashtirildi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, BioSample dasturi NCBI, DDBJ va EMBL ma'lumotlar bazasidan o'rin olgan.

Nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi bilan ishlash siyosati.

1. INSDC o'zlarining ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan barcha yozuvlarga bepul va cheklovsiz kirishning yagona siyosatiga ega. Dunyo miqyosidagi olimlar ushbu yozuvlarga eksperimentlarni rejalashtirish yoki har qanday tahlil yoki tanqidlarni nashr etish uchun kirishlari mumkin. Tegishli maqola, chop etilgan ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, olimlarning asl nusxalariga tayanib, asl taqdimnomaga tayanib beriladi.

2. INSDC ma'lumotlariga kirishni cheklaydigan, ushbu yozuvlardagi ma'lumotlardan foydalanishni cheklaydigan yoki ushbu yozuvlar asosida nashrlarning ayrim turlarini taqiqlaydigan yozuvlarga bayonnomalarni biriktirmaydi. Xususan, foydalanish bo'yicha cheklovlar yoki litsenziyalash talablari biron-bir ketma-ketlik ma'lumotlari yozuvlariga kiritilmaydi va hech kim tomonidan ma'lumotlar bazasini qayta taqsimlash yoki undan foydalanishda hech qanday cheklovlar yoki litsenzion to'lovlar bo'lmaydi.

3. INSDC-ma'lumotlar bazasiga taqdim etilgan barcha annotasiyalar ilmiy nashrlar sifatida doimiy ravishda ochiq bo'lib qoladi. Xatolarni tuzatish va mualliflar tomonidan yozuvlarning yangilanishi qabul qilinadi va noto'g'ri annotasiyalar bazaning keyingi nashrlaridan olib tashlanishi mumkin, ammo barchasi kirish raqami orqali doimiy ravishda saqlanib qoladi.

4. Taqdim etuvchilarga INSDC tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan veb-saytlarda aks ettirilgan ma'lumotlar keng jamoatchilikka oshkor qilinishi tavsiya etiladi. Ma'lumotni topshirish huquqiga ega ekanliklarini aniqlash uchun yuboruvchilar javobgar.

5. Tahririyat nazorati va ba'zi ichki tekshiruvlaridan tashqari (masalan, INSDC formatlaridan to'g'ri foydalanish va CDS yozuvlarida ko'rsatilgan kodlash hududlarining tarjimai tekshirilganda), ma'lumotning sifati va aniqligi ma'lumotlar bazasi emas, balki taqdim etuvchi muallifning zimmasidadir. Ma'lumotlar bazalari

iloi boricha sifatli manbaga erishish uchun ma'lumotlar bazasiga ma'lumot taqdim etuvchilari va foydalanuvchilari bilan doimiy a'loqada bo'ladi.

INSDC xalqaro ma'lumotlar bazasining maslahatchi qo'mitalari.

DDBJ maslahatchilari:

- Sumio Sugano, Tibbiyot fanlari instituti, Tokio universiteti
- Ken Kurokawa, Yer-hayot ilmiy instituti, Tokio texnologiya instituti
- Kaoru Fukami-Kobayashi, Bioresource ma'lumot bo'limi, RIKEN BioResource markazi

EMBL maslahatchilari:


- Antuan Danchin, AMABiotics SAS, Evri, Frantsiya va CEA ilmiy maslahatchisi, Frantsiya
- Babis Savakis, Krit universiteti va IMBB-FORTH, Iraklion
- Jan Vaysenbax, Genoskop, Evri
- Mark Blaxter, GenePool Genomics fondi va Edinburg universiteti, Evolyutsiya biologiyasi instituti

GenBank (NCBI) maslahatchilari:

- Stiven Salzberg, Djons Xopkins nomidagi tibbiyot maktabi, Baltimor, MD, AQSh
- Rich Roberts, Yangi Angliya Biolabs, Beverli, MA, AQSh
- Valeri de Kresi-Lagard, Florida universiteti, Geynvill, FL, AQSh

IV. BOB. ZAMONAVIY PROTEIN MA'LUMOTLAR BAZALARI. Protein bazalari turlari va ahamiyati.

Proteinlar bazasi oqsillar haqida bir yoki bir nechta ma'lumotlar to'plamidir. Ular tarkibiga oqsilning aminokislotalar ketma-ketligi, tuzilishi, shuningdek funktsiyalari kabi ma'lumotlar kiradi (34-rasm).



34- rasm. Protein tuzilishi ma'lumotlar bazasi jamlanmasi.

Protein ma'lumotlar bazalari turli xil gen bazalaridan DNK ketma-ketligini translyatsiya qilish orqali tuziladi va protein tarkibiy ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Ular muhim manba hisoblanadi, chunki oqsillar ko'p biologik funktsiyalarni bajaradi.

Protein ma'lumotlar bazalarining ahamiyati: Protein tuzilmalari, funktsiyalari va ayniqsa ketma-ketligi to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar olinmoqda. Ma'lumotlar bazalarini qidirish ko'pincha yangi oqsilni o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

Protein ma'lumotlar bazalari quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Proteinlar va oqsillar oilalari o'rtasidagi taqqoslash genom tarkibidagi yoki turli xil turlardagi oqsillar o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumot beradi va shu sababli faqat ajratib olingan oqsilni o'rganish orqali olinadigan ko'proq ma'lumotni taqdim etadi.

2. Eksperimental bazalardan olingan ikkilamchi ma'lumotlar bazalari ham

keng tarqalgan. Ushbu ma'lumotlar bazalari ma'lumotlarni qayta tashkil qiladi va izohlaydi yoki bashorat qiladi.

3. Ko'pgina ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ko'pincha tadqiqotchilarga oqsilning tuzilishi va funksiyasini tushunishga yordam beradi.

1. *Protein ma'lumotlar birlamchi bazalari: a. PRIMARY* - ma'lumotlar bazalarida eksperimental tadqiqotlar natijasida aniqlangan oqsillar ketma-ketligi mavjud, ular nukleotidlar ketma-ketligining kontseptual translyasiyasidan hosil qilingan. Kontseptual translyasiya, albatta, eksperimental ravishda olingan ma'lumotlarga kirmaydi, shuning uchun nukleotidlar ketma-ketligi ma'lumotlarini talqin qilinishi natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Protein ketma-ketligi bo'yicha bir qator boshlang'ich ma'lumotlar bazalari mavjud va ularning har biri alohida e'tibor talab qiladi.

b. Protein ma'lumot manbasi (PIR) - oqsillar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar bazasi (PIR-PSD): PIR-PSD PIR, MIPS (Protein Sequences uchun Myunxen axborot markazi, Germaniya) va JIPID (Yaponiya xalqaro oqsil ma'lumotlari bazasi, Yaponiya) o'rtasidagi hamkorlikdagi ma'lumot bazasidir. PIR-PSD ning o'ziga xos xususiyati shundaki, u super-oila tushunchasi asosida oqsillar ketma-ketligini tasniflaydi. PIR-PSD-da ketma-ketlik gomologiya domeni va ketma-ketliklar bo'yicha ham tasniflanadi. Gomologiya domenlari evolyutsion shajara bloklariga to'g'ri kelishi mumkin, ketma-ketliklar funktsional joylarni yoki saqlanib qolgan hududlarni anglatadi. Bunday tasniflash yondoshuvi funktsional-struktura munosabatlari ketma-ketligini to'liqroq tushunishga imkon beradi.

c. SWISS-PROT: Taniqli va keng ishlatiladigan proteinlar bazasi bu SWISS-PROT hisoblanadi. PIR-PSD singari, bu saralangan oqsillar ketma-ketligi bazasi hamda annotasiyalarning yuqori darajasini ta'minlaydi. Har bir tahrirdagi ma'lumotlarni alohida ma'lumotlar va annotasiyalar sifatida ko'rib chiqish mumkin. Asosiy ma'lumotlar umumiy bitta harfli aminokislotalar kodiga kiritilgan ketma-ketliklar va tegishli ma'lumot va bibliografiyadan iborat. Tahrirda oqsilning tuzilishi yoki funksiyalari, fosforillanish, asetilatsiya va boshqalar kabi post-

translatsional o'zgarishlar, tarkibiy sohalar, saytlar, kaltsiyni bog'laydigan hududlar, ATP-ulanish joylari, ruh barmoqlari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

d. TrEMBL (tarjima qilingan EMBL uchun) - bu SWISS-PROTga qo'shimcha sifatida chiqarilgan dasturga kiritilgan oqsillar ketma-ketligi ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Unda EMBL nukleotid ma'lumotlar bazasida to'liq tahrirlanmagan kodlash ketma-ketliklarining tarjimasi mavjud. Shunday qilib, ushbu ma'lumot bazasida hech qachon tahrirlanmagan va organizmda aniqlanmagan oqsillar ketma-ketligini o'z ichiga olishi mumkin.

e. Protein ma'lumotlar banki (PDB): PDB-oqsil tuzilishi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Ma'lumot bazasida yuqori molekulyar oqsillar biologik molekulalarning uch o'lchamli tuzilishi to'g'risida kristallografik ma'lumotlar bazasi. PDB nafaqat oqsillarning, balki nuklein kislotalar bo'laklari, RNK molekulalari, antibiotik gramitsidin kabi yirik peptidlar, oqsil va nuklein kislotalar komplekslarining uch o'lchamli tuzilishini ham arxivlaydi. Ma'lumotlar bazasida asosan uchta manbadan olingan ma'lumotlar mavjud: rentgen kristallografiyasi, tadqiqotchilar tajribalari va molekulyar modellashtirish.

2. Protein ma'lumotlar ikkilamchi bazalari: ularda birlamchi ma'lumotlar bazalarida joylashgan ketma-ketlikni chuqur tahlil qilish natijalarini ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina oqsillarning ikkinchi darajali ma'lumotlar bazalari turli xil oqsillarga tegishli xususiyatlarni izlash natijasidir. Ba'zi bir ishlatiladigan ketma-ketlik va tuzilishning ikkinchi darajali ma'lumotlar bazalari quyidagilar kiradi:

*a. MHC*Pep*:MHC*Pep** - bu 13000 dan ortiq peptid ketma-ketligidan tashkil topgan ma'lumotlar bazasi, bu immunitet tizimining asosiy gistomansublik kompleksi to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlaydi.

b. PROSIT: Bu birinchi ishlab chiqilgan ikkinchi ma'lumotlar bazasi. Undan foydalanib, yangi ketma-ketlik qidirilganda oqsillar oilasini osongina topishimiz mumkin. Shunday qilib, PROSIT tarkibida proteinlar domenlari, oilalar va funktsional joylarni tavsiflovchi hujjatlar yozuvlari, shuningdek ularni aniqlash

uchun bog'langan monomer va profillar mavjud.

c. *Profillar*. Profil ma'lumotlar bazasi ketma-ketlikni moslashtirishda muhim saqlanib qolgan hududlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

PDB - protein ma'lumotlari banki



Protein ma'lumotlari banki (PDB) 1971 yil oktyabr oyida PROTEIN DATA BANK Nature New Biologiyada Kembrij Kristallografik Ma'lumotlar Markazi, Buyuk Britaniya va Bruksaven Milliy Laboratoriyasi, AQShdagi qo'shma korxona sifatida e'lon qilindi. U eksperimental ravishda aniqlangan protein tarkibidagi barcha ma'lumotlarning markaziy arxivi sifatida tashkil etilgan. Bugungi kunda PDB xalqaro miqyosda Protein Ma'lumotlar Banki (WPPDB) nomi bilan tanilgan xalqaro konsorsium tomonidan yuritiladi. WWPPDBning vazifasi makromolekulyar tarkibiy ma'lumotlarning yagona arxivini yaratishdir.



35-rasm. PDB – protein ma'lumot bazasining boshqa bazalar bilan a'loqasi.

Ushbu veb saytga odatda rentgen kristallografiyasi, NMR spektroskopiyasi va krioelektron mikroskopiya usullari orqali olingan, dunyoning turli mamlakatlari biolog va kimyogarlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar kirishi mumkin (PDBe, PDBj, RCSB, va BMRB). PDB butun dunyo bo'ylab oqsil ma'lumotlari banki deb nomlangan tashkilot tomonidan nazorat qilinadi. PDB global arxivini yagonalashtirish maqsadida bir harakat PDBe (Buyuk Britaniya), PDBj (Yaponiya), va BMRB (AQSh) bazalari hamkorlikda ish olib borishadi (35-rasm).

PDB arxivi har hafta yangilanadi va ma'lumotlarni foydalanuvchilarga bepul taqdim etiladi. Taqdim etiladigan xizmat turlari ko'p jumladan:

- Kristallografik ma'lumotlar bazasi

- Protein tuzilishi
- Protein tarkibini bashorat qilish
- Protein tuzilishi ma'lumotlar bazasi
- PDBREPORT PDB tuzilishidagi barcha anomaliyalarni ko'rsatadi
- PDBsum - boshqa ma'lumotlar bazalaridan foydalanadi
- Proteopedia - bu molekulalarning 3D entsiklopediya tipida ko'rsatadi.

Protein ma'lumotlari banki (PDB) arxivi yirik biologik molekulalarning 3D tuzilmalari, shu jumladan oqsillar va nuklein kislotalar to'g'risidagi ma'lumotlarning dunyo miqyosidagi yagona omboridir. Omborda barcha organizmlarning, shu jumladan bakteriyalar, zamburug'lar, o'simliklar, umrtqasizlar, boshqa hayvonlar va odamlarda mavjud bo'lgan hayot molekulalari, molekulalar strukturalarining mayda oqsillar va DNK mayda bo'laklaridan tortib, murakkab molekulalarga qadar ma'lumotlari jamlanadi.

Metagenomikadagipangenomlar. Pangenomlar ko'p xollarda metagenomik tadqiqotlarda qo'llaniladi, ma'lum joyda istiqomat qiluvchi organizmlar tur va miqdoriy tarkibi sekvenlash uslubida aniqlanadi. Bu xollarda noan'anaviy pangenom qo'llaniladi: ya'ni bir xil kelib chiqishiga qarab emas, balkim bir vaqtda bir xil ekologik nishada (muxitda) birga yashaydigan organizmlar o'rtasida olib boriladi. Panegenomlarning qo'llanilishi aniq joyda yashaydigan umumiy tashqi muxit omillari ta'sirida bo'lgan umumiy adaptatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Metagnom tadqiqotlarida genomlar bo'yicha ma'lumotlar yig'ish ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Pangenomlarning tibbiyotda qo'llanilishi

Patogen mikroorganizmlar qoidaga ko'ra, genlarninig gorizontal ko'chirilishi orqali antibiotiklarga chidamli va infeksiyon genlarga ega bo'lishadi, shunga ko'ra

pangenom shakllantirish epidemiologik tadqiqotlarda xam qo'llanilishi mumkin. Patogen turi uchun variabel gen xajmini bilish juda katta ahamiyatga egadir, chunki u qanchalik katta xajmga ega bo'lsa, shunchalik genlami gorizontaldolda qabul qilish imkoniga ega bo'ladi, va patogen xolati yuqori bo'ladi. Periferiyaning o'lchami butun pangenomdagi universal genomning ulushiga qarab topiladi. Bunday xususiyat birinchi navbatda, tashqi muxitda yashovchanligi yuqori bo'lgan patogenlarda aniqlash katta ahamiyatga egadir. Chunki patogen antibiotiklarga chidamlilik darajasini tabiatdagi muxitdan o'zaro ta'sir orqali ega bo'lishi mumkin. Sibir kuydirgisi *Bacillus anthracis* tuproqda o'z faolligi saqlaydi, lekin yopiq pangenomga ega va universal genom ulushi 99%ni tashkil qiladi. Ushbu xususitya asosan sibir kuydirgisi tuproqda faol bo'lmagan sporalar shaklida saqlashi va shu xolatda boshqa tuproqdagi orgazmlar bilan genlar almashinuvini amalga oshira olmasligi orqali tushuntirish mumkin.

Boshqa tur [Legionella pneumophila](#) - inson patogeni bo'lib, amyobalar ichida yashash xususiyatiga egadir va ularda tashqarida xayot faoliyatiga ega bo'lmaydi. Lekin amyobaning ichidagi boshqa mikroorganizmlar bilan gentik ma'lumotni almashtirish xususiyatiga ega va ochiq pangenomga ega bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Pangenom nima?*
2. *Supragenom nima?*
3. *Pangenomning ochiq turi qanday bo'ladi?*
4. *Escherichia colida pangenomning qaysi turi mavjud?*
5. *Bakteriofaglar pangenomda qaysi jaroyonda ishtrok etadi?*
6. *Pangenomaning ta'rifi asosida uni necha guruhga bo'lish mumkin?*
7. *Gen taxrirlariga asoslangan usullarda maqsad nima?*
8. *Pfam qanday baza?*
9. *Panseq nima?*
10. *GenomeMapper qanday dastur?*
11. *Metagenomikadagi pangenomlar qanday ko'rinishda bo'ladi?*

12. *Periferiyaning o'lchami qanday topiladi?*

X. BOB. GEN ONTOLOGIYASI

Biologiyaning zamonaviy yo'nalishlari biotexnologiya, genlar injinerligi, genomika, bioinformatika kabi yo'nalishlarining rivojlanishi fanda yangi "gen ontologiya" terminining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Gen ontologiyasi predmetlariga mikroorganizmlar, o'simliklar, hayvonlar va inson genlari ularning mahsulotlari ma'lumotlar ba'zasi va ularning annotatsiyalari kiradi. Gen ontologiya loyihasi molekulyar va hujayra biologiyasida bir necha domenlarni ichiga oladi va genlar, gen mahsulotlari va ketma-ketliklar bo'yicha ma'lumotlarini tushunishda jamoatchilik foydalanishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Ko'pgina model organizmlarning ma'lumotlar ba'zalari va genom annotatsiyasi guruhlarini yaratishda gen ontologiyasidan foydalaniladi va ularning annotatsiyasida gen ontologiya manbalari o'rni beqiyosdir.

Konsortsium gen ontologiya - bu "*gen ontologiyasi*" loyihasida faol ishtirok etayotgan bir qator biologik ma'lumotlar ba'zalari va tadqiqot guruhlaridir. Bu turli xil model organizmlar uchun bir qancha ma'lumotlar ba'zalari, jami oqsillar ma'lumotlar ba'zasi, "*gen ontologiyasi*" dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar va muharrirlar guruhini o'z ichiga oladi. Gen ontologiyasi bioinformatika dasturlar bo'yicha loyiha bo'lib, barcha organizmlarning genlari va gen mahsulotlari standartlashtirilgan genetik ma'lumotlar ba'zalarini yig'ishga bag'ishlangan. Loyihaning maqsadi genlar va ularning mahsulotlari sifatlaridan birini aniq belgilangan ro'yxatini ma'lumotlar bazasiga joylash va yangilash; genlar va gen mahsulotlar uchun qo'shimcha annotatsiyalarni rasmiylashtirish; ortib borayotgan ma'lumotlar bazasi loyihasidan foydalanish uchun ma'lumotlar tarqatish. Gen ontologiyasi "*Ochiq biotibbiyot ontologiyasi*" deb nomlangan klassifikatsiyasi keng qamrovli qismi hisoblanadi. Gen ontologiya deganda murakkab biologik hodisalarni yuzaga kelishi tasvirlangan noma'lum bir biologik ob'ektlarni tushinish kerak. Ontologiya dunyodagi ob'ektlar va ular orasidagi munosabatlar to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida maxsus bilim yo'nalishlarini rasmiylashtirishda qo'llaniladi.¹ Biologiya va boshqa tegishli fanlar uchun universal namunaviy

terminologiya yetishmasligi yuzaga keldi. Terminlar bu qiyin muloqot qilish kabi tushunchalarni ifodalaydi, lekin ancha bir-biridan farq qilish gen ontologiya boshqariladigan so'zlar terminlardan tuzilgan.

Terminlar ontologiya nizomiga muvofiq uch yo'nalish molekulyar funktsiya, biologik jarayonlar va hujayra komponentlariga bo'linadi. Xar bir ontologiya biror gen yoki gen maxsulotlarini funktsional jixatdan hamda terminlar o'rtasidagi aloqalarni tasvirlaydi. Tartibga soluvchi aloqalar ikki quyi sinflari bor: ijobiy tartibga soluvchi va salbiy tartibga soluvchi.

Gen ontologiyada tez-tez yangi o'zgartirishlar bo'lib, atamalar yoki eskirgan ma'lumotlar olib tashlanadi. Agar terminlar ontologiyadan o'chirilgan bo'lsa belgilangan terminlar o'z kuchida qoladi lekin eskirgan yorliqlar va termin barcha aloqalari olib tashlanadi. Aloqalarni o'zgartirish annotatsiyalarga tasir qilmaydi chunki ularning gen ontologiyada joylashgan o'rniga emas balki annotatsiyalar o'ziga xos maxsus terminlarga yo'naltirilgan. Gen ontologiya loyihasi genlar funktsiyalarini kataloglashtirish uchun katta manba bo'ladi. Shunday bo'lsada undan hali hamma joyda foydalanilmaydi va hanuzgacha murakkabligicha qolmoqda.

Gen ontologiyasi 1998 yilda tadqiqotchilar konsortsium asosida uch model organizmlar *Drosophila melanogaster* (meva pashshasi), *Mus musculus* (sichqon) va *Saccharomyces cerevisiae* (non achitqisi) genomlari o'rganilib, ularni o'qilishi va genetik ma'lumotlar ba'zasi yaratilishi asosida tashkil etilgan. 1 So'ngra boshqa model organizmlar uchun ko'p ma'lumotlar ba'zasini shu tariqa ko'rish va ma'lumotlaridan foydalanish, qo'shimcha annatatsiyalar ba'zasini yaratishni kengaytirish, kabi jarayonlarda gen ontologiyasidan foydalanildi. O'simlik, xayvon va mikroorganizmlar eng asosiy genetik ma'lumotlar ba'zalari bu loyixaga xissa qo'shmoqda. 2008 yil yanvar xolatiga ko'ra, gen ontologiya dasturi turli xil biologik organizmlarda qo'llaniladigan 24.500 dan ortiq terminlarini o'z ichiga oladi. U ma'lumotlar gen ontologiyasini rivojlantirish va undan foydalanish bo'yicha adabiyotlarda muxim tayanch hisoblanadi, va u bioinformatika sohasida tegishli standart vositasi bo'lib kelgan. 2011 yil sentyabr xolatiga ko'ra, gen

ontologiyasi 360 ming dan ziyod tirik organizmlar uchun 33 mingdan ortiq terminlar va 12 million atrofida gen mahsulotlar annotatsiyasi mavjud.² So'nggi bir necha yil davomida, gen ontologiya konsortsium gen ontologiya sifati va spetsifik annotatsiya miqdorini oshirish uchun bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 2013 yilga kelib, annotatsiyalar soni 96 milliondan oshdi. Annotatsiya sifati avtomatlashtirilgan sifat nazorati yo'li bilan takomillashtirildi.

Gen ontologiya konsortsium so'nggi paytlarda biologik jarayonlarning bevosita kichik sinfi sifatida, yangi biologik bosqichini joriy etdi. Bu sinf biologik jarayonlar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan paytida alohida davri yoki bosqichini ifodalaydi. Ular shuningdek, boshqa biologik jarayonlar bilan tartibga solinadi. Biologik jarayonlar murakkab hodisalar bo'lib, organizmlar xayoti uchun zarur molekulyar funksiyalarni amalga oshirilishi demakdir. 1 Misol uchun turli biologik jarayonlar hujayra bo'linish sikli metafaza va profaza hamda xayz ko'rish payti, jinsiy hujayralarni qo'shilishi va rivojlanish bosqichi.

Gen ontologiya biologik jarayonida "bosqichlarni" ifodalash Gen ontologiyasi biologiyaning boshqa yo'nalishlari ya'ni, biotexnologiya, genlar injinerligi, genomika, bioinformatika, biokimyo, fiziologiya, proteomika kabi yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlarning mahsuli asosida yo'nalish sifatida yuzaga keldi.² Yuqorida ko'rsatilgan fanlar gen ontologiyasi ma'lumotlar bazasidan foydalanib kelmoqda. Biomeditsinada turli genetik kasalliklarni davolash, ularga tashxis qo'yish ishlarida gen ontologiyasi majmuiga kiruvchi inson genomi ma'lumotlar bazasidan keng foydalanilmoqda. Bulardan tashqari qishloq ho'jaligi mahsulotlarini genomlarini tadqiq qilib, yangi o'simlik navlari, hayvon zotlari yaratilishida, ularni maxsuldorligini oshirishda qo'llanilmoqda.

Mavzini mustahkamlash uchun savollar:

1. *Gen ontologiyasi nima?*
2. *Konsortsium gen ontologiya bu?*
3. *Gen ontologiyasi manbai nima?*

XI. BOB. EPIGENOMIKA HAQIDA TUSHUNCHA

Epigenomika - genetikaning bo'limi bo'lib, DNK va RNKning birlamchi keima-ketligida o'zgarish bo'lmasligi asosida irsiylanish va o'zgaruvchanlik mexanizmlarini o'rganadi.

Epigenetik regulatsiya - gen faolligini uning kodlanish ketma-ketligini o'zgartirmagan holda o'zgarishga olib keluvchi jarayon bo'lib, ushbu o'zgarishga sabab bo'lgan omil yo'qolgandan keyin ham stabil nasllanadi.

Bir genotipdan bir qancha hujayra fenotiplari hosil bo'ladi. Kapalaklarda (*Araschnia levana*) uchraydigan mavsumiy rang o'zgaruvchanligi rivojlanish sharoitini belgilaydi. YOki sichqonlarda DNK metillanishi bilan bog'liq bo'lgan to'mtoq dumlilik fenotipi shular jumlasiga kiradi.

Ona bolasini ko'krak suti bilan oziqlantirayotgan paytida olgan tashqi stressi bola katta bo'lgandan keyin unda yuzaga keladigan depressiya holatlari epigenetik o'zgarishlar bilan ifodalanadi.

Epigenetika va epigenomika sohalarini rivojlantirish uchun ENCODE (ENCyclopedia Of DNA Elements) loyihasi ma'lumotlarni muvofiqlashtirish markazi ishlab turibdi. 2006 yilda "Epigenetics", 2008 yilda "Epigenetics & Chromatin", kelajak meditsinasi sifatida 2009 yilda "Epigenomics" va "Clinical Epigenetics" ilmiy jurnallari chop etila boshladi.

Genning epigenetik saylensigida (o'chiq turishida) RNK interferentsiya, gistonlarning modifikatsiyasi va DNK metillanishi o'zaro ta'sirda bo'ladi.

DNKning metillanishi.

Sitozin va adeninning metillanishi DNK komplementar o'zaro bog'likligiga ta'sir ko'rsatmaydi, balki DNK spiralini stabillaydi va bir qancha oqsillar tomonidan taniladi. Ushbu nukleotidlarning metillanishi S-adenozilmetionin (SAM) (metil gruhi donori) ishtirokida "spontan" holda fermentlarning ishtirokisiz sodir bo'lishi mumkin. Hujayrada ko'p uchraydigan metillangan tsitozinning dezaminlanishi oqibatida timin hosil bo'lishi mutatsiyaga olib keladi va DNK

replikatsiyasi jarayonida keyingi avlodga o'tadi. Sitozinning "spontan" metallanishi SrG motivida ko'p sodir bo'ladi.

Ko'pchilik holatlarda metillanish hodisasi in vivo prokariot va eukariotlarda DNK-metiltransferaza (DNMT) fermenti ishtirokida amalga oshadi.

Yuksak umurtqalilarda quyidagi DNK-metiltransferazalar uchraydi:

1. Dnmt1 - qo'llab-quvvatlovchi metilaza replikasiya fokuslarida lokallashgan, DNKning 3'-yo'nalishida keng tarqalgan, de novo metilaza faolligini namoyon qila oladi, lekin DNKning yarimmetillanganligiga yaqinligi 1-2 tartibga yuqori. Bir necha xil izoformalari mavjud, shu jumladan somatik va ootsitspetsifik. Dnmt1 taqisligida quyidagicha yashovchan mutantlar bo'ladi: embrional letallik, global gipometillanish, imprintingni yo'qotish va boshqalar. DNKning regulyator domeni faol bo'linayotgan hujayralarning replikativ kompleksiga ushbu fermentni yetkazib berishni ta'minlaydi. Har xil oqsillar bilan bog'lana oladi (shu jumladan RNK ketma-ketligi bilan ham degan qarash mavjud):

- Gistondeatsetilazalar (HDAC) bilan.
- Transkripsiya repressorlari, o'sma supressorlari bilan (pRb, RP58).
- Ba'zi onkooqsillar genlari mahsulotlari bilan (PML-RAR).
- Xromatinni modifikatsiyalovchi, ya'ni fermentlar bilan kompleksdagi metillangan CpG ni (MeCP2/1, MBD2, MBD3) bog'lovchi oqsillar bilan assotsiatsiya qilishi mumkin.

2. Dnmt2 - RNK metilaza bo'lib chiqdi, ya'ni 2006 yilda bu ferment TRDMT1 (tRNA aspartic acid methyltransferase) deb qayta nomlandi. Asosan ba'zi bir transport RNKlarni metillaydi.

3. Dnmt3a - de novo metilaza. In vitro da yarim metillangan va metillanmagan DNKga bir xil faollikni namoyon qiladi (qo'llab-quvvatlash faolligi bo'lishi mumkin). Bu ferment mutantlarida postnatal letallik kuzatilishi mumkin.

4. Dnmt3b - de novo metilaza. Yarim metillangan va metillanmagan DNKga bir xil faollikni namoyon qiladi (mini - va mikrosatellitlarni afzal ko'radi). Bu ferment tsentromerning minisatellit takrorlanishlarini metillash uchun zarur.

Dnmt3b sintezining buzilishi kam uchraydigan ICF (Immunodeficiency, Centromeric instability, Facial anomalies) sindromiga olib keladi.

5. Dnmt3l fermenti boshqa DNMT-oqsillariga o'xshash, lekin o'zining katalitik faolligiga ega emas. Dnmt3a va Dnmt3b metilazalarini DNK bilan bog'lanishini va ularning faolligini kuchaytirib de novo qo'llab-quvvatlaydi. Dnmt3a va Dnmt3b metilazalari bilan bog'lanadi hamda gametogenez vaqtida imprintlarni aniqlanishida va imprint bo'lgan genlarning transkripsiyasini repressiya qilinishida ishtirok etadi. Bu ferment mutantlarida erkaklardagi sterillikka va gametalarda ikkala allellarda ham imprintlangan genlarning ekspressiyasiga olib keladi.

Metillanishning xolati xromatin strukturasi, bir qator ferment komplekslarining lokalizatsiyasi va faol qo'llanishi bilan aniqlanadi. Metillanish sistemasida kuzatiladigan defektlar, shu jumladan metillangan DNK bilan bog'lanuvchi oqsillarning faolligi, og'ir irsiy kasalliklarga olib keladi.

Metillanishdagi nosozlik bilan bog'liq bo'lgan ba'zi patologiyalar:

Kanserogenez

Kompleks nosozliklar:

- diabetning 2 turi.

Imprinting nosozligi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar:

- Beckwith-Wiedemann sindromi
- Silver Russel sindromi
- Prader-Willi sindromi
- Angelman sindromi

Neyrodegenerativ faoliyatning buzilishi:

- X-xromosomaning sinish sindromi
- ICF
- Retta sindromi.

Ko'pchilik eukariotlarning DNK-viruslarida DNKning metillanishi replikatsiyani ta'minlash uchun zarur bo'ladi. Frog virus 3 (FV3) DNKsi ma'lum

bo'lgan virus DNKlari ichida eng ko'p metillangani hisoblanadi (umumiy tsitozinning 20%ga yaqini metillangan). 5-azatsitidin (metilazalar ingibitori) zararlangan hujayralarda virus genlarining eksperessiyasiga ta'sir qilmaydi, lekin shakllanayotgan kapsidalarda DNKning to'liq bo'lmagan joylashishi kuzatiladi yoki kapsidalar umuman bo'sh bo'lib qoladi va natijada FV3 infektsiyalash mahsuloti 100 marta va undan ortiqqa kamayadi.

Zararlangan hujayralarning yadrolarida virus DNKsining SrG motivlarida hujayra DNMTlari ishtirokida de novo metillanish sodir bo'ladi va so'ngra metillangan DNK sitoplazmaga eksport qilinadi (Willis D.B., Granoff A. Virology 1980, Goorha R. Et al., Virology 1984, Schetter C. Et al. J.Virol. 1993).

Ko'pchilik viruslar infektsiyalash jarayonida xo'jayin-hujayra DNK-metiltransferazalarining ekspressiya darajasini oshishini stimullash qobiliyatiga ega (adenoviruslar, herpesviruslar, papilomaviruslar va boshqalar) (Hoelzer et al. NAR 2008).

Metillanishning statusi integrallashgan va replikatsiyalanuvchi formalar orasida ancha farq qilishi mumkin (Hoelzer et al. NAR 2008).

DNK metillanishining asosiy funksiyalari:

1. Xromatin strukturasini va xromosoma stabilligini qo'llab-quvvatlash.

- Takrorlanuvchi va integrallashgan begona ketma-ketliklarning saylensingi.
- Begona DNK transkripsiyasiga qarshi himoya mexanizmi (shu jumladan parazitik).

Shundan kelib chiqib, qoida bo'yicha, yuksak metillangan:

- Satellitlar va boshqa takrorlanuvchi ketma-ketliklar.
- Transpozonlar, provirus nusxalari.
- Geteroxromatinga xos bo'lgan ketma-ketliklar.

2. Genlar ekspressiyasini transkripsiya darajasida irsiylanmaydigan to'qimaga xos uzoq muddatli bosib turish.

- Ushbu tip hujayralarga xos bo'lgan ekspressiya profilini shakllanishi.

Shundan kelib chiqib, qoida bo'yicha, yuksak metillangan:

- Transkripsion faol bo'lmagan genlar (gametalarda - gametaga xos ekspressiyalanuvchilardan tashqari barcha genlar).

- Onkogenlar.
- Imprintlangan genlar.

Va qoidaga binoan, gipometillanganlar:

- Transkripsion faol genlar.

SHuni yodda saqlash lozimki, gen ekspressiyasi darajasiga metillanishning ta'siri doimo bir xil emas!

Umurtqalilarda DNKning normal metillanishi quyidagicha:

- SrG motividagi S odatda metillangan bo'ladi (50-90%, odatda 70-80%, katta yoshdagi insolarning hujayralarida taxminan 70%).

- SrG motividan tashqaridagi Sning metillanishi (embrional o'zak hujayralarida aniqlangan) kam ulushni tashkil qiladi (metilazaning "sakrashi" natijasida bo'lishi mumkin).

Metillangan SrG motivlar yakka bo'lishi mumkin (umumiy tarkibning 80%ida, ko'pincha intronlarda, kam hollarda to'qimaga xos genlarning promotorlarida va bu holat keng miqyosda farqlanishi mumkin). YOki SrG orolchalar deb nomlanuvchi qismlarda to'planishi mumkin (odamda 45000 ga yaqin SrG orolchalar mavjud).

SrG orolchalarning xususiyatlari:

- 60% genlarda mavjud, shu jumladan "uy xo'jaligi" genlarining hammasida.
- >200 j.n., ko'pchiliklarining uzunligi - 0.5-3 m.j.n.
- Nisbatan yuqori GS-tarkibli (>50%, odatda >60%), Sr motivning jips joylashishi (10 f.n.ga bitta, genomning o'rtachasiga qaraganda 10-20 barobar ko'p) va uning statistik uchrashi (statistik 0.5 dan ko'p).

- Nukleosomalardagi N1 giston miqdori kamayadi, gistonlar yuqori atsetillangan bo'ladi.

- Qoidaga ko'ra SSGSSS motiviga ega (SP1 transkripsion faktorini bog'lanish saytlari).

Metillangan DNKning biologik funksiyalari:

- Genom imprintingi
- X-xromosomalamining inaktivatsiyasi
- Xromatin strukturalarining regulyatsiyasi
- Gen ekspressiyasining regulyatsiyasi
- DNK replikatsiyasi
- Kantserogenez
- Hujayra differentsirovkasi
- Transgenlarning o'chirilishi ("silencing").

Genom imprintingi - genetik fenomen bo'lib, ma'lum genlar faqat otadan, boshqalari esa onadan o'tgan allellardan ekspressiya bo'lishidir. Insonda kamida 80ta gen genom imprintingiga uchragan.

Sut emizuvchilar va o'simliklarda imprinting alohida genlarda uchrasa, hasharotlar va zamburug'larda imprinting bir butun xromosomalarda uchrashi ko'rsatilgan.

Keyingi yillarda NGS yordamida sut emizuvchilarning genomlarida 1000dan ortiq imprintlangan lokuslar, asosan miyada, aniqlangan.

Gistonlarning modifikatsiyasi

Ma'lumki nukleosomalar oktamer bo'lib kompakt joylashgan gistonlardan, ya'ni 2 molekuladan iborat H2A, H2B, H3 va H4 oqsil molekulalarini tashqi tomonidan DNK zanjiri 1,75 marta o'rashi hisobiga hosil bo'ladi va DNK zanjiri o'rami ustida H1 oqsili joylashadi.

Nukleosomalar evolyutsion takomillashib borganligini yuqoridagi slayddan ko'rish mumkin. Arxeal bakteriyalarda A va B gistonlari keyinchalik "ikkilangan" holga kelishi va ularning takomillashuvi asosida eukariotik tetramer so'ngra oktamer gistonlar hosil bo'lganligini ko'rish mumkin. Gistonlar strukturasidagi aminokislotalar soniga, giston hosil qiluvchi domenlarning katta kichikligiga, N - va C-tomonlariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Gistonlar aminokislotalarining ketma-ketligi H4 gistonida yuqori konservativlikka ega bo'lsa H2B gistonida bu ko'rsatkich ancha pastligini ko'rish mumkin. DNK va gistonlar o'rtasida 14 xildagi o'zaro ta'sir yuz berar ekan.

Genomda nukleosomalardan xoli bo'lgan joylar (uchastkalar) mavjuddir. Bu joylarda transkripsiya uchun faol, transkripsiya faktorlarini bog'lash saytlari va regulyator oqsillar joylashgan. Yana genomda shunday joylar borki, ularda nukleosomalarning joylashishi qat'iy belgilangan. Genlarda +1 nukleosomaning bo'lishi quyidagicha belgilanadi, ya'ni achitqi zamburug'larda +1 nukleotiddan, umurtqalilarda +60 nukleotiddan iboratdir. Genomdagi nukleosoma o'rami joylari xromatinning remodelingi uchun ATFGa muxtoj oqsillar regulyatsiyasiga uchraydi.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, gistonlar o'zlarining N-tomonlari bilan post-tranlyatsion modifikatsiyaga uchraydi. Bunda asosan, lizinning atsetillanishi, lizin va argininning metillanishi, serin va treoninning fosforlanishi, lizinning ubikvitinlanishi, ADF ribozillanish va sumoillanish kabi jarayonlar yuz beradi.

Ubikvitin (ingl. *Ubiquitous* - *hamma yerda uchrovchi*) - katta bo'lmagan konservativ oqsil bo'lib eukariotlarda oqsillarga birikib oladi. Ubikvitinlanish - bu nishon-oqsilning yon aminoguruhlariga bitta yoki bir nechta ubikvitin monomerlarini ubikvitin-ligaza fermentlari ishtirokida kovalent bog'lar yordamida posttranslyatsion birikishidir. Ubikvitinning birikishi oqsillarning hujayra ichki lokalizatsiyasi va funksiyasiga ta'sir qiladi. Ubikvitin tizimi eng ahamiyatli bo'lgan jarayonlardan bo'lmish proliferatsiyalanish, hujayraning rivojlanishi va differentsirovkasi, patogen va stresslarga javob berish reaksiyasi hamda DNK reparatsiyasi kabilarda ishtirok etadi.

Sumoillanish (ingl. *sumoylation* - *small ubiquitin-related modifier* - kichik ubikvitinga o'xshash modifikator) - oqsilning S-tomonida joylashgan epsilonaminoguruh lizinni ubikvitin tizimi komponenti bo'lgan SUMO oqsili bilan kovalent bog'lanishi natijasidagi posttranslyatsion modifikatsiyasi jarayonidir.

Oqsillarning sumoillanishi hujayradagi har xil jarayonlarga shu jumladan genlar ekspressiyasini boshqarish, mitoz va apoptoz jarayonlariga ta'sir qiladi.

Demak "Giston kodi"ning ishlash prinsipi quyidagicha: gistondagi aminokislota qoldig'ini modifikator-ferment yuqorida keltirilgan misollarga monand o'zgartiradi va bu o'zgarishni giston oqsili "qabul qiladi". Natijada hujayradagi jarayonlarga ta'sir qiluvchi funktsiya amalga oshadi. Jumladan, rasmda keltirilganidek, N3 va N4 gistonlaridagi modifikatsiyalar transkripsiyani boshqarishga yoki DNK reparatsiyasiga ta'sir qiladi.

"Giston kodi" nasldan naslga irsiylanadi. DNK replikatsiyasida nukleosomalar dimerlarga ajraladi va yana yangi sintezlangan DNKga yig'iladi. Yangi sintezlangan gistonlar "eski"larining sxemasi bo'yicha modifikatsiyalanadi.

RNK interferentsiyasi.

RNklar to'g'risidagi bizning bilimimiz suv ustidagi aysbergni kichik bir bo'lagini eslatadi, lekin aysbergning suv osti qismi juda ulkandir. Biz RNklar to'g'risida hozirgi kungacha umumiy bilimlarga ega edik. Asosan i-RNK, r-RNK va t-RNKlarni bilamiz. Fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan yangi-yangi RNK molekulalari kashf qilinmoqda. Quyidagi sxemada RNklarning hozirgi kundagi klassifikatsiyasi berilgan.

Demak, RNklar 2 tipga, ya'ni oqsil sintezi uchun kodlanuvchi va kodlanmaydigan RNklarga bo'linadi. Kodlanadigan RNK tipiga i-RNK kiradi. Kodlanmaydigan RNklarga transkripsion RNklar (r-RNK va t-RNK) va kichik RNklar mansubdir. Kichik RNklarga quyidagilar kiradi:

- Kichik interferlanuvchi RNK (siRNA);
- Mikro-RNK (miRNA);
- Kichik yadroviy RNK (snRNA);
- Kichik yadrochaga xos RNK (snoRNA).

ENCODE (DNK elementlari entsiklopediyasi) loyihasiga binoan 147 xil hujayra tiplari genomlari va transkriptomlari o'rganilgan. Inson genomining taxminan 80%i biokimyoviy faol va DNKning 76%i RNKga transkripsiya bo'lishi

aniqlangan. Kichik RNKlarning 8800 “gen”lari va kodlanmaydigan uzun ketma-ketlikka ega bo’lgan 9600 RNKlar aniqlandi. SHu jumladan, genlar faolligini regulatsiya qilishda ishtirok etuvchi ko’plab yangi RNKlar aniqlandi.

Kichik yadroviy RNKlar (snRNA) hujayra yadrosida joylashgan va ribonuklein oqsillar bilan bog’langan. Ularnig razmeri 90-300 nukleotiddan iborat bo’lib tarkibida ko’p miqdorda “U” nukleotidi bo’ladi. Bu RNKlarni RNK-polimeraza II va III bilan transkripsiyalanadi va 5’-tomonda trimetillangan kepni hosil qiladi. Kichik yadroviy RNKlar pre-m-RNK protsessingidasplaysosoma hosil qilib ishtirok etadilar. Politsistron mRNKlarni parchalaydi, telomer butunligini qo’llab-quvvatlaydi va transkripsiyani boshqaradi.

Mikro-RNKlar (miRNA) kichik razmenga ega bo’lib taxminan 22 nukleotiddan iborat bo’ladi. Genomning kodlanmaydigan DNK ketma-ketliklarida, shu jumladan intronlarda joylashgan bo’ladi. Ular barcha ko’p hujayralilarda aniqlangan. Nishon-genlar ekspressiyasini repressiya qiladi va 3’-UTR bilan bog’lanadi, odatda bu bog’lar to’liq bo’lmaydi.

Mikro-RNKlar birlamchi, ya’ni ko’plab halqa ko’rinishidagi invertlangan takrorlari bo’lgan katta transkriptlardan hosil bo’ladi. Odamning barcha genlarining 1-5% miRNA genidir. Ular strukturali genlarning 30%ini boshqaradi. Mikro-RNKlarning hosil bo’lishi quyidagicha: DNKdan RNK Pol II fermenti yordamida transkripsiya bo’ladi. So’ngra RNKaza III Drosha fermenti ta’sirida kesiladi. Exportin 5 faktori yordamida yadrodan eksport qilinadi. Unga qo’shimcha ravishda Dicer fermenti bilan qo’shimcha kesilib miRNA ga aylanadi. Qo’sh zanjirli RNK RISC (RNK induktsiyalagan silencing kompleksi) bilan bog’lanadi va zanjirlarning biri ajrab ketadi. Qolgan kompleks mRNK bilan bog’lanadi. Rasmda RNK - interferentsiya yordamida genning faoliyatini psaytirish sxemasi berilgan.

Kichik interferlanuvchi RNKlar (siRNA) genomga kiritilgan fermentlarning genini ekspressiyasini kamaytiradi va natijada ularning faolligi pasayadi. Kichik interferlanuvchi RNKlar mRNKni degradatsiyaga olib kelishi genning faolligini postranslyatsion ingibirlanish mexanizmi bo’yicha kamaytiradi.

Kichik xalqa hosil qiluvchi RNKlar yordamida RNK interferentsiyasini fanda va meditsinada qo'llanilishi quyidagi rasmda keltirilgan.

Shunday qilib, epigenetik belgilarni meyozi va zigota bosqichidan olib o'tuvchi bir qancha mexanizmlar mavjudligini xulosa qilish mumkin.

Laboratoriya hayvonlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir qancha belgilarni ajdoddan avlodga o'tishida tashqi muhit ta'siri va ovqat ratsioni katta rol o'ynashi aniqlangan. Bunda hayvonlarning genomida mutatsiya bo'lmasdan balki epigenetik o'zgarishlar sabab bo'lgan.

Quyidagi rasmda homilador ayol bola rivojlanishining ilk bosqichidan boshlab spirtli ichimliklar iste'mol qilishi bola epigenomini o'zgarishiga olib kelishi va majruh FASD sindomli farzand tug'ilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bunda albatta DNK-metillanishi, gistonlarning modifikatsiyalanishi va RNK-interferentsiyasi jarayonlari normal holda o'tmasligi sabab bo'lishi mumkin.

Tashqi faktorlarning doimiy ravishda ta'sir qilib turishi keyingi bir nechta avlodlarda adaptatsiyalangan belgini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zgarishlarni quyidagi sxema yordamida tushuntirish mumkin.

Shunday qilib, bugungi kun fani genlar tiliga yoki epigenetik tilga o'tmoqda va bu kelajakda ko'plab genomdagi o'zgarishlarga javob berishi mumkin.

Genomni taxrir qilishning usul va texnologiyalarini ishlab chiqishdan maqsad quyida keltirilgan zamonaviy biotexnologiya va biomeditsinaning dolzarb vazifalarining yechimini topishdir:

1. Qishloq xo'jaligida qimmatli belgi va xususiyatlarga (hosildorlik, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga, zararkunanda va patogenlarga qarshi chidamlilik) ega bo'lgan yangi o'simlik navlarini va hayvonlar zotlarini yaratish;

2. Inson kasalliklarini tadqiq qilish uchun mutant model hayvonlarni olish;

3. Genoterapiya usullarini ishlab chiqish, o'stirilayotgan inson o'zak hujayralaridagi genetik mutatsiyalarni to'g'rilash;

4. Yangi dori vositalarini izlashda va klinika oldi tadqiqotlarini o'tkazayotganda hujayra modellarini yaratish va boshqa amaliyotlarda

foydalanishga qaratilgandir.

Hozirgi kungacha genomni taxrir qilish uchun quyidagi tizimlar sayt-spetsifik nukleazalar yordamida ishlab chiqilgan:

1. “Ruxli barmoqlar” usuli.
2. TALEN usuli.
3. CRISPR usuli.

“Ruxli barmoqlar” usuli. “Ruxli barmoqlar” usuli - Zink finger nucleases (ZFN) fermentlari asosida ishlab chiqilgan. Bu nukleazalar metalloferment bo’lib o’z tarkibida Zn^{2+} atomini tutgandir. Ularga misol qilib FokI nukleazasini keltirish mumkin. Ushbu oqsilning alfa spirali 3 o’ramdan iborat bo’lib, har bir o’ram DNK molekulasidagi spetsifik 3 nukleotid bilan bog’lanuvchi 3 rux barmoqdan iborat domenga ega. Natijada fermentning alfa spirali DNK molekulasining ma’lum spetsifik saytlarini taniydi va bog’lanadi. Nukleazaning faol markazi DNK zanjirini kesadi. Ushbu kesilgan DNK saytiga nishon genni yoki uning modifikatsiyasini kiritish mumkin.

Bu usul bilan ham yuqorida sanab o’tilgan zamonaviy biotexnologiyaning vazifalarini bajarishda foydalanish mumkin.

Quyida keltirilgan rasmlarda “Ruxli barmoqlar” va DNK zanjirini bir-biriga bog’lanishi sxematik ravishda ko’rsatilgan.

“Ruxli barmoqlar” tizimining va faoliyatining bir qator kamchiliklari mavjud. Jumladan, DNK molekulasidagi 3 nukleotidli takrorlanishlarni tanish o’ta aniqlikda emasligidir, ya’ni DNK zanjirida “maqsadga muvofiq bo’lmagan” nukleotidlar ketma-ketligi yoki saytlar kesish sonini ko’payishiga olib keladi. SHu bilan birga bu usul ko’p mehnat va mablag’ talab qilishidir. CHunki har bir DNK ketma-ketligi uchun alohida o’ziga xos optimallashtirilgan “Rux barmoqli” nukleazalar oqsil strukturasi yaratish kerak, ya’ni bu nukleazalar universal emasdir. SHuning uchun “Rux barmoqlari” tizimi keng qo’llanilishi uchun qo’llab-quvvatlanmadi. TALEN (transcription activator-like effectors + nucleases) usuli genomni taxrir qilish uchun yangi instrument hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Epigenomika nima?*
2. *Epigenetik regulatsiya nima?*
3. *DNKning metillanishi nimalar bilan bog'liq?*
4. *Kantserogenez bu?*
5. *Transkripsion faol genlar qanday bo'ladi?*
6. *Transgenlarning o'chirilishi qay tarzda amalga oshadi?*
7. *Genomda nukleosomalardan xoli bo'lgan joylar qanday joylar hisoblanadi?*
8. *H4 bu?*
9. *Gistonlarning modifikatsiyasi bu?*
10. *Interferentsiyasi bu?*
11. *ENCODE qanday loyiha?*

XI. BOB. BIOLOGIK MAKROMOLEKULALARNI VIZUALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

James Watson va Francis Crick tomonidan 1953 yilda DNKning fazoviy tuzilishini kashf qilish va “Nature” jurnalida "Dezoksiribonuklein kislotaning tuzilishi", nomli maqola chop etilgandan beri, zamonaviy tibbiyot va biologiya inson tabiatini tushunish va kasalliklarga tashxis qo'yish va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish borasida katta yutuqlarga erishdi. Oxirgi yillarda molekulyar biologiya tadqiqotlarida YaMR, immunofluorescence, mikroskopiya, PZR (polimeraza zanjir reaksiyasi), FRET (Fluorescence Resonance Energy Transfer) kabi usullarning qo'llanilishi, sitometriyaning turli usullarida to'qima kulturalar, qon hujayralari va asos hujayralari ajratish va saqlash usullari organizm uchun funksional muhim oqsillarning sintezi, signalizatsiya va metabolik ta'sirlar, tirik hujayralarning strukturalarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmai qildi. SHu jumladan elektrofiziologiya sohasida keng qo'llaniladigan “patch clamp” asosida hujayralar kichik guruhning oqimlarini ro'yxatga olish imkonini beruvchi turli modifikatsiyadagi usullar, tutash ion kanallari yoki bitta kanallarning fiziologik xolatlari tadqiqot qilinmoqda. Yuqorida keltirilgan usullar aniq usullar qatoriga mansub bo'lib, ular asosida organizmda kechadigan jarayonlar to'g'risida ma'lumot olish mumkin emas, lekin xali bu ma'lumotlar to'liq shakllangan emas. Oxirgi yillarda olimlar asosiy e'tibori irsiy axborot makromolekulalarining tuzilishi (DNK va RNK), ularning alohida qismlarining vazifasi va birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturalar oqsil makromolekulalari, ularning o'zgaruvchanligi, faolligi, fizik va biologik xususiyatlarini tadqiqot qilishga qaratilgan.

Bioinformatika (hisoblash biologiyasi) - nuklein kislotalarning ketma-ketliklarini o'rganuvchi fan, oqsillardagi DNK/RNK yoki aminokislotalardagi ketma-ketliklar, ularning evolyutsiyasi va yuqorida aytib o'tilgan organizm strukturasini tashkil etuvchi makromolekulalar, elementlar ketma-ketligi va fazoviy tuzilish orasidagi munosabatlar makromolekulalar, ularning fizik xossalari va vazifalarini o'rganadi. Yevropa Bioinformatika instituti olimlarining ta'rifiga ko'ra

bioinformatika kompyuter texnologiyalarining biologik ma'lumotlarini boshqarish va tahlil qilishi tushuniladi. Bu ta'rif bo'yicha, kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi, biologik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va saqlash. Bioinformatika matematika, informatika va biologiya o'rtasidagi interfeysda matematik modellashtirishni keng qo'llaydi va faqat ish stolida kompyuterlarning hisoblash kuchidan emas, balkim ko'p sonli klaster kompyuterlar majmuasidan katta hajmdagi axborotlarni boshqarish bilan bog'liq masalalarni yechish tizimlaridan iborat. Bioinformatikaning asosiy yo'nalishlari: genlarni ketma-ketligi, evolyutsiya, qidiruv va annotatsiya qilish, genom izohi va dekodlash, ekzon-intron o'zaro ta'sirlar, oqsillarni tasniflash va tavsiflash, qiyosiy genomika va proteomika, oqsil va genom evolyutsiyasi masalalari, filogeniya, strukturaviy biologiya, ixtisoslashgan rivojlanish (differentatsiya) dasturiy paketlar va tarmoq xizmatlari, shuningdek, ba'zi boshqalar.

Bioinformatikada ketma-ketlikni tahlil qilish uchun ishlatiladigan eng muhim usul alignment hisoblanadi. Mavjud juft (pairwise alignment) va bir necha (multiple sequence alignment MSA), mahalliy, global qatorlarini taxrirlash usullari mavjud. Usulning mohiyati shundan ikki yoki undan ortiq ketma-ketliklar bir xil yoki o'xshash bo'limlar va farqlarga ko'ra solishtirish o'tkaziladi. Genlar evolyutsiyasi davomida mutatsiyalar, insertsiyalar yoki deletsiyalar sodir bo'lishi mumkinligi sababli ketma-ketlikda "gaps" qo'shimchalar qo'shishga ruxsat beriladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida nukleotidlar yoki aminokislotalar va ularning barcha taqqoslangan ketma-ketliklarda mavjud bo'lgan guruhlarini (motivlarni) aniqlash mumkin. Ya'ni aniq xulosa bilan aytish mumkinki, bu "konservativ" qismlar biologik faol oqsillardagi saytlar evolyutsiya davomida o'zgarmaganligi yoki o'zgarganligi, qarindosh protein yoki DNKlarni aniqlash, o'rganilayotgan ketma-ketlik evolyutsiyasini kuzatishimiz mumkin.

Turli xil oqsillarning yoki DNK larining ketma-ketligini tahlil qilish organizmlardan ajratilgan genlar yoki oqsillarning evolyutsiya yo'nalishi o'rganishga va birinchi paydo bo'lgan vaqtdan oxirgi turdagi faoliyatini tahlil

qilish imkonini beradi. SHunday qilib, MSA yordamida muayyan turning kelib chiqishi va mutatsiyalar chastotasini bilish haqidagi savollarga javob berishingiz mumkin, uning taxminiy yoshini aniqlashingiz mumkin.

Ikkita oqsilni aminokislota ketma-ketligini juftlikda taxrirlash, birida uchlamchi struktura aniq bo'lmasa, birlamchi strukturalarni solishtirish imkoniyati beradi. Taxrirlashning ijobiy natijalarini olinganda, gomologiyalar bo'yicha fikr yuritish mumkin, proteinlarning tuzilishi va funksiyalarining o'xshashligi to'g'risida va fazoviy 3D strukturasini tuzish mumkin. Bunda aminokislotalar ketma-ketligida 40-50% gomologiyaga ega bo'lsa, uchlamchi strukturalarda ular o'xshash bo'ladi va funksiyalari ham o'xshash bo'ladi. Oqsil struktur biologiyasi bioinformatika bir qismi bo'lib, uning uslublarini va matematikadan foydalangan xolda, oqsillarning fazoviy strukturalari bilan bog'liq bo'lgan turli masalalarni yechishda foydalanadi. Bugungi kunda proteinning uchlamchi strukturasini uning biologik funksiyasini begilanishini aniqlangan, shuning uchun oqsilni tashkil qilgan aminokislotalar ketma-ketligidan tashqari, ularning fazoviy tuzilishini bilish katta ahamiyatga ega. Xozirda oqsilning uchlamchi strukturasini aniqlashda ikki xil uslubdan foydalanadi: YaMR (Yadroli magnit rezonansi), va rentgenostruktur tahlil. Bu tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar maxsus bankiga kiritiladi: PDB, SRS, SRS3D, SCOP, CATH, PFAM va boshqalar. Ikkala uslubda albatta kamchiliklar mavjud va o'tkazilishi murakkab hisoblanadi. Bioinformatika oqsillarning uchlamchi strukturasini bashorat qilishda va vizualizatsiya qilishda boshqa uslublardan foydalaniladi. Gomologlarni qidirish va modellastirish (homology modeling) kvant mexanikasi va molekulyar dinamika qonunlari asosida bashorat qilish (AB initio prediction) statistik ma'lumotlar asosida ikkilamchi strukturasini bashorat qilish, folding tanish (fold recognition yoki threading) va oxirgisi strukturani taxrirlash (structural alignment) ishlarini amalga oshiradi. Lekin bu uslublar 3D strukturasini aniq bashorat qila olmaydi, chunki turli ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan noma'lum gomolog strukturasi yoki statistik ishonchga ega bo'lgan bog'lanishlar aminokislotalar ketma-ketliklari o'rtasidagi

bog'lanishlarga asoslangan. Molekulyar dinamika uslublari juda katta hajmdagi hisoblash ishlarini talab qiladi va ko'p yil kerak bo'ladi (AB initio). Eng yaxshi natijalarni bu uslublarni birgalikda olib borish natijasida olish mumkin. Bioinformatika oqsillarning turtlamchi strukturasi to'g'risida ma'lumot bera oladi, ularning ligandlar bilan bog'liqligi to'g'risida (docking) 3D dagi o'zaro tasiridagi molekulalarga asoslangan holda va ularning fizikaviy xususiyatlarini inobatga olib (gidrofoblik, elektrostatistik zaryad, aloxida olingan zanjirlar egiluvchanligi, vodorod bog'larini hosil qilishga qarab) ta'sir joylarini xaqida ma'lumot berish mumkin. Bu kichkina to'liq proteinning faol markaziga tanlanma faollashtirish yoki bloklash bo'yicha molekulalarni modellashtirish mumkin. Bunday modellashtirish yangi dori vositalarini ishlab chiqarishda, ko'p xajmdagi hisoblash ishlari va vaqt resurslarini talab qilinishiga qaramasdan keng qo'llaniladi.

Biologik ma'lumotlarning viziualizatsiyasi intuitiv tasavvurda tushirish hisoblash biologiyasining xal qiluvchi vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, inson 90% ma'lumotni ko'rish organlari orqali oladi, shuning uchun tadqiqotchilar makromolekulalarni va ular komplekslarini viziualizatsiya qilish oqsil strukturasi fazoviy tuzilishi ularning guruhlarining, oqsil-DNK komplekslari, Oqsil-ligand komplekslari bilan samarali ish olib borishda katta ahamiyatga egadir va maxsus dastur ta'minotlari mavjud bo'lib, ma'lumotlar bankidan kerakli strukturalarni tanlab olishda va tadqiqot qilingan molekulalarni tasvirlab berish yoki guruhlarini tushirish va tahlil qilish uchun tasvirlash xususiyatiga egadir. Xuddi shuningdek, bu paketlar murakkab bo'lmagan animatsiyalarni tuzishda, bir yoki bir nechta uslub asosida molekulalar potentsial energiyasini minimalizatsiyalashda, de novo sharoitida tadqiqot qilingan qismlarni modellashtirishda ya'ni in silico da mutatsiyalar hosil bo'lishi uchun sharoit yaratib berishi, tugunlar hosil bo'lishi, gomologlar rekonstruktsiyasida aminokislotalar radikallarining rotamerlarining o'zgarishi, dokingni amalga oshirishda (retseptor va ligand bog'lanishining bashorat qilinishida) vositalarga ega bo'lib, yangi dori vositalarini loyixalashtirishda katta ahamiyatga egadir. Bugungi kunda bunday


dasturiy ta'minotlarga oqsillarni modellashtirish va vizualizatsiya qilishda Deep View Swiss PDB Viewer (the Swiss Institute of Bioinformatics ishlab chiqqan) Dastur ma'lumotlar ustida bazali operatsiyalar o'tkazish xususiyatiga ega. Dastur GROMACS96 uslubi yordamida molekulalar potentsial energiyasini imkoniyatini hisoblash va minimalizatsiyalash xususiyatiga ega bo'lib, gomologlarni modellashtirishni amalga oshiradi, aminokislotalar ketma- ketligini taxrirlaydi, va oqsil molekulalarining strukturasini taxrirlaydi. Foydalanuvchi polipeptid zanjiri bo'yicha bazali operatsiyalar quya oladi-tugunlar tuzishi, mutatsiyalar hosil qilishi, torzion burchaklar diagrammasi nazoratida zanjir konfiguratsiyasini o'zgartira oladi.

Shu bilan birga, molekulyar biologlar uchun kommertsiya maxsulotlari xam keng ishlatiladi. Molekulyar modellashtirish soxasidagi biri kuchli grafik apparati va tushunarli interfeysga ega bo'lgan dasturlardan biri Accelrys Discovery Studio hisoblanadi. Bu dastur Accelrys Pipeline Pilot Server ga ulanganda kuchli platformaga aylanadi, ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi, oqsillarni konstruktsiyalashda, simulyatsiya qilishda, dinamikada ularning o'zaro ta'sinrlarini o'rganishda QSAR (Quantative structure active relationship kompleks protokollarni o'tkazishda) dasturiy ta'minot oqsillarning turli xil tuzilma darajalaridan tashqari dokingi amalga oshiradi, proteinlar bog'lanish strukturalarini xususiyatlarini, molekulyar dinamika va boshqalardan foydalangan xolda murakkab simultsiyalarni amalga oshiradi. Discovery Studio ning shimoliy qismi NCBI ma'lumotlar bazasiga kirish uchun, yangi imkoniyatlar ochib bermoqda, proteomika, farmakologiya va ketma-ketliklarni tahlili uchun protokollar tadqiqotlar uchun bazalarga kirish imkoniyatlarini yaratgan.

Oqsillarning strukturasini va xususiyatlarini in silico sharoitida o'rganish

In silico-bu biologik tajribani kompyuter simulyatsiyasi sharoitida olib borish tushuniladi. Bu ibora biologiyada tez-tez ishlatiladigan in vivo (tirik organizmda) va in vitro (shisha ichida) iboralari bilan taqqoslanganda, atama *silicio* — "kremniy" lotincha ifodaga o'xshash, chunki yarimo'tkazgich material sifatida

